

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HARBIY TA'LIM  
FAKULTETI MAXSUS TAYYORGARLIK SIKLI**

**«HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI ASOSLARI» FANI  
BO'YICHA**

## **MA'RUZA MATNLARI**

(muallifi: o'qituvchi podpolkovnik Ruxsatov A.Q.)

Bilim soxasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim soxasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111500 – Chaqiriqqacha harbiy ta'lim

2020 yil - Toshkent sh

## Mavzu-1/1: «Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologik va nazariy asoslari»

Reja:

Maqsad:

1. Talabalarni HVT asoslari fanining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish.
2. Talabalarni bo'lajak kasblari uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish.
3. Vatan himoyasi uchun jamiyat oldida masuliyat xissini tarbiyalash.

O'quv savollari:

1. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va mohiyati.
2. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ilmiylik va ob'ektivlik tamoyillari.

Vaqt: 4 soat;

Joy: O'quv xonasi;

Uslubi: Tushuntirish, so'zlab berish, ko'rsatish;

Shakli: ma'ruza.

### 1. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va mohiyati.

**Tarbiya** — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda " Tarbiya " atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi Tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday Tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish, to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda Tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning Tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi Tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura

tazyiqi tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Sho'rolar ped.sida Tarbiya orqali xar qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsning Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash karor topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki Tarbiyaning asosiy ob'yekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq ped.si boyligi, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. Natijada, O'zbekiston ped. fani va amaliyotida oila Tarbiya sining ham, ijtimoiy Tarbiyaning ham o'ziga xos o'rnini borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, Tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida Tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol Tarbiyaga doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

### ***Qozoqboy Yo'ldoshev.***

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining bosh vazifasi mustaqil, o'z yo'lidan rivojlanayotgan Vatanimiz uchun, g'urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf – odtlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, qo'limizdagi qurol bilan muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z fuqarolik burchini ado etishdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy xizmatga himoya rivojlantirish, harbiy kasblarni egalash, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni ko'zda tutadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta'minlaydigan fikr, ishonchini, dunyo qarashni shakllantirish, unga bor kuchni, kerak bo'lsa hayotini ham berish. Bo'lajak jangchilarning ma'naviy – ruhiy, axloqiy – intizomiy, jangovar xislatlarini tarbiyalashni tarbiyalashdan iborat.

Harbiy – texnik tayyorgarlik bo'lib, ularda quyidagi jangovar xislatlar shakllanadi: harbiy bilim, jangovar mahorat, intizomlilik va tashkiliylik, jangovar birodarlik harbiy qasamyod va nizomlar talablarini, komandir va boshliqlar buyruq va ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish. Bu erda boshlang'ich harbiy tayyorgarlik, mudofaa – ommaviy ishlari katta o'rin tutadi.

Respublikamizda harbiy tayyorgarlikka har doim katta e'tibor berilgan, 1918 yildan boshlab mamlakatda harbiy o'rta o'quv yurti, ya'ni hozirgi Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurti faoliyat ko'rsatmoqda, u minglab yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorladi, 50 ga yaqin bitiruvchilari qahramonlik unvoniga loyiq bo'ldi.

Aholini harbiy o'qitishga ("Armiya, aviatsiya va flotga yordam ko'rsatishning ko'ngilli jamiyati" DOSAAF), hozirda "Vatanparvar" mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot (MKT) katta va behisob hissa qo'shdi.

Urush yillarida bu tashkilot 27000 pulemyotchi, 3340 mergan o'q otuvchi, 4551 otlik, 22400 Voroshilov merganlari, 22000 o'qchi, 3000 avtomobil va mototsikl haydovchilari, 3078 tibbiy hamshira, 2000 aloqachi, 4 ta aviatsiya diviziyasi uchun uchuvchi, shturman, o'qchi – radistlarni tayyorladi.

1934 yildan boshlab Toshkent aviaklubi ish boshladi, uning 10 ta bitiruvchisi Ikkinchi Jaxon urushida qahramon bo'ldi.

Respublika DOSAAFi O'rta Osiyo respublikalari hududlarida shakllangan o'n minglab vatanparvarlarni tayyorladi. Mehnatkashlar, yoshlar harbiy tayyorgarligi zamonaviy sharoitlarda mamlakat mudofaa qudratini boshqarish bo'yicha davlat faoliyatida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Hozirgi kunda Toshkent, Chirchiq, Jizzax shaharlarida oliy harbiy bilim yurtlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Vazirlar Mahkamasining „O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasini tashkil etish to'g'risida”gi 1994 yil 15 iyuldagi qaroriga ko'ra tashkil etilgan Qurolli Quchlar Akademiyasi ofitser kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish bo'yicha etakchi ta'lim muassasasi bo'lib, Mudofaa vazirligi harbiy ta'lim muassasalarining zaruriy ilmiy – metodik va axborot – tahliliy markazi hisoblanadi.

Qo'shinlar qurollanishida raketa quroli, avtomatlashtirilgan boshquruv tizimlari, zamonaviy aloqa vosita radiolokatsion moslamalar, avtomatika va telemexanika turli qurilmalari mavjud. Samolet, jangovar texnika va Qurolli Kuchlarning piyoda va boshqa turlari qurollanish jangovar imkoniyatlari anchaga kengaydi.

Jismoniy o'quv-nafaqat o'z – o'zidan muhim bo'lgan tetiklik va optimizm manbasi, balki Vatan mehnati va himoyasiga tayyorlik, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish shaklidir.

Maktab yillari – butun umrga poydevor, ya'ni sog'liq asoslarini singdiruvchi paytdir. Harakat, gimnastika, sport o'yinlari yoshlarning ijobiy xislatlarini shakllantiradi. Mardlik, iroda, qiyinchiliklarni bartaraf eta olish kabi xislarni tarbiyalaydi. Bolalikda yo'l qo'yilgan jismoniy tarbiyadagi kamchiliklar, murakkab va ba'zida esa umuman katta yoshda to'ldirib bo'lmaydigan jarayondir.

Zamonaviy yoshlarning jismoniy tayyorgarligi zamonaviy ishlab chiqarish hamda Qurolli Kuchlar safida xizmatga bo'lgan talablarga to'laqonli javob bermaydi. Bu o'z o'rnida yoshlarning aqliy, jismoniy, ahloqiy – ma'naviy va ruhiy holatlari bilan bog'liq bo'lgan kasalligidan xalq xo'jalik sohalari ham katta zarar ko'rmoqda.

Statistika ko'rsatadiki, yoshlar ichida ortiqcha og'irlikka ega, kasalliklarga moyil bo'lgan gavda va tayanch – harakatlantiruvchi apparatda nuqsonlari bo'lgan yoshlar foizi katta, mutaxassislar fikricha, qoloq o'quvchilar ichidagi 58% dangasalik yoki yaxshi rivojlanmaganlik sababligi ko'ra emas, balki jismoniy nuqson va kamchiliklar deb o'z tengdoshlaridan orqada qoladi.

Tuman, shahar madaniy-oqartuv va sport muassasalaridan yaxshi foydalanish, turli sport to'garak va seksiyalari faoliyati oshirish jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sifatliroq o'tkazish maqsadiga muvofiq.

## 2. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ilmiylik va ob'ektivlik tamoyillari.

Talaba – yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo'lishi, ularni har taraflama harbiy xizmatga tayyorlash va Mustaqil O'zbekiston ravnaqini himoya qilish bo'yicha o'z burchini ado etish – o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etishda "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fani yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'quvchilarni xizmat qilishga ma'naviy – siyosiy, psixologik va jismoniy jihatdan tayyorlashning tashkili, mazmuni, shakllari va uslublarini tashkil qiladi.

"Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fanining asosiy vazifalari quyidagilar:

Birinchidan, o'quv yurtlarida o'rganiladigan boshqa fanlar bilan bog'langan holda talabalarni milliy vatanparvarlik ruhida o'z Vatani himoyasiga qo'lida qurol bilan chiqishga doim tayyor bo'lishga tarbiyalash;

Ikkinchidan, talabalarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning faol, ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g'oyalari sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va o'z Vatani uchun hayotini beradigan insonlarni etishtirish;

Uchinchidan, talabalarni "Harbiy vatanparvarlik tarbiya" masalari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda o'rta o'quv muassasalar, litseylar, kollejlardagi «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisiga xos bo'lgan lavozimda o'quv-tarbiyaviy ishning tashkil etilishi va o'tkazilishi bo'yicha ko'nikma va qobiliyalarini shakllantirish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha masalalar boshlang'ich harbiy tayyorgarlik fanni o'rganish natijasida talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

- o'rta maxsus va kasb – hunar ta'lim o'quv yurtlaridagi „Yoshlarning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarligi” mashg'ulotlari davomida va darsdan tashqari tadbirlar, shakl va metodlari, mudofaa va sport ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasini;

- "Vatanparvar", "Salomatlik" normalari va "Temurbeklar" harbiy sport o'yinini tashkil qilish va o'tkazishni, o'quv-dala mashg'ulotlarini o'tkazish, „Yoshlarning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarligi” fanining tugashiga bag'ishlangan bayramlarni o'tkazishni.

"Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fanini o'rganish natijasida talabalar quyidagilarni bajara olishi zarur:

- o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'rta maxsus talim o'quv yurtlaridagi tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, ya'ni halqimiz jangovar va mehnat shuhratiga sazovor bo'lgan joylariga safarlar uyushtirish;

- urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, Qurolli Kuchlar askarlari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- harbiy vatanparvarlik mavzusi bo'yicha konferensiyalar o'tkazish, harbiy Oliy bilim yurtlarida o'qish uchun nomzodlar tanlash va tayyorlash;

- harbiy ish asoslarini o'rganish uchun harbiy to'garaklar tashkil qilish.

Mazkur fanni o'rganish jarayonida har bir talaba mustaqil ravishda harbiy vatanparvarlik mavzusida 4-5 ma'ruza tayyorlashi (doklad, referat) shart.

Mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish yoshlar tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ilmiy-texnika rivojlanishi tezligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarbiyalash - bu insonlarni jamiyat uchun jismoniy - aqliy mehnatga yoki boshqa foydali faoliyatga yo'naltirish, shu bilan birga ko'p qirrali ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashning ob'ektiv asoslangan jarayonlardan iborat. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo'llaniladi. Bu tushunchaga insonning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy jismoniy va boshqa fazilatlarini yig'indisi kiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O'zbekiston Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g'oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Halq ta'limi vazirligi, Mudofaa vazirligining buyruq va ko'rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa qoida hamda me'yoriy hujjatlar o'rin olgan.

Vatan himoyasi haqidagi asosiy hujjat davlatimizning „Mudofaa to'g'risida”gi Qonunida aks etgan. Ushbu Qonun mudofaani tashkil etishning hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarni boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab, mamlakat mudofaasini ta'minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab beradi.

„Mudofaa to'g'risida”gi Qonunida alohida mamlakat mudofaasi xususiyatiga ega bo'lib, Qurolli Kuchlarni tajavo'zkorliklarni bartaraf etish va qaytarishga tayyorlash, Vatan himoyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar tizimini tashkil etadi. Harbiy xavf potensial manbalari mavjud ekan O'zbekiston zaruriy etarlilik darajasida davlat mudofaa qudratini mustahkamlashi zarur.

Xavf-xatar tug'ilishi mumkin bo'lgan sabablar:

1. Dunyoning turli mintaqalarida qurollangan guruhlarining bir joyga to'planishining

yuqori darajasi;

2. Dunyo bo'yicha siyosiy vaziyatning kuchayishi;
3. Alohida davlatlar va davlat bloklarining o'z siyosatlarini kuch bilan hal qilishi;
4. Ba'zi davlatlarning boshqa mamlakatlar chegarasi yaqinida o'z qurolli kuchlari guruhlarini kuchaytirishga intilishi;
5. Chegaradosh mamlakatlarda yuzaga kelgan siyosiy ahvolning o'zgaruvchanligi va ularning kuchayishi imkoniyati mavjudligi;
6. Ba'zi bir Davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi malakatlarga o'z ta'sirini kuchaytirishga intilishi;
7. Siyosiy ekstremist guruhlar, noqonuniy-harbiy uyushmalar tomonidan tashkil qilingan terroristik aktlar. Shu bilan birga millatlar orasida buzg'unchilik siyosatning olib borilish faoliyati. Xalqning tinch hayoti va mamlakat havfsizligi kafolati, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ygan mamlakatimiz mustaqiligini kuriqlaydigan Qurolli Kuchlarimizning tarixiy vazifasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52 - moddasida yozilgan: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir O'zbekiston fuqarosning burchidir. Shuning uchun 9 yanvar 2018 yilda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan harbiy Doktrina iqtisod, mintaq va aholini mudofaa, qilishga tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini aniqlaydi.

Jumladan aholining harbiy tayyorgarligi:

- 1) O'quv muassasalar va boshqa o'quv yurtlari, "Vatanparvar" Mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot (MKT) o'quv to'garaklarida, chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi yoshlarning harbiy tayyorgarlik tizimida;
- 2) Qurolli Kuchlarda shaxsiy tarkibning muddatli harbiy xizmatni o'tashi davomida;
- 3) Harbiy litseylar, Respublika fuqarolik oliy o'quv yurtlarining harbiy fakultet va kafedralarida;
- 4) Qurolli Kuchlarga tegishli bo'lgan maxsus to'zilmalarda.

Mamlakat fuqarolarni Vatan himoyasiga tayyorlash ta'lim-tarbiya tizimining barcha shakllarida olib boriladi.

Vatan, erga bo'lgan muhabbat – xalqimiz qalbiga singib ketgan, azaliy milliy xususiyatga ega bo'lgan xislatdir. I.A.Karimov aytib o'tganlaridek: "Ma'naviyat sohasida eng asosiy vazifamiz insoniy qadriyatlarimizni asrash va rivojlantirish, bolalarimizni ozod demokratik O'zbekistonning komil o'g'il- qizlari qilib tarbiyalashdir".

Tarbiyaning siyosiy, g'oyaviy, e'tiqodiy, estetik va boshqa turlari har bir O'zbekistonlikda yangi jamiyatning barkamol avlodi, yuqori ma'naviy - siyosiy xislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda unda mamlakat sarhadlari daxlsizligini ta'minlash borasidagi eng dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglatishdir.

Davlatimizning asosiy vazifalaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodlari va shakllari yordamida inson ongiga har qanday tajovo'zkorliklarga qarshilik ko'rsatishda doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z Vatani himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik hissiyoti ruhida tarbiyalashdir.

Talaba - yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida pedagogika va psixologiya qoidalaridan keng foydalanilinish katta ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, unda asosan quyidagilarini anglash lozim: talaba – yoshlarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; ularda o'z Vatanning qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiyalash; komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish va ular oldida turgan vazifalarni bajarishga va har xil vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytgan: "Fan - bu dunyo boyligi. Bilim – insonning oliy va muqaddas yutug'i. Zero bilish ko'zgu kabi, bizga dunyoga qarashimizni, intilishlarimizni ko'rsatadi. Qilich kabi aqlimizni, fikrimizni o'tkirlaydi".

Ahloqiylik - avvalam bor bu vijdon, vijdoniylik hissi. Bu- ishonch va haqiqatgo'ylikdir.

Ajdodlarimiz insonni ahloqiy baholash mezonlar majmuini ishlab chiqqan, zamonaviy til bilan aytganda, "Sharqiy ahloq kodeksini" yaratgan. Inson qalbida nonni halol topmayotganlar, insofsizlik, vijdotsizlikka nisbatan qarshilik tug'ilishi lozim. Faqat bunday inson o'z so'zida turadi, boshqa kimsa haqqiga yomn ko'z bilan qaramaydi, Vatani va xalqi himoyasi uchun o'z jonini ayamaydi va aksincha, kazzob mahmadonada vatanparvarlik hissi bo'lmaydi. Har qanday yovo'z ish, xudbinlik, yuzqoralik – Vatanga nisbatan xoinlikdir.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarni bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, Vatanga, ona-yurtga bo'lgan munosabatlarni muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Axloq – bu jamoatchilik tomonidan qabul qilingan, insonlarning jamiyatda, oilada, mehnatda, bir-birlariga munosabatda va o'z-o'zlariga munosabatdagi xulq – atvoriga qo'yiladigan talablar, me'yorlar va qoidalarning yig'indisi.

Demokratik jamiyatni quruvchisi jamiyat baxt – saodati yo'lida halol mehnat qilishi, ijtimoiy burchni yuksak darajada anglashi, ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik kerak, deb ta'kidlangan. Harbiy vatanparvar talaba – yoshlarimiz, bir yoqdan, fidokorona ta'lim – tarbiya va chuqur bilim saviyalarini oshirish bilan nimalarga qodir ekanini ko'rsatsalar, shuningdek xulq – atvor, axloqlari, ma'naviy go'zalliklari bilan namoyish qilishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni zamonda mehnat va ijod maydonining eng og'ir sohalarida jonbozlik, vatanparvarlik, odamiylik fazilatini ko'rsatib jamiyat hurmati va muhabbatining qaynoq ilhom manbai bo'lib qolmoqdalar. Chunki, bizning oldimizda o'tmishning asoratlaridan ozod bo'lgan, o'zining mustaqil fikriga ega, o'z millati va Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan barkamol vorislarni tarbiyalab etkazish vazifasi turibdi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o'rganuvchi harbiy psixologiya ham muhim ahamiyatga ega.

Harbiy psixologiya Vatanimiz himoyasi uchun o'z burchini bajarishga yoshlarni psixologik tayyorlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Psixologik fan inson shaxsiyoti, ichki ma'naviy dunyosi, o'zini tutish omillari, bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi.

Tarbiyachilarning psixologik fanni yaxshi bilishi, ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o'quvchilarini harbiy o'quv yurtlariga kirish va O'zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida hizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Yoshlarning harbiy vatanparvalik tarbiyasi, shuningdek zamonaviy urush xususiyati, qurollangan jang vosita va shakllari, qonuniyligi, jangovar harakatlar sharoitlarini ochib beradigan harbiy fan bo'lib, qoida va xuloslarini hisobga olgan holda tashkil kilinadi. Harbiy fan har bir kishi qanday ma'naviy-siyosiy, psixologik va jangovar xislatlarga ega bo'lishi, Vatan himoyachisi majburiyatini muvaffaqiyatli bajarini uchun unga qanday bilim, ko'nikmalar zururligi haqidagi savollarga javob beradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiya ilmiy asoslari, Vatan himoyasiga yoshlarning ma'naviy siyosiy va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha amaliy faoliyatning mazmuni, tashkili, shakl va metodlarini aniqlovchi boshlang'ich nizomlar, asos soluvchi qoidalar, talablarini bildiradigan prinsiplarda tadbiiq qilinadi hamda aniqlashtiriladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi prinsiplari o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektivdir. Ular haqiqiy holat, real aloqa va munasabatlari aksi, mamlakat mudofaasiga xalqni tayyorlash bo'yicha davlat va ijtimoiy tashkilotlarni ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat ifodasidir.

## **Мавзу-2/1: « Umumiy o'rta ta'lim muassaslarida harbiy-vatanparvarlik va mudofaa-ommaviy ishlarni rejalashtirish»**

Reja:

O'quv maqsadlar:

1. Talabalarga ommaviy mudofaa ishlarini rejalatirishga bo'lgan talablar haqida tushuncha berish.
2. Talabalarga o'quv yurti ma'muriyati va ChQBT rahbari ishlarini rejalashtirish bo'yicha vazifalarini yoritib berish.
3. Talabalarga vatanparvarlik ruxini singdirish.

O'quv savollari:

1. Ommaviy mudofaa ishlarini maqsadi, vazifalari va yo'nalishlari. OMI bo'yicha ChQBT rahbari majburiyatlari.
2. OMI ning shakl va uslublari.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma'ruza

O'tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta'minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko'rgazmali qurollar va mashg'ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida". T- 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida Nizom. T.: 2006.
4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig'ining buyruq va direktivalari.

1. HVT va OMI ni rejalashtirishga bo'lgan talablar.

*"...Тарбияни тузилган кундан бошламоқ лозим экан. "Тарбияни ким қилур? Қайдан қилинур?" деган савол келадур. Бу саволга биринчи уй тарбияси-бу она вазифасидур. Иккинчи мактаб ва мадраса тарбияси – бу ота, муаллим, мударрис ва ҳукумат вазифасидир, деган жавобни берсак". Абдулла Авлоний (Туркий гулистон ёхуд ахлоқ)*

*"Дарҳақиқат, кишининг бахтсизлиги, унинг тарбиясизлигида. Тарбиясиз киши шарму ҳаёсиздир. Ҳаёсизда эса эътиқод суст, хиёнаткорликка мойиллик туйғуси кучли бўлади. Бундай инсон моҳиятан "яланғоч" бўлиб, айнан гўзал одоб, ибратли ахлоққа асосланган таълим –тарбия уни "кийинтиради", зеб беради, юксалтиради, комиллик сари элтади.*

**Шайх Абдулазиз Мансуров** (исломшинос – олим)

*"Инсон табиатидаги етти фазилат- булар адаб, билим, қаноат, шарм-ҳаё, хушхулқлик ва маъсуллик. Етти ноқислик –булар газаб, қўрқув, тошбағирлик, ношкурлик, ялқовлик, бахиллик, ёлгончилик ва лафзсизлик"*

**Обиддин Махмудов** (Фарзанднома)

Harbiy vatanparvarlik va mudofaa-ommaviy ishlarini rejalashtirishga bo'lgan asosiy talablar.

Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun harbiy xizmatga tayyorlash tizimining asosiy qismi hisoblanadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qisqa vaqt ichida asosan yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tashkiliy-huquqiy bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Mudofaa to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

"Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risi"dagi qonunlari, "Harbiy Doktrina", harbiy Qasamyod, harbiy qism Jangovar Bayrog'i haqida Nizomlar, Umumharbiy Nizomlar respublika vazirliklari va boshqarmalarining normativ koidalari ishlab chikildi.

O'rta ta'lim muassasalarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda markaziy shaxs – bu «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi hisoblanadi.

Ularning hammasi ham yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega emas. Har yili o'quv yurtlariga yosh pedagoglar – «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Buxoro va Farg'ona Davlat Universitetlari "Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik va jismoniy tarbiya" fakulteti bitiruvchilaridir.

Tajribalar ko'rsatishicha yangi «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchilari chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rejalashtirishda ko'proq qiyinchiliklarga uchraydilar.

O'quv yurti «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi o'quv tarbiya jarayonini rejalashtirish muhim o'rin egallaydi. Mahorat bilan o'z vaqtida rejalashtirish O'zbekiston Respublikasi Hukumati, Mudofaa Vazirligi va Xalq ta'limi Vazirligining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga yoshlarni tayyorlash masalalari «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining asosiy boshqaruv hujjatlari talablarini chuqur bilishiga asoslanadi.

Barcha harbiy vatanparvarlik va sinfdan tashqari mudofaa-ommaviy ishlari pedagogik jamoa va "Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkilotining faol ishtirokida rejalashtiriladi.

Harbiy vatanparvarlik, ommaviy – mudofaa ishlari umumiy rejasi sinfdan va o'quv muassasadan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi (direktor o'rinbosari) tomonidan ishlab chiqiladi va o'quv yurti direktori tomonidan tasdiqlanadi. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi umumiy rejaga kiritilishi uchun o'z takliflarini beradi, Umumiy rejada quyidagi tadbirlar o'z aksini topishi kerak:

1. Bo'lim sardorlari bilan mushg'ulot.
2. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» dasturi bo'yicha o'quvchilar uchun guruh va individual maslahatlar.
3. O'quvchilar tomonidan "Salomatlik" kompleksi hamda kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish bo'yicha normalarni ishi.
4. Katta sinf o'quvchilarini "Temurbeklar" harbiy sport o'yinlarida ishtirok etishga tayyorlash.
5. Harbiy qism va harbiy o'quv yurtlariga ekskursiyalar.
6. O'quv muassasa bitiruvchisi bo'lgan harbiylar, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik a'lochilari bilan ucharashuv o'tkazish.
7. Harbiy vatanparvarlik mavzusidagi kinofilmlarni namoyish etish.
8. Harbiy – otaliq ishlarini tashkil etish.
9. Harbiy kasb tanlash bo'yicha tadbirlar o'tkazish.
10. O'quv muassasa bitiruvchilarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tantanali ko'zatish.
11. Chaqiriqqacha tayyorgarlik kursini yakunlashga bag'ishlangan harbiy-sport bayrami o'tkazish.
12. Ommaviy mudofaa ishlari to'garaklarini tashkil etish va uning faoliyati.
13. Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik moddiy bazasini mukammallashtirish bo'yicha

ishlar.

## 2. O'quv yurti ma'muriyati va ChQBT rahbarini rejalashtirish bo'yicha vazifalari.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyalash ishlarini olib borishdan maqsad o'quvchilarda Vatanga sadoqat, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va suvereniteti bilan fahrlanish, uni himoya qilishga doim tayyor turishni tarbiyalash. O'quvchilar bilan harbiy vatanparvarlik ishlarida asosiy e'tibor harbiy vatanparvarlik mavzusida ijtimoiy – iqtisodiy informatsion suhbatlar, urush faxriylari bilan uchrashuv, otaliq harbiy qismi jangchilari bilan tanishuv, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va O'zbekiston xalqi jangovar va mehnat an'analarini tashviqot qiluvchi tematik uchrashuvlar, savol – javob kechalariga qaratiladi.

Yodgorliklar, birodarlik qabristoni va Vatan ozodligi uchun kurashda halok bo'lganlar xotirasi uchun o'rnatilgan haykallar, yoniga borib xotiraga olish, muzey, harbiy qismlarga borishni tashkil etish.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyalash ishlari quyidagi maqsadlarni ham o'z ichigi oladi:

-sog'liqni mustahkamlash, yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yaxshilash, O'zbekiston Respublikasi mehnati va mudofaasiga har taraflama tayyorlash;

-yoshlar jismoniy tarbiyasini yaxshilash, "Salomatlik" va "Vatanparvar" kompleksi normativlari hamda jismoniy tayyorgarlik nazorat normativlariga yaxshi tayyorlash va topshirish.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyalash ishlari 5 kunlik yig'inlarga mo'ljallangan harbiy vatanparvarlik va ommaviy -sport ishlari rejasini ko'rib chiqamiz:

## 3.HVT va OMI rejalashtirish turlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda PQ-4061-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi 369-son qaroriga asosan quyidagilar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tashkil etiladigan va o'tkaziladigan tadbirlarning asosiy shakllari hisoblanadi:

ommaviy-sport ishlari, marafonlar, sportning o'yin turlari (futbol, voleybol, regbi va boshqalar), «Temurbeklar», «Yosh qutqaruvchi» kabi harbiy-sport o'yinlarini, «Harbiy kitobxon» kabi tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish;

harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish, harbiy texnika va qurol-aslahalar namunalari namoyishlarini tashkil etish maqsadida yoshlarning harbiy qism va muassasalarga tashrifini tashkil etish;

harbiy-ma'muriy sektor rahbariyatining yoshlar bilan tematik uchrashuvlarini tashkil etish;

viloyat, tuman, shahar markazlarida badiiy havaskorlik guruhlarining chiqishlari, harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyishi, qo'l jangi bo'yicha chiqishlar, harbiy orkestrlarning musiqali (defile) chiqishlari, faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari va boshqalarni o'z ichiga oluvchi harbiy-vatanparvarlik festivallarini o'tkazish;

yoshlarning intellektual saviyasi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan turli ijodiy tanlovlar (badiiy, teatrlashtirilgan va boshqalar) o'tkazish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ertaliklarini o'tkazish hamda Vatanga sadoqat, avlodlar qahramonligini madh qilishga qaratilgan «Men ham harbiy bo'laman!» shiori ostida turli estafetalar tashkil etish va o'tkazish;

kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda vatanparvarlik ruhidagi «Mardlik va jasorat», «Tinchlik», «Mustaqillik» kabi jasorat darslarini tashkil etish va o'tkazish;

muddatli harbiy xizmatga tantanali kuzatish va kutib olish, Vatanga qasamyod marosimlarida, muddatli harbiy xizmatchilarga imtiyozli tavsiyanomalar topshirish tadbirlarida, kursantlarning bitiruv kechalarida yoshlarning ishtirokini ta'minlash;

yoshlar ishtirokida «E'zoz», «Ehtirom», «Avlodlar uchrashuvi» nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, tarbiyalanuvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning o'quv-moddiy bazasini takomillashtirish;

yoshlar ishtirokida harbiy-ma'muriy sektorlar va harbiy qism qo'mondonligi rahbarligida davlatimiz rahbariyatining harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga ko'rsatayotgan g'amxo'rligi, ularga berilayotgan imtiyozlar, jamiyatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari to'g'risidagi, shuningdek, harbiy xizmatni o'tash va Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini targ'ib qiluvchi uchrashuvlar va ochiq muloqotlar tashkil etish va o'tkazish.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-son qaroriga asosan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

a) birinchi bosqich (3 — 7 yoshdagilar) atrofda olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, mul'afil'm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish;

ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog'liq mavzulardagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish;

bolalarning tasavvo'rini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma'naviy rag'batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi mul'afil'mlar namoyish etish va turli o'yinlar o'tkazish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish;

b) ikkinchi bosqichda (7 — 16 yoshdagilar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufo'zini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi. Bu bosqichda:

zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va qo'shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish;

o'quvchi yoshlar ishtirokida «Vatanimni ko'z qorachig'idek asrayman», «Yurt taqdiri — mening taqdirim» mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

sog'lomlashtirish oromgohlarida «Temurbekning izdoshlari», «O'zbekiston farzandlari botir bo'lur» kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusida badiiy va hujjatli fil'mlar, mul'afil'mlar namoyish etish va ularning muhokamasini o'tkazish;

darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to'g'risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

Temurbeklar maktablari, oliy harbiy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlar va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish;

«Mard o'g'lon» davlat mukofotiga sazovor bo'lgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvlar o'tkazish, ular erishgan yutuq va natijalarni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida «Temurbek vorislari» harbiy-sport o'yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga alohida ahamiyat berish;

v) uchinchi bosqich (16 — 18 yoshdagilar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Mazkur bosqichda yuqoridagi vazifalarga qo'shimcha ravishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirib borish;

o'quvchi yoshlarning nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini boyitish maqsadida mudofaa ishlari bo'limlari va harbiy qismlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazzun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish;

milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib borish;

g) to'rtinchi bosqich (18 — 30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Ushbu bosqichda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak, ota-ona va Vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashning ahamiyati to'g'risidagi tasavvur va bilimlarni yanada boyitish;

Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o'tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va Vatanga qasamyodga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish;

(15-bandning «g» kichik bandi uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 martdagi 179-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2020 y., 09/20/179/0350-son)

harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko'nikmalarini rivojlantirish;

jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarini shakllantirish;

yoshlarning o'z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun yaqindan ko'maklashish;

kitobxonlikni keng targ'ib etish, jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

milliy mafkuramizga zid bo'lgan yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o'ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas'uliyatni his etish, qat'iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish.

Misol tariqasida birinchi sinfdan boshlab harbiy vatanparvarlik va ommaviy - mudofaa ishlari umumiy reja asosida qanday olib borilishi ko'rib chiqamiz, **I-IV** sinf o'quvchilari uchun rejada tanishuv mazmunidagi tadbirlar ko'zda tutilgan, bular "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari", "Baynalminalchi jangchilar, ular kim?" degan mavzuda suhbatlar o'tkazish, badiiy adabiyotlar o'qish.

Qurolli Kuchlar, buyuk tarixiy shaxslarga bag'ishlangan spektakl, kinofilm, teleko'rsatuv, videofilmlar tomosha qilib, muhokama qilish.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga bag'ishlangan ko'rgazma, viktorinalar, kolleksiyalar to'plash.

Qurolli Kuchlar jangchilariga bag'ishlangan eng yaxshi rasm va eng yaxshi she'r o'qish konkurslarini o'tkazish.

Qahramonlar nomi berilgan ko'chalarga sayohatlar, yodgorliklarga gullar qo'yish, faxriylarni tabriklash.

Ommaviy – mudofaa oyligi kunlarida Fuqaro himoyasi bo'yicha vitorinalar, "Havo trevogasi" signallari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish.

Ko'rinib turibdiki, I-IV sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan tadbirlar o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari haqida boshlang'ich bilimlar berishga, bolalarga oddiy harbiy ko'nikmalar singdirishga imkon beradi. V-VI sinf uquvchilari bilan o'tkaziladigan tadbirlar ancha murakkabroq xususiyatga ega, ularga quyidagilar kiradi:

Urush va mehnat qahramonlari haqida materiallar izlash bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun izquvarlik harakatida ishtirok etish;

Nogironlar, faxriylar, harbiy xizmatchilar oilalariga yordam berish;

I-IV sinf o'quvchilariga harbiy vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazishda yordam ko'rsatish;

Davlatimiz va Qurolli Kuchlar tarixiy sanalariga bag'ishlangan tantanali saf tortish;

Qahramonlik darslari;

Nogironlar, faxriylar, harbiy xizmatchilar oilalariga yordam ko'rsatish bo'yicha faxriylar oldida axborot (hisobot) berish;

"O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari - Vatan himoyasida" mavzusida gazeta, jangavor varaqa, fotogazetalar chiqarish;

Vatan va Qurolli Kuchlar haqida eng yaxshi qo'shiq ko'rik tanlovi;

Harbiylashtirilgan o'yinlar;

Ommaviy - mudofaa ishlari oyligi kunlarida saf tortish va qo'shiq ko'rigi;

Harbiy - texnik to'garaklar ishlarida ishtirok etish;

Shunday qilib, V-VI sinf o'quvchilari kichik o'rtoqlariga otaliq qila boshlaydilar, natijada ularning mas'uliyatliliigi ortadi.

VII-IX o'quvchilari rejasiga quyidagi tadbirlar kiritiladi:

"Vatanparvar" MKJga a'zo bo'lish, ommaviy - mudofaa ishlarida faol ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Vatan himoyasi to'grisida mavzusidagi tadbirlarda ishtirok etish;

"O'zbekiston - Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qurashlarda" ijodiy ishlar ko'rgazmalarida ishtirok etish;

Harbiy - vatanparvarlik mavzusida ijtimoiy - siyosiy ma'ruzalar o'tkazish;

"Yosh o'qchi" to'garagida ishtirok etish;

"Salomatlik" kompleksi normalarini topshirish;

"Vatanparvar" MKJ maktabi sport seksiyalari, ommaviy-mudofaa to'garaklarida ishlash;

Sportning harbiy sport turlari musobaqlarda ishtirok etish;

IX-XI sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan tadbirlarga quyidagilar kiradi;

O'zbekiston xalqi va Qurolli Kuchlar jangovar an'analarini chuqur o'rganish;

Bo'lajak jangchi klubida ishlash;

Ma'ruzachilar guruxlari ishlarida ishtirok etish;

"Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkiloti ishlarida faol ishtirok etish;

Vatanparvarlik qushiqlari ko'rik – tanlovi o'tkazish;

"Temurbeklar" harbiy-sport o'yinlarida ishtirok etish;

Harbiy qismlarda bo'lish harbiy xizmatchilar hayoti va turmush sharoiti va harbiy texnika bilan tanishish;

YOshlarni harbiy xizmatga tayyorlash bo'yicha olimpiyadalarda ishtirok etish;

Harbiy o'quv yurti qursantlari bilan o'quvchilar uchrashuvini o'tkazish;

Halok bo'lgan qahramonlar yodgorliklariga gulchambarlar qo'yish;

"Mohir o'qchi" va o'qchi darajasiga tayyorlovchi to'garaklarida ishtirok etish;

Harbiy amaliy sport turlari bo'yicha tuman, shahar musobaqlarida ishtirok etish;

"Vatanparvar" kompleksi normativlari bo'yicha sinflar o'rtasida musobaqa o'tkazish;

Ommaviy mudofaa ishlari oyligida ishtirok etish;

«Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» bo'yicha tuman ko'rik tanlovida ishtirok

etish;

Bu asosiy tadbirlar ro'yxati orqali o'quvchilar bosqichma-bosqich harbiy mahorat sirlarini egallayotganlarini ko'zatish mumkin.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va ommaviy - mudofaa ishlari kompleks rejasiga muvofiq o'quv yurti "Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkiloti ish rejaları to'ziladi. Umumiy reja tadbirlari sinf rahbarlari tarbiyaviy ish rejalarida ham o'z aksini topadi. Harbiy vatanparvarlik ishlari va yoshlarni harbiy xizmatiga tayyorlash bilan bog'liq masalalar ko'p holda pedagogik kengashda ko'rib chiqiladi.

Ko'rsatib o'tilgan barcha tadbirlarni amalga oshirishda «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisiga katta o'rin ajratiladi. Harbiy vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazish uning ishtirokisiz o'tmaydi.

Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash masalalari borasida butun o'quv muassasa jamoasi o'rinishlarining yakuniy maqsadi hammadan ham «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisiga yaxshi tushunarli. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining san'ati ham bo'lajak Vatan himoyachilarini tayyorlash uchun o'quv yurtida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishdan iboratdir.

«Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi harbiy vatanparvarlik va ommaviy - mudofaa ishlarini olib borishda o'quv yurti sinf rahbarlari va jamoa tashkilotlarga metodik va amaliy yordam ko'rsatadi, katta sinf o'quvchilaridan ommaviy - mudofaa va harbiy vatanparvarlik ishlari faollarini tayyorlash, o'q otish va texnik to'garaklar ishiga rahbarlik qiladi, mudofaa ishlari bo'limi, "Vatanparvar" MKJ qo'mitasi, otaliqqa olgan harbiy qism bilan doimiy va ishga oid aloqalarni ushlab turadi.

### 3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari ma'muriyati, tashkilotlar va ChQBT rahbarini HVT bo'yicha majburiyatlari.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi har qanday murakkab tizim kabi boshqaruvga muhtoj. Boshqarish funksiyalari ko'p ma'noli, lekin asosiysi, uning negizida harbiy vatanparvarlik ishlarini tashkil qilish va o'quvchilarning bo'lajak harbiy xizmatga munosabati natijalari darajasi, ularning Vatan himoyasiga tayyorgarligini va uni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'rganish yotadi.

#### *O'quv muassasa direktorining vazifalari:*

1. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga umumiy rahbarlik qilish, kadrlarni tanlash, tarbiyalash va joy joyiga qo'yish;

2. Harbiy vatanparvarlik ishlari holatini tahlil qilish, uni rejalashtirish, rejalarni jamoat, o'quv muassasadan tashqari tashkilotlar, tayanch korxonalar bilan moslashtirib olish;

3. Harbiy vatanparvarlik faoliyati, o'qituvchilar, sinfdan va o'quv muassasadan tashqari ishlar tashkilotchilari, «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchilarining pedagogik mahoratini takomillashtirishning tashabbuskorona qarorlarini ilgari surish;

4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ishlarining borishi yuzasidan o'quv muassasa ichki hisobi va nazoratini olib borish;

5. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish uchun zaruriy, ijtimoiy va ma'naviy psixologik sharoitlarni yaratish.

Bundan tashqari direktor harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha jamoat kengashi raisi hamdir.

#### *Sinf rahbari:*

1. Sinf jamoasining maqsadga yo'naltirilgan harbiy vatanparvarlik faoliyatiga rahbarlik qiladi;

2. Ushbu sinf bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar va tarbiyachilar, maktabdan tashqari muassasalar va ota onalarning o'quvchilarda Vatan himoyasiga tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha tegishli ishlarini rejalashtiradi va muvofiqlashtiradi.

3.O'quvchilarda harbiy vatanparvarlik ongining rivojlanishi, bo'lajak Vatan himoyachilariga zarur bo'lgan mahorat va ko'nikmaning shakllanishi ustidan muntazam psixologik pedagogik nazorat olib boradi.

4.Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini muvofiqlashtiradi, bu faoliyatga tarbiyachi va jamoatchilarni ham jalb qiladi.

*O'qituvchilar:*

1.O'quv tarbiya jarayonining harbiy vatanparvarlik yo'nalishini, bo'lajak jangchining shaxsiy buyum va anjomlari bilan shakllantirishni ta'minlaydilar;

2.Darsning tarbiya maqsadlariga muntazam ravishda harbiy vatanparvarlik tomonlarini kiritib boradi, tegishli materiallar, shuningdek uni bayon qilish metodlarini belgilaydilar.

3.O'quvchilarning ko'ngilli jamiyati boshlang'ich tashkilotlari (tabiatni muhofaza qilish, madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, Vatanparvar va boshqalar)ga pedagogik rahbarlik qiladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiya uchun turi uslubdagi darsliklar bilan qo'llaydilar.

*«Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi:*

1.Sinf dan va o'quv muassasadan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi bilan birgalikda o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlarini rejalashtirishda qatnashadi, sinf rahbarlari va jamoat tashkilotlariga yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashda metodik va amaliy yordam beradi;

2.O'quv jarayoni paytida o'smirlarni chaqiriqqacha tayyorgarligi bo'yicha dars beradi va darsdan tashqari vaqtda fakultativ dars olib boradi, o'quv yurti direktori yordami bilan buning uchun zaruriy o'quv jihozlar bazasini yaratadi;

3.Umumiy ta'lim fanlari bilan chaqiriqqacha tayyorgarlikning fanlararo aloqasini ta'minlaydi;

4.Harbiy vatanparvarlik bo'yicha etakchilarini tayyorlashga rahbarlik qiladi;

5.Yosh arimiyachilar maktabi, harbiy texnika to'garaklari ishlarini tashkil qiladi;

6.Harbiy sport bayramlariga tayyorgarlik, safda yurish va qo'shiqlar ko'rigi, o'quvchilarning yosh armiya mutaxassisligi bo'yicha harbiy sport o'yinlari, musobaqalari o'tkazishga rahbarlik qiladi, bu ishni tashkil qilish uchun o'qituvchilarni, ota onalarni, tayanch korxonalar jamoa a'zolarini jalb qiladi.

Shaxsan bir ikkita mudofaa to'garaklarida yuqori sinf (kurs)larni qatnashtirib dars o'tadi;

7.Jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan birgalikda o'quvchilarni "Salomatlik" me'yorlarini topshirishga tayyorlashni tashkil qiladi;

8."Vatanparvar" boshlang'ich jamiyatiga yordam qiladi;

9.Tuman mudofaa ishlari bo'limi (MIB), "Vatanparvar" tuman qo'mitasi, harbiy qism va bo'linmalar bilan doimiy ish aloqasini ushlab turadilar;

10.Harbiy mutaxassisliklar bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini boshqaradi, harbiy xizmatga o'quvchilarning moyilligi rivojlanishini rag'batlantiradi, yoshlarga ularni harbiy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga tayyorlanishiga yordam beradi.

11.O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi sifatlarini bajarishda otaliq tashkilotlar, harbiy qismlari jamoat tashkilotlarining yordamlaridan foydalanadi.

**Mavzu-3/1: “O‘quvchilarni xalq mehnati va jangovar an‘analariga tayanib, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”.**

**Reja:**

O‘quv maqsadlar:

1. Talabalarga jangovar an‘analar bo‘yicha tushuncha berish.
2. Talabalarga jangovar an‘analarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tushuntirish.
3. Talabalarda o‘z ishlariga ijodiy yondoshish xislatini shakllantirish.

O‘quv savollari:

1. Ananalar va ularning shakllanishi.
2. Jangovar an‘analarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.
3. O‘quvchilarni jangovar an‘analarda tarbiyalashning shakl va uslublari.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma‘ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta‘minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko‘rgazmali qurollar va mashg‘ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

**1. An‘analar va ularning shakllanishi.**

Armiya va flotlarda jangchilarni jangta chorlovchi, harbiy xizmatni o‘tashda paydo bo‘luvchi va avloddan avlodga o‘zatiluvchi jangovar an‘analar asosida Vatanga bo‘lgan muhabbat, uni himoya qilishga doimiy tayyorgarlik. Harbiy Qasamyodga, jangovar bayroqqa, jangovar do‘stlikka sodiqlik, komandirni hurmat qilish, uni jangda himoya qilish, jangda ziyraklik va dushmanlarga beshafqat bo‘lish g‘oyalari yotadi.

Vatanga sadoqat – tarixiy an‘ana bo‘lib, har bir ijtimoiy etnik formalarda jamiyat ongida yashagan. Tarixiy nomlar bo‘lishida Tumaris (Kir II), Shiroq, Spitamen, Muqanna, Amir Temurlarni keltirish mumkin.

Toshkent, Farg‘ona, Jizzax qo‘zg‘olonlari O‘zbekistonliklarning ikkinchi Jaxon urushi frontlarida fashistlarga qarshi janglarda qahramonliklar ko‘rsatishi, dalalar, zavod - fabrikadagi qahramonliklari. Insonlarning o‘zi nochor bo‘lsalarda evakuatsiya qilinganlarni o‘z oilasiga qabul qilishi; o‘zlari och bo‘lsada oxirgi tishlam nonlarini do‘stona bo‘lib eyishlari- O‘zbekiston yana bir bor xalqparvar ekanligidan dalolat beradi.

Frontda va front orqasida jasorat hamda mardliklari uchun minglab vatandoshlarimiz

orden, medallar bilan taqdirlanadilar. Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning shu kabi an'analari yangi mazmunga ega bo'lgan holda qayta tiklandi. Davlatimiz o'z Bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga ega bo'ldi. Mustakillikka erishish bilan xalqimiz avval ega bo'lgan an'analarini milpdiy qadriyat sifatida tiklay borishi ham mukaddas ishdir.

«Erga, Vatanga muhabbat - muqaddas tuyg'ulardir - ular xalqimiz milliy karakterining muhim xususiyatidir» deb O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis I sessiyasida xalqimizning yuksak tuyg'ulari haqida alohida so'zlab o'tdi.

Jangovar bayroqqa va harbiy Qasamyodga sodiqlik.

Qadimdan jangovar bayroq jangchilarini jangta chorlovchi ramz sifatida qo'yilgan. Qadimda bayroq o'zun yog'och uchiga o't bog'lamidan iborat bo'lgan yoki otning yoli uchiga bog'langan. Keyinroq esa uni matoning bir bo'lagiga almashtirilgan.

Qadimdan bayroq jangovar ramzga aylangan. Jangovar Bayroq ostida jangovar qasamyod qabul qilingan. Jangovar Bayroqqa sodiqlik ulug' an'anadir. U qadim manbaalarga ega. Bayroq-muqaddasdir.

Urush yillarida uni ko'z qorachigidek, eng ulug', qimmatbaho mulkdek avaylab - asrashgan. Qurolli Kuchlarning jangovar Bayrog'i O'zbekiston Respublikasi harbiy qismlari holatini ko'rsatadi.

Harbiy qismning jangovar bayrog'i shon - shuxratining ramzidir.

Qasamyodni qabul qilish yuqori darajada vatanparvarlik hujjatidir. Qasamyodni jangchi o'z imzosi bilan mustaxkamlaydi. Jangchi hayoti va xizmatida Qasamyod bo'zilmas qonun bo'lib hisoblanadi. Askar uchun Qasamyod muqaddasdir. Qasamyodni yod olgan jangchi yosh jangchi kursini o'taganidan so'ng qabul qiladi. Ushbu qasamyodni qabul qilish kuni - dam olish kuni bo'lib, harbiy qism uchun bu katta bir tantana ya'ni bayramdir.

Ulug' ajdodlarimiz bizning ota - bobolarimiz tajribasidan ma'lumki, berilgan so'zga sodiqlik haqiqiy erkaklar Vatanparvarlar uchun o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biridir.

2.Jangovar an'analarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.

O'zbekisyon Qurolli Kuchlari xalqning ajralmas qismidir. Ko'p asrlik tariximiz davomida yuzaga kelgan, eng yaxshi jangovar va mehnat an'analimiz o'zining boy ma'naviy kuchini yo'qotgani yo'q. Uning ma'naviy imkoniyatlari juda ham yuqoridir, hamda hozirgacha qadrlanib kelinmoqda. U chuqur manbalarga ega.

Bo'yin egmas So'g'diyona va Baqtriya, Maroqanda va Xorazmshox, xalq ozodligi uchun cho'ldagi Shiroqning jasorati (eramizdan avvalgi I asr, Doru I) va Spitamen ko'zg'oloni (324 – 327 eramizdan avvalgi yillar) yo'l boshchilari A.Makedonskiy, Abruy (VI asr 80 - yillari Turkistonga qarshi), Muqanna (VIII asr 70 yil arablarga qarshi) lar unugilmas jasorat ko'rsatganlar.

Ulug' sarkardalar Amir Temur (1336 - 1405) va uning avlodlari. Bobur (buyuk mo'g'illar sulolasining asoschisi XV – XVI asr) – bularning hammasi tarixdan bizgacha etib kelgan hamda ma'naviy meros bo'lib qolgan milliy qadriyatlarimiz, ya'ni ma'naviy – ma'rifiy boyligimizdir. Ulug' ajdodlarimiz Beruniy (olim 973 –1050y), Al - Xorazmiy (matematik, geograf, tarixchi 780 - 847 y), Ibn - Sino (Aviatsenna, meditsina, asronomiya, geologiya 980 - 1037 y), imom Buxoriy, Axmad Yassaviy, Ulugbek (asrologiya maktabi, davlat arbobi 1394 - 1449 y) kabi olimlarimizning xotirasi bir umr mangu bo'lib, insonlar qalbidan ijobiy o'rinnlarni egallab qolgandir.

Ikkinchi Jaxon urushi frontlarida O'zbekistonlik jangchilar ulug' ajdodlarimiz an'analarga munosib tarzda mardlik ko'rsatdilar.

Masalan bulardan Sobir Raximov, Axmadjon Qurbonov, Toshtemir Rustamov, Quadrat Suyunov, Elena Stempkovskaya. Voldemar Mayapidni va boshqa ko'pgina jangchilarimiz va

boshqalar ona Vatanimizni himoya qilib qahramonlik ko'rsatdilar.

120 mingdan ko'proq yurtdoshlarimiz orden va medallar bilan mukofotlanganlar. Ulardan 300 dan ko'progi Sovet Ittifoki Qahramoni degan nomga, 58 jangchi esa 3 - darajali shuhrat ordeniga sazovor bo'lganlar.

Jang maydonlarida o'z Vatani uchun jon berib, qahramonlarcha himoya qilgan, mamlakat ichkarisida talabga o'z mehnati bilan hissa qo'shganliklarini har doim xotiramizda saqlaymiz. "Er yuzida hayog ekanmiz qahramonlarimiz mardliklari, ularning xotarasi oldida bosh egamiz". I.A.Karimov. Oliy Majlis 2 - sessiya 3 may 1998 y.

Yoshlarni xalqimizning jangovar va mehnat an'alariga tayangan holda tarbiyalash - o'quv yurtimiz olib boradigan ishlarning bir yo'nalishidir.

An'ana - bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan e'tiborga loyiq, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy munosabat, jamiyatning ijtimoiy - siyosiy tizimi bilan bog'lik. Insonlar ongida ma'lum bir davr ichida singib ketgan va ularning hayotda doim uchrab turadigan ishlab chiqarish usul va uslublari hamda ustun turuvchi siyosiy onglari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Qisqa qilib aytganda an'ana - bu bir avloddan ikkinchi avlodga o'tgan avvalgi avloddan meros bo'lib qolgan milliy va umuminsoniy kadriyatlarimizdan biridir. O'zbek xalqining an'apariga O'zbekistonga, uning eriga, tabiati, insonlariga bo'lgan muhabbat, Vatanimiz an'analari, madaniyati, tarixini bilishga intilish. Respublikamiz erishgan yutuqlari va qudratidan faxrlanish va boshqalar kiradi. Yoshlarga tarbiya berishda avlod - ajdodlarimiz to'plagan tajribalariga asoslangan holda ish olib boriladi.

An'analari xalqning aniq tarixiy asosi bilan belgilanadi, ularni o'z - o'zidan bir xalqdan olib ikkinchi xalqqa singdirib bo'lmaydi. Har bir xalqning, bir millatning o'z an'analari mavjuddir. Ularning ba'zilarida umumiylik ham bo'lishi mumkin. Masalan: Jangovar an'analari ko'p davlatlar armiyalarida harbiy bilimni egallash, o'z kasbini sevish kabi mehnat an'alaridan iboratdir.

Shunday an'analari ham borki, ular faqatgina shu xalqqa, millat yoki mintaqaga mansubdir.

Misoldagi o'zbek an'ana va odatlarida xalq qalbi va tabiati o'zining so'nmas aksini topadi: mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, mexribonlik, kattalarga hurmat, bolajonlik, tabiatni sevish va do'stlik.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimizning barcha qadriyatlari qayta tiklandi. Shu sababli ham yoshlarimiz o'zlari istiqomat qilayotgan yurtning an'ana hamda odatlarini bilishlari shart. Misol uchun, o'zbeklarning mehmondo'stligi asosida insonni chuqur hurmat qilish yotibdi. Uygah mehmon kelsa, mezbon uydagi bor narsani ayamaydi, mehmonlik hurmatini bajo keltirishlikni o'zining burchi deb biladi. Ana shu fikrlarga dalil sifatida quyidagi bir necha o'zbek xalq makollarini keltirishimiz mumkin. Masalan: «Mehmon otangdek ulug'», «Uyingda mehmon bo'lsa, sen mushukni ham haydama, mehmon buni o'z sha'niga aytilayapti deb tushuntirish mumkin», «Uyingda noning bo'lmasa, uni shirin so'z almashtirsin», «Mehmonni ketmasin desang, oshni olib kelmay tur». Chunki O'zbekistonda oshdan oldin turish behurmatligi hammaga ma'lum.

Mehmondo'stlik an'analari - bu jamiyatning umumiy bir xususiyatidir. Bunga Ikkinchi Jaxon urushi davrida dushman bosib olgan erlardan ko'chirib keltirilgan oilalarga ko'rsatilgan yordamni misol qilib ko'rsatish mumkin. Minglab insonlar bu erda o'z tinchligini topdi, kupchilik uchun O'zbekiston ularga Vatan bo'lib qoldi. O'zbek oilalarida ota-onalarini yo'qotgan bolalar garbiyalana boshladilar. Poytaxtimizning xalqlar do'stligi maydonida temirchi Shomaxmud ota va uning xotini Baxri ayaga yodgorlik haykali o'rnatilgan.

Ushbu vatanparvar insonlar 14 turli millat bolalarini farzand qilib olib, o'z bag'rilarida

tarbiyaladilar.

O'zbekiston yurti ya'ni xalqi nonni juda ham e'zozlaydi va qadrlaydi. Yoshu qari erga non tushsa darhol olib, uni ko'ziga surtadi.

O'zbeklarning hasharlarichi O'zbekistonda qadimdan erni sug'orib dexqonchilik qilinadi, insonlar cho'lga qarshi birlashib mehnat qiladilar. chunki qumli cho'lni yakka bo'lib engib bo'lmaydi. Tabiat qiyinchiliklariga qarshi birlashib kurashishni xalqda jamoatchilik bo'lib, bir - biriga o'zaro yordam berish keng tus olgan an'analaridan biridir.

Hashar - bu jamoatchilik ishida ixtiyoriy ishtirok etishdek ajoyib an'ana bo'lib, uy qurish va hosilni yig'ib olishda, beg'araz yordam berishdan iborat. 1939 yili paxtani sug'orish uchun suv tanqisligi sababli 160 ming ko'ngillilar hasharda ishtirok etib, 45 kunda 270 km.lik katta Farg'ona kanalini barpo etdilar

Mintaqamiz an'analariga misol qilib Navro'z bayramini ko'rsatish mumkin. Navro'z - sharq mamlakatlarida bahorgi dala ishlari boshlanish davridir. Ko'pgina g'arb davlatlari esa yangi yil arafasida Rojdestvo bayramini nishonlaydilar. Bular ham xalqlarning turli an'ana va odatlardan biridir.

Yuzaga kelgan va jamiyatda mustahkam o'rin olgan an'analar eng avval jamiyatimiz va mavjud to'zumga sabab bo'ldi. Hech shubha yo'qki ibtidoiy jamoa tuzumida hozirgi davrdan farqli o'z an'analari ham turli xalqlarda bir xil bo'lmagan. Ular xalqning madaniyati, uning o'tmishi bilan, jamiyat munosabatlaridagi ijtimoiy shart - sharoitlari bilan bog'liqdir. An'analar o'z - o'zidan yuzaga kelmaydi, ularda doimiy tus olgan odatlar mustahkamlanib qoladi, ya'ni ular ma'lum asoslar negazida yuzaga keladi.

An'ana - bu o'tmish va hozirgi davrni kelajak bilan bog'lovchi bir qismidir, Aynan ular yordamida ushbu tizim ijtimoiy - siyosiy munosabatlarini talab etadigan kerakli sifat va tajribalarni yangi avlodga etkazishni amalga oshiriladi.

3.O'quvchilarni jangovar an'analarda tarbiyalashning shakl va uslublari.

Armiya va flotlarda jangchilarni jangta chorlovchi, harbiy xizmatni o'tashda paydo bo'luvchi va avloddan avlodga o'zatiluvchi jangovar an'analarda Vatanga bo'lgan muhabbat, uni himoya qilishga doimiy tayyorgarlik. Harbiy Qasamyodga, jangovar bayroqqa, jangovar do'stlikka sodiqlik, komandirni hurmat qilish, uni jangda himoya qilish, jangda ziyraklik va dushmanlarga beshafqat bo'lish g'oyalari yotadi.

Vatanga sadoqat – tarixiy an'ana bo'lib, har bir ijtimoiy etnik formalarda jamiyat ongida yashagan. Tarixiy nomlar bo'lishida Tumaris (Kir II), Shiroq, Spitamen, Muqanna, Amir Temurlarni keltirish mumkin.

Toshkent, Farg'ona, Jizzax qo'zg'olonlari O'zbekistonliklarning ikkinchi Jaxon urushi frontlarida fashistlarga qarshi janglarda qahramonliklar ko'rsatishi, dalalar, zavod - fabrikadagi qahramonliklari. Insonlarning o'zi nochor bo'lsalarda evakuatsiya qilinganlarni o'z oilasiga qabul qilishi; o'zlari och bo'lsada oxirgi tishlam nonlarini do'stona bo'lib eyishlari- O'zbekisgon yana bir bor xalqparvar ekanligidan dalolat beradi.

Frontda va front orqasida jasorat hamda mardliklari uchun minglab vatandoshlarimiz orden, medallar bilan taqdirlanadilar. Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning shu kabi an'analari yangi mazmunga ega bo'lgan holda qayta tiklandi. Davlatimiz o'z Bayrog'i, Gerbi va Madxiyasiga ega bo'ldi. Mustakillikka erishish bilan xalqimiz avval ega bo'lgan an'analarni milpiy qadriyat sifatida tiklay borishi ham mukaddas ishdir.

Jangovar bayroqqa va harbiy Qasamyodga sodiqlik.

Qadimdan jangovar bayroq jangchilarini jangta chorlovchi ramz sifatida qo'yilgan. Qadimda bayroq o'zun yog'och uchiga o't bog'lamidan iborat bo'lgan yoki otning yoli uchiga

bog'langan. Keyinroq esa uni matoning bir bo'lagiga almashtirilgan.

Qadimdan bayroq jangovar ramzga aylangan. Jangovar Bayroq ostida jangovar qasamyod qabul qilingan. Jangovar Bayroqqa sodiqlik ulug' an'anadir. U qadim manbaalarga ega. Bayroq-muqaddasdir.

Urush yillarida uni ko'z qorachigidek, eng ulug', qimmatbaho mulkdek avaylab - asrashgan. Qurolli Kuchlarning jangovar Bayrog'i O'zbekiston Respublikasi harbiy qismlari holatini ko'rsatadi.

Harbiy qismning jangovar bayrog'i shon - shuxratining ramzidir..

Harbny Qasamyodnng yangi taxririda shunday deyiladi:

Men, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo'lishga tantanali ravishda qasamyod qilaman. Men O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so'zsiz bajarishga, harbiy nizomga qat'iy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi bo'lishga qasamyod qilaman.

So'nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo'lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan engishga, davlat va harbiy sirlarni mustaxkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O'zbekistonimning nurli istiqboli uchun uning davlat manfaatlari va mustaqilligining himoyachisi bo'lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni bo'zsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga muhtalo bo'lay.

Harbiy qasamyod davlat miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lgan hujjatdir. U O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan (hozirgi davrda Oliy Majlis) 1992 yil 3 iyulda tasdiqlangan va qonun kuchiga ega, Unda Qurolli Kuchlar jangchilariga Prezident, xukumat va xalq talablari bayon etilgan. Unda Qurolli Kuchlarda xizmat qilishning asosiy majburiyatlari belgilab berilgan. Shuningdek. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi jangchining Vatan himoyasi uchun egallashi shart bo'lgan asosiy sifatleri belgilab qo'yilgan.

Qasamyodni qabul qilish yuqori darajada vatanparvarlik hujjatidir. Qasamyodni jangchi o'z imzosi bilan mustaxkamlaydi. Jangchi hayoti va xizmatida Qasamyod bo'zilmaz qonun bo'lib hisoblanadi. Askar uchun Qasamyod muqaddasdir. Qasamyodni yod olgan jangchi yosh jangchi kursini o'taganidan so'ng qabul qiladi. Ushbu qasamyodni qabul qilish kuni - dam olish kuni bo'lib, harbiy qism uchun bu katta bir tantana ya'ni bayramdir.

Ulug' ajdodlarimiz bizning ota - bobolarimiz tajribasidan ma'lumki, berilgan so'zga sodiqlik haqiqiy erkaklar Vatanparvarlar uchun o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biridir.

Jangovar do'stlik va komandirga hurmat va uni jangda himoya qilish.

Bu jangovar an'analardan biri bo'lib bizga qadim asrlardan etib kelgan. U mustaqillik uchun kurash maydonlarida tug'ildi va mustaxkamlandi. Vatanni milliy manfaati uchun xizmat qildi. Do'stlik va o'zaro yordam oldindan yuqori baholangan. Buyuk sarkarda Amir Temur o'z jangchilariga «o'zing qurbon bo'lsang ham, do'stingni asra», - deb ko'rsatma bergan. Bu chaqiriq o'sha davrda ham, yuzlab yillardan so'ng ham shior bo'lib, Vatan himoyachilarini ruxlantiraadi.

O'z tanalari bilan dushman o'qidan do'stlarini himoya qilgan Toshtemir Rustamov, Tuychi Eryigitov kabi yuzlab askarlar o'z shaxsiy shuxratini o'ylamay Vatan uchun jon fido qilganlar. Dushman tanki ostiga granata tashlanganda, uchuvchilar xavo xujumiga o'tganda o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ya'ni shuxratni o'ylamaganlar do'stlariga yordamga kelish, ularga har qanday sharoitda o'z jonlarini ayamagan holda yordam qo'lini cho'zish ham yillardan yillarga o'tib, hozirgacha saqlanib kelayotgan an'anadir. Bu an'ana hozirda ma'naviy jixatdan boyib, yangi mano kasb etmoqda. Oddiy askar O'rmonov navbatchi bo'lib turganida o'z do'stlarining hayotini saqlab qolishga muyassar bo'lgan. Ammo o'zi qurbon bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining sodiq o'g'lonlari bo'lmish komandirlar xalqimizning munosib himoyachilaridir. Ular armiya va xalqimiz faxridirlar. Askar va matroslarimizning bir - birlariga hamda xizmatdosh bo'linmalarda komandirlarning ahamiyati kattadir. Ularning har biri uchun ona-Vatan. Ota-xalqdir. Ofitserlar xalq muxabbagiga sazovordirlar. Biz hozirga qadar Sobir Raximovning jangovar ishlarini faxr bilan tilga olamiz. Ular shaxsida xalqimizning eng yaxshi an'analari davom ettiriladi. Bunday insonlar yuqori darajada vatanparvarlik, qalb kengligi, mard va istalgan vaziyatlarda insonlarga muhabbat va ko'l ostidagilarga yuksak talabchanlik va boshqa hislatlariga egadirlar. Panfilov diviziyasining qahramonligi, Toshkent harbiy o'quv yurtining bitiruvchilari bo'lmish 180 nafar ofitserlar qahramonliklari hammaga ayon. Diviziya polkovnigi Gurev askarlarga qarata «Nega siz o'zingizning hayotingizni xavf ostida qoldirib, meni snaryadlar portlashidan saqlab qoldingiz» - deb so'raganida askarlar «Onasiz asalari oilasi - oila emas» - deb javob beradilar.

Yuqori darajada ziyraklik dushmanga qarshi ayovsiz nafrat.

1999 yil 16 fevral kuni Toshkent shaxrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga suiqasd uyushtirishga o'rinish bo'ldi. Shaharning 6 joyida portlash yo'z berdi. «Terroristlarning maqsadi tinchlikni bo'zish, axoli yuragiga daxshat va qo'rquv solish, siyosatimiz, olib borayotgan ishlarimizga bo'lgan ishonchni yo'qotish, shu bilan birga O'zbekiston xalqini o'z tanlagan yo'lidan qaytarshp edi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bizning vatandoshlarni shu voqeadan zarur bo' xulosalarni chiqarib, yanada xushyor hamda ziyrakroq bo'lishga chaqirdi. Bugungi kunga kelib armiyaning jangovar an'analari ham o'z ifodasini topmoqda. U jangchilarimiz ishlarini, marosim va odatlari, xulq -atvori me'yorlarida davom etmoqda. Jangovar an'analari faqatgina jangchilar dunyoqarashing bir bo'lagi bo'libgina qolmay, harbiy muzeylar ko'rgazmalari, shon- shuxrat burchaklari. (xonalari), harbiy qism tarixi, memoriallarda davom etib kelmoqda.

Bugungi kunda yangi - yangi an'analari ham vujudga kelmoqda. Ular marosimlar, qism kunlarining nishonlanishi, o'qish a'lochilariga jangovar texnika va qurollarning topshirilishi hamda boshqalardir. Yoshlar siyosiy jihatdan ham ziyrak bo'lishga tayyorlanadilar va ona Vatanimizni himoya qilishga, jangovar an'analarni davom ettirishga o'rganib boradilar. O'zbekistonda mehnat an'analari safida tanlangan kasbiga mexr qo'yish, mehnatga ma'suliyatli munosabatda bo'lish, o'z ishini a'lo darajada bilim, yuqori darajada o'z kasbini egallash, ishlab chiqarilgan mehnat maxsulotining sifatligini ta'minlash va boshqalar bor. Ota - himoya bobolarimizning bizga meros bo'lib qolgan an'analarni davom ettirish bilan birga yoshlarimiz ularga yangicha mazmun kiritib bormoqdalar. Chunki hech bir farzand faqatgina ota - bobosining aniq nusxasigana bo'la olmaydi. Yosh avlod o'z ajdodlari to'plangan qadriyatsiz o'z ishini davom ettira olmaydi.

O'tmish tajribalarini bilish hech - yosh avlodni oldinga harakat qilishga undaydi.

Jangovar va mehnat an'analarni tarbiyaviy ta'siri, ularning ishonchli misollari bilan tasdiqlanadi. Ular yoshlarni avvalgi avlod yo'lidan borishga undaydi. Ularning qilgan shonli ishlarini davom ettirishga chorlaydi.

Insonlar tinch mehnat qilishlari uchun himoyada turishlari shart. An'analarni davom ettirish paydo bo'lishi ham katta ahamiyat kasb etadi. O'tmishning shon - shuhratini bilishda, hayotiy va ijtimoiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlarga O'zbekistonning shonli o'tmishi haqida to'g'ri taassurotga ega bo'lishga yordam beradi. O'tmishdagi qiyinchiliklar yoshlarda Vatanga sadoqatli bo'lish, uning harbiy qudratini mustahkamlashda o'z irodasi va kuch - quvvatini ayamaslikka qarata tarbiyalaydi.

Yoshlarni harbiy va mehnat an'analari asosida to'g'ri tarbiyalashning shakli va usullari

turlicha bo‘lishi mumkin. Shakl va usulning turlicha bo‘lishi bilan birga umumiylik ham bor. Ular ichida eng ko‘p ya’ni keng tarqalganlari quyidagilardan iboratdir:

- 1). Armiyaga bag‘ishlangan shonli sanalarga ta’luqli turli kechalarni o‘tkazish;
- 2). Harbiy va mehnat shon - shuxratiga sazovor bo‘lgan joylarga sayohatlar uyushtirish;
- 3). Harbiy qism, memoriallar hamda birodarlik qabrlarini ziyorat qilish;
- 4). Kinofilmlar namoyish etish va ularni taxlil qilish;
- 5). Jamoatchilik tarzida badiiy kitoblarni taxlil qilish;
- 6). Harbiy sport o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish;
- 7). Urush va mehnat faxriylari, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan turli uchrashuvlar o‘tkazish;
- 8). Muzey, teatr va kinoga madaniy sayohat qilish;
- 9). O‘zbekiston Qurolli kuchlarining tarixini o‘rganish;
- 10). Urush va mehnat faxriylarini otaliqqa olish hamda nogiron insonlarga yordam ko‘rsatish.

Kechalar odatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga yoki Qurolli Kuchlarni Vatanni himoya qilish kuniga bag‘ishlangan holda oylik, xaftaliklar harbiy ommaviy tarzda to‘ziladi. Shuningdek, yoshlarni armiya xizmatiga jo‘natishda, harbiy o‘quv yurtini tugatishda, harbiy sport o‘yinlarining chempionlari sharafiga bag‘ishlangan kechalar o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni tarbiyalash shaklining eng samaralisi, jangovar an’analar haqidagi, harbiy vatanparvarlik mavzusidaga filmlarni ko‘rish yaxshi natija beradi. Hozirpi davrda o‘quvchilar orasida «Temurbeklar» harbiy vatanparvarlik o‘yini - Mudofaa vazirligi, «Kamolot», «Nuroni» jamg‘armalari bilan birgalikda o‘tkazilmoqda. «Amir Temur avlodlari» harbiy sport o‘yinlari turli harbiy litseylar o‘rtasida keng tarqalgan. Tarixni chuqur o‘rganish maqsadida muzey va har xil yodgorliklarni ziyorat qilish ham katta ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod faxr bilan Amir Temur xaykalini tomosha qilar ekan uning «Kuch adolatdadir» degan shiorini yod oladilar.

Shunday an’analarimizning o‘tkazilishi yoshlarimizni bizning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarimizga bo‘lgan qiziqishini tobora ortirib boradi.

Kelajakgi buyuk davlatni qurishda (Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik yubileyini o‘g‘kazishdagi I.A.Karimovning so‘zlari) ulug‘ allomalarimiz A.R. Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Axmad Al Farg‘oniy, Amir Temur, Naqshband, Alisher Navoiy, Z. M. Bobur va boshqalarning qoldirilgan boy meroslari yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘zining samarali ta’sirini ko‘rsatadi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning shakl va usullari rang - barangdir. Barcha o‘tkazilgan tadbirlar ham ijodiy ishdir.

## **Mavzu-4/1: “Jangovor va mehnat shuxrati joylariga safarlar tashkil qilish va o‘tkazish.”**

Reja:

O‘quv maqsadlar:

1. Talabalarga safarlar maqsadi, ularning o‘quvchilarni tarbiyalashdagi ahamiyati va safarlar haqidagi qoidalarni tushuntirish.
2. Talabalarga O‘zbekiston shaharlarining tarixiy va madaniy yodgorliklari bo‘yicha bilimlarini kengaytirish.
3. Talabalarni Vatanga muhabbat tuyg‘usini singdirish va shakllantirish.

O‘quv savollari:

1. Safarlar maqsadi, ularning o‘quvchilarni tarbiyalashdagi ahamiyati. Safar haqidagi qoidalar.
2. O‘zbekiston shaharlarnining tarixiy va madaniy yodgorliklari.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma’ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko‘rgazmali qurollar va mashg‘ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

1. Safarlar maqsadi, ularning o‘quvchilarni tarbiyalashdagi ahamiyati.

Safar haqidagi qoidalar.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda Vatanni ishonchli himoya qilish uchun zarur yuqori ma’naviy – siyosiy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha maqsadga muvofiq o‘zluksiz jarayon bo‘lib, darsdan tashqari vaqtda ham davom ettiriladi. Bunday muhim masalani ham etish bu jarayonda o‘quv yurti pedagogik jamoalaridan tashqari "Vatanparvar" MSJ tashkilotlari, mudofaa ishlari bo‘yicha tuman va shahar bo‘limlari, barcha manfaatdor tashkilotlar hamda o‘quvchilar ota-onalari faol ishtirok etishlarini talab etadi. Mamlakatimiz o‘quv yurtlarida O‘zbekiston xalqlari mehnat va jangovar shon-shuhrati joylari, Respublika yoshlari safarlarida rivojlanib boradi. Bu yosh avlodni tarbiyalash umumiy (kompleks) shaklidir.

Xotira navbatchiligi, jangovar va mehnat shon-shuhrati haftaligi, yoshlarni xalqimiz qahramonliklari an’analarida tarbiyalash bo‘yicha ishlarni faollashtirishga yordam beradi va katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘qish jarayonini o‘ziga xos davomi bo‘lib qolgan o‘quvchi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yaxshi natijalar beruvchi qidiruv ishlari, harbiy qism va bo‘limlar tarixiy solnomasini yaratish, mehnat va urush faxriylarini otaliqqa olish va boshqa tadbirlar ahamiyatiga qayta baho berish qiyindir.

O‘zbekiston xalqlari jangovar va mehnat shon – shuhrat joylari bo‘ylab Respublika safar qoidalari 1981 yil 15 yilda qabul qilingan.

Qoidalar shulardan iboratdir: 1. Umumiy qoidalar 3 bo‘limdan tashkil topgan. 1 - bo‘lim-safarlar maqsadi va shakllari; 2 - bo‘lim-safar ishtirokchilarini aniqlaydi, 3 - bo‘lim-safarlarni tashkil etish va boshqarish.

O‘zbekiston xalqlari jangovar va mehnat shon-shuhrati joylari bo‘ylab yoshlar Respublika safari – bu O‘zbekiston xalqi, Qurolli Kuchlari jangovar va shon-shuxratini chuqur o‘rganishga qaratilgan o‘quvchi – yoshlar, yigit – qizlar ommaviy vatanparvarlik harakati bo‘lib, bu harakat

yoshlarni g'oyaviy ishonch ruhida, ularning ijtimoiy va mehnat faolligini ko'tarish, Vatan himoyasiga tayyor turish ruhida tarbiyalaydi.

Respublika safari yoshlarni qahramonlik an'alariga yoshlarni (qo'shish) jalb etish kompleks shakli bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston xalqlari tarixiy tajribalarini, xalqlarning Vatan mustaqilligi va o'z ozodligi uchun ko'p asrlik kurashi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qahramonlik an'alarini o'rganish, Vatan ozodligini himoya qilish uchun zarur sifatlar - mardlik, matonat yoshlarda jangovar ishlarga tayyor bo'lishni tarbiyalash.

O'zbekiston xalqlari shonli mehnat an'alarini o'rganish, yigit -qizlarning xalq xo'jaligi masalalarini hal etishda faol ishtiroki, mamlakat mudofaa va iqtisodiy imkoniyatlarni mustahkamlashga intilish va o'z hissasini qo'sha bilish.

Birinchi bo'limda o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi ba'zi shakllardan foydalanish bo'yicha qoida, tavsiyalar berilgan.

Qoidalarning ikkinchi bo'limida Respublika safari ishtirokchilari aniqlanadi. Unda ishtirok etuvchilar: O'zbekiston xalqlari jangovar va mehnat an'alarini, Qurolli Kuchlar, mamlakat tarixini o'rganuvchi, o'z bilimi va mehnati, ijtimoiy ishlari bilan bu an'nalarni hayotga tadbiiq etayotgan yigit -qizlar, o'quvchi yoshlar.

Uchinchi bo'limda safar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Respublika, viloyat, tuman va maxalliy shtablar masalalari belgilanadi.

Shunday qilib, jangovar va mehnat shon - shuhrati joylari bo'ylab yoshlar Respublika safari - bu qandaydir alohida safar yoki ekskursiya emas, balki yoshlar ommaviy harakatidir.

Bu ommaviy harakatning maqsadi xalqimiz jangovar an'alarini o'rganish, saqlash va o'zlashtirish bo'lib, ularni rivojlantirish va o'qish, mehnat va harbiy xizmatda davom ettirishdan iborat.

Shu kunlarda Respublika safari doirasida o'tkazilayotgan turli tadbirlarda yo'z minglab yoshlar ishtirok etmoqda, ulardan ko'p qismi o'quvchi yoshlarni tashkil etadi.

O'z ustozlari - o'qituvchilar, urush va mehnat faxriylari rahbarligi ostida ular qidiruv ishlarini olib borib, noma'lum askar qabrlarini o'rganib, minglab jangchilar nomlarini tiklayaptilar, nogironlar, faxriylar, halok bo'lgan jangchilar oilalarini otaliqqa olayaptilar.

"Tarix aloqachilari" harakatlari bilan, izquvarlarni shunday ataydilar, minglab shon - shuhrat muzey, xona va burchaklari tashkil etilgan, yuzlab yodgorliklar, xotira toshlari barpo qilingan.

Sobiq Ittifoqi tarqalib ketishdan so'ng ba'zi yoshlar orasida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shakli va uslublari eskib qolmadimikan, O'zbekiston hududida urush harakatlari olib borilmagan bo'lsa, bu safar, ekskursiyalar kerakmi degan fikr paydo bo'ldi, yo'q eskirib qolmagan, ular hozir ham albatta kerak. Biz Turon, Movaraunnaxr, Turkiston, O'zbekiston tarixini yaxshi bilmaymiz.

Ko'pgina shahar va qishloklar ko'p asrlik tarix davomida nafaqat o'z nomlarini, balki manzillarini ham o'zgartirib yuborganlar.

Buyuk ipak yo'lini o'rganish, davlatimiz tarixiy va madaniy yodgorliklarini o'rganish - bular qidiruv ishlari va safarlar vazifasiga kirmaydimi?.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari 1992 yil 14 yanvarda tashkil topdi. Bu shu bilan uning tarixi cheklanib qoladi, bu davr ichida harbiy jangovar an'alar shakllanmagan, ularni o'rganish lozim emas degani deb tushunish noto'g'ri.

O'tgan asrlar yutuqlarini e'tiboriz qoldirish mumkin emas, biz ko'p asrlar davomida Sharq va G'arb davlatlari uchun namuna bo'lgan bizning ajdodimiz Amir Temur lashkarboshchilik va harbiy mahorati qobiliyatini hech kachon esdan chiqarmasligimiz kerak". Ikkinchi jahon urushida fishizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqi qo'shgan hissasi bebahodir. 1 432 220 kishi, ya'ni O'zbekiston aholisining 22% foizi qatnashda, (o'sha davrda O'zbekiston aholisi 6.5 million kishini tashkil etgan) 2 630 05 kishi halok bo'lgan, 132670 kishi bedarak yo'qolgan , 60452 kishi nogiron bo'lib qoldi.

Urush frontida ko'rsatgan jasorat va qahramonligi uchun O'zbekistonlik 170 ming jangchilar orden va medallar bilan mukofotlandi, 53 shon - shuhrat ordeni to'la kavaleri, 228 ta

O'zbekistonliklar esa Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini oldilar (ulardan 69 tasi o'zbek).

Urushning birinchi oylaridayoq Respublikada 14 ta diviziya va 12 ta o'qchi brigadalar tashkil etilib, frontga yuborildi, ular orasida qahramonliklar ko'rsatgan qismlar bor.

-395 - o'qchi diviziya, keyinchalik 37 - gvardiya nomini olgan bo'lib, unga general Sobir Raximov qo'mondonlik qilgan.

-316 - Panfilov diviziyasi, Toshkent piyoda askarlar bilim yurtining 180 kursanti uning asosini tashkil etgan. Moskva ostonasi, Volga uchun va SHimoliy Kavkaz shtablarida 44 - kavaleriya diviziyasi, 90 - va 94 - alohida o'zbek o'qchi brigadasi jasorat ko'rsatdilar. 94 - brigada Samarqandda to'zilgan.

G'alabaga front orti mehnatkashlari katta hissa qo'shdilar. Urush yillarida O'zbekiston frontga 2090 ta samolyot, 17 ming aviamotor, 2 million 300 mingta aviabomba, 4.8 million tonna paxta tolasi, 1 million 28 ming tonna bug'doy etkazib berdi.

Aholi tomonidan yig'ib berilgan mablag'larga "O'zbekiston kolxozchilari", "Sovet O'zbekistoniga 20 yil" tank kolonnalari, sanitar-aviatsiya polki va boshqalar qurib berildi.

1 milliondan ortiq qochoqlar, shu jumladan 22 ming bola O'zbekistonda boshpana topdi.

O'zbekiston xalqining urush yillaridagi qahramonliklari, urush ishtirokchilari xotiralarini yozib olib bizdan keyingi avlodlar uchun xotira qilib qoldirish, urush yillari esdalik yodgorliklarini topib muzey va davlat arxivlariga topshirish, xalok bo'lgan jangchilarning oila a'zolariga yordam ko'rsatish 1981 yili sentyabrida boshlangan Respublika yoshlar qidiruv ekspeditsiyasining asosiy vazifasidir.

Ekspeditsiya O'zbekiston xalqlari inqilib, jangovar va mehnat shon-shuhrati joylari bo'yicha yoshlar Respublika safari doirasida o'tkaziladi.

1965 yildan boshlab Respublika safari ishtirokchilari tashabbusiga ko'ra front va front orti qahramonlari xotiralarini, barcha yodgorliklari yozib olinardi va shu asosda jangovar shon – shuhrat muzey va burchaklari tashkil qilinardi.

Hozirda askardan tortib front orti zahmatkashi, marshaldan tortib ulug' kurashga o'z o'g'illarini yuborgan onagacha bo'lgan har bir urush qatnashchisining G'alabaga qo'shgan bebaho hissasini har bir yosh o'z yuragi bilan his etishi uchun "Yilnoma"lar olib borishni butun xalq ishiga aylantirish vazifasi turibdi. Urush qiyinchiliklari, g'alabalar quvonchi va judolik dog'ini boshidan kechirganlarni vaqt shavqat qilmayapti, shuning uchun xalq jasorati izquvarlari veteranlar xotiralarini yozib olishga o'rinishlari kerak, "Ulug' Vatan urushi yilnomasi uchun ma'lumotlar yig'ish har bir yoshning muqaddas burchi, hayotiy ehtiyoji bo'lib qolmoqda".

Urush faxriylari, "Vatanparvar"MSJ xodimlari, yoshlar tashabbusiga ko'ra Respublikada urushda halok bulgan, dom-daraksiz yo'qolgan O'zbekistonliklar yozilgan 32 tomndan iborat xotira kitobi nashr etilgan.

"Muqaddas majburiyatimiz, muqaddas burchimiz – kurash maydonlarida halok bo'lgan qahramonlar haqida doimo xotira saqlash, oramizda yashayotgan veteranlarni hurmat qilish va g'amxo'rlik qilishdadir" – deb ta'kidladi I.A.Karimov II jahon urushi G'alabasining 50 yilligiga bag'ishlangan nutqida.

Yana "Ikkinchi jahon urushini qaysi nuqtan nazardan qaramaylik, qaysi mafkura bilan olib bormaylik, biz har doim ozodlik uchun kurashgan, o'z Vatani porloq kelajagi uchun jang maydonlarida jonlarini qurbon qilganlarni xotiramizdada saqlashimiz kerak".

Safarlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi. Safarda havfsizlik choralari.

Bugungi kunda mamlakatimizning ko'pgina o'rta ta'lim bilim yurtlarida faqatgina qidiruv ishlari olib borilyapti. Ularni tashkil etishga urush va mehnat faxriylari, o'qituvchilar, harbiy xizmatdan qaytgan harbiylar jalb qilinmoqda.

Ishlar safar kengashida ishlab chiqilgan va uning ishtirokchilari umumiy yig'ilishida tasdiklangan reja bo'yicha tashkil etiladi.

Odatda qidiruv birlashmalari faoliyati rejasi turli ish shakllaridan tashkil topadi: safarlar o'tkazish, ona-diyor tarixini o'rganish, muzey tashkil etish, noma'lum qahramonlar nomlarini tiklash va boshqalar.

Qidiruv materiallari yoshlar o'rtasida O'zbekiston xalqi va Qurolli Kuchlari jangovar va

mehnat jasoratlari va qahramonliklarini tashviqot qilishda xizmat qiladi.

Shu bilan birga joylardagi bu ishlar bilan tanishish qidiruv guruh, otryad va birlashmalari faoliyatiga ko'p holda o'z holiga tashlab qo'yilganini ularga ustoz, rahbarlar har doim ham aniq amaliy yordam bermayoganini ko'rsatadi. Buning natijasida qidiruv ishlarini o'tkazish tarqoq, kelishilmagan holda, alohida guruxlarning bir – birlarini qaytarishlari, turli tashkilotlar bilan kerak bo'lmagan ko'plab xatlar yozishlar, o'zoq safarlarga haddan tashqari berilib ketish sodir bo'ladi.

Tajribalar ko'rsatishcha safarlar yaxshi tarbiyaviy samara berishi uchun ularga izchillik bilan tayyorlanish, uning ishtirokchilari adabiyotlarni o'rganishlari, o'zlarini ijtimoiy va ma'naviy tayyorlashlari kerak. Tadbirning samarali o'tishi safar maqsadini aniqlash va rahbar tanlashga bog'liq bo'ladi. Safar rahbari etib odatda o'qituvchilar, «CHAqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchilari tayinlanadi.

Har doim ham rahbar va uning yordamchisi o'quv yurti direktori tomonidan tayinlanishi kerak. Pedagogik kengashda safar rahbari axborot beradi: direktor safar rejasi, marshrut va (smeta) harajatlarini tasdiqlaydi, ishtirokchilar tayyorgarligini tekshiradi va ularga yo'riqnomalar beradi.

Safar qatnashchilari jipslashuvi va intizomlilik haqida alohida g'amxo'rlik qilish kerak. Safarda intizom - xafsizlikning eng birinchi shartidir. Barcha qatnashchilar yo'llar, ko'chalar, aholi turar joylari bo'ylab harakat qoidalarini yaxshi bilishi va ularni qat'iy bajarishi kerak.

Safarlar qanday borishidan qat'iy nazar: piyodami, avtomobilda, temir yo'l, paraxod, velosiped yoki mototsiklda bo'lsin, rahbar va hamma ishtirokchilar doim javobgarlikni, ma'suliyatni his etishlari, xafsizlikni ta'minlash uchun qoidalarga rioya qilishlari shart. Ular hamjixat bir jamoa bo'lib, intizomni saqlashlari kerak.

Dam olish uchun to'xtash joylarida olov bilan muomalada bo'lish qoidalarini saqlash, faqatgina ruxsat etilgan joylarda gulxan yoqish kerak. Ayniqsa, havo yomon bo'lgan kunlarda sovuq oldirib qo'ymaslikka katta e'tiborni qaratish zarur.

Safar qatnashchilari Ulug' Vatan urushi janglari joylarida qolib ketgan turli qurol – aslahalar yig'ilib qolishiga aslo yo'l qo'ymasliklari kerak. Bu qoidaga rioya qilmaslik portlashlar, odamlarning og'ir jarohat olishi va halok bo'lishiga olib keladi.

Safar davrida ishtirokchilar hujjatlar, qo'lyozmalar, front gazetolari, varaqalar, plakat, ko'krak nishonlari, faxriylarning shaxsiy buyumlarini yig'adilar, suhbatlar o'tkazib, kundaliklariga yozib boradilar.

Yig'ilgan materiallar o'quv yurti jamoasi yutug'i bo'lib qolishi, ular haqida devoriy gazeta sahifalarida gapirilishi juda muhim. Bu maqsadda safar qatnashchilari o'quvchilar umumiy yig'ilishi, mavzuviy kechalarda bajarilgan ish haqida hisobot beradilar, stend, ko'rgazmalar tayyorlaydilar; eng e'tiborga loyiq materiallar o'quv muassasa muzeyidan o'rin oladi.

O'rta Osiyoda "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab safar tashkil etsak bo'lmaydiimi. Eramizdan avvalgi II-I asrlar davrida Sharqiy Xitoydan O'rta Osiyo va G'arbiy Osiyo buylab "Buyuk ipak yuli" nomi bilan atalgan dunyo mikyosidagi savdo yo'li o'tgan.

Buyuk ipak yo'lining yo'z yilliklar davomida O'rta Osiyoda iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlanib kelishida katta rol o'ynaganligi haqida 600 dan ortiq tarixiy yodgorliklar dalolat beradi.

Olimlar fikricha, eramizdan avvalgi IV asr davriga 1000 dan kam bo'lmagan qal'a va shaharlar qoldiklariga ega tepalik - cho'qqilar kiradi.

Hozirgi kunga kelib faqatgina 30 ga yaqin yodgorliklar o'rganilgan, olingan hujjatlarning esa bir qismigina e'lon qilingan.

Farg'ona vodiysidagi Buyuk Ipak yo'li 2 shu'baga bo'linadi: birinchisi- shimoliy – Oxsiya orqali O'zgandan o'tadi, qamchiq dovonidan (faqat yozgi vaqtda) Iloq va Toshkentga; ikkinchisi- janubiy – Quva, Marg'ilon, Qoqon orqali. O'zgan va Osh shahridan o'tadi, so'ng Xojand, Samarkand va Buxoroga yo'nalgan.

Buyuk Ipak Yo'li yana boshqa nomlarga ega: Oltin yo'l va kumush yo'l.

Qurama va Oloy tog'lari, hamda Zarafshon daryolarining bitmas boyliklari "oltin yo'l" deb nomlanishga sabab bo'lgan.

Tarixchilar yana bir muhim voqeani isbot qilgan; "Shonga" koni va mashhur Ko'xi-sim

(kumush tog‘) aynan Kurama tizmasida joylashgan ekan. Bu erdagi kumush Samoniy davlati tangalarini zarb qilish uchun ishlatilgan. Rossiya, Germaniya, Boltiq dengizida topilgan kumush dirhamlarga ko‘ra kumush tangalar faqat pul o‘rnida emas, balki mol sifatida ham chetga chikarilgan.

Shunday qilib yana "Kumush yo‘l", ya'ni shu metall etishmaydigan Kiev Rusi va Evropa mamlakatlariga Xohar, Bulg‘or Kaganatlardan o‘tadigan O‘rta Osiyo kumush yo‘li bor edi. Bu yo‘l qisman Buyuk Ipak Yo‘lining shimoliy tarmog‘i bo‘lib, bizning ertamizgacha VI asrdan boshlab IX-X asrlargacha ayniqsa faol ishlagan. Hech bo‘lmaganda bitta tepalikni topish, Buyuk Ipak Yo‘li yo‘nalishi joylaridan yurish, qal‘a, aholi turar joylari tarixini o‘rganib chiqish – "Vatanim - O‘zbekiston" safarining maqsadimasmi.

Ekspeditsiyalarning boshqa qidiruv yo‘nalishlari: shahar tarixi, dongdor mehnakashlar tarjimai holini o‘rganish.

Tajriba ko‘rsatadiki, izquvarlar ishi maxalliy tarix bilan birga yashayotgan insonlar manfaatlari, takdiriga asoslanganida ko‘p taraflama va to‘la bo‘ladi.

Shunindek "Ona shon-shuhrati" safari ham juda qiziqarli. Safar maqsadi – II jahon urushida Vatanimni himoya qilgan, Afgonistonda o‘z baynalminal burchini bajargan insonlarni tarbiyalagan, urush qatnashchilari va front orti mehnatkashlari bo‘lmish ota – onalarni qidirish va jasoratini abadiylashtirish. Bu ishni o‘z oilasiga 14 ta turli millatdagi bolani qabul qilgan va tarbiyalagan Bahri Shomaxmudova taqdiri bilan bog‘langan qidiruv ishidan boshlash mumkin.

Qidiruv guruhi a‘zolari qanday moddiy ta‘minotga ega bo‘lishi kerak?

Bu safar maqsadi, vazifalari, vaqti va usuliga bog‘liq. Lekin barcha hollarda ham tegishli kiyim, yuk xaltalari, qo‘shimcha kilim - kechaklar, shaxsiy aptechka, oziq-ovqat zaxirasi, suv, bloknot, ruchka, fotoapparat bo‘lishi kerak.

#### Toshkent.

Toshkent – O‘zbekiston poytaxti, O‘rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy markazi, eng qadimgi shaharlardan biridir. Toshkentda 2.5 mln dan ortiq odam yashaydi. Bu erdan temir va havo yo‘llari kesishib o‘tadi. Toshkent go‘zal Chirchiq vodiysida joylashgan.

Toshkentda katta korxonalar joylashgan. Bu erda 30 dan ortiq ilmiy tashkilotlarni birlashtiruvchi Respublika Akademiyasi joylashgan, shaharda 20 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari, o‘nlab mahsus kasb – hunar kollejlari, yuzlab maktab, litsey, teatr, muzey, konsert zallari bor.

Toshkentning go‘zalligiga chiroy qo‘shgan yangi zamonaviy binolar, mehmonxonalar, sport saroylari barpo etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi binolari, turli mehmonxonalar, konservatoriya va shunga uxshash noyob bino va inshootlar poytaxtning kurkiga kurk kushib toshkentliklarning faxri hisoblanadi.

Shaharda bog‘lar, favvoralar, dam olish maskanlari juda ko‘p.

Kadimgi Toshkent arxitektura yodgorliklari avaylab saqlanmokda, ta‘mirlash ishlariga katta e‘tibor berilmokda. Bular Ko‘kaldosh madrasasi, O‘rta asr me‘morchilik yodgorligi – Barokxon madrasasi, Yunusxoji movzaleyi va boshqalar.

Toshkentni mardlik shahri deb ataydilar. 1966 yili 26 aprel erta tongida Toshkentda qattiq zilzila sodir bo‘ldi. O‘shanda 78 ming oila boshpanasiz qolib, shahar 2 mln kv. metr dan oshiq turar joy maydoni yo‘qotdi.

Birodar xalqlar O‘zbekistonga yordamga keldi. Xalqlar do‘stligi tabiiy oftini engdi. Qisqa vaqt ichida Chilonzor, Sirg‘ali, Qoraqamish, Yunusobod kabi turar joy mavzeleri qad ko‘tardi.

1977 yili metropolitenning birinchi navbati qurildi, so‘ng ikkinchisi, hozirda uchinchisi ham qurilib bitirildi. Toshkent yil o‘tgan sari go‘zal va obod bo‘lib kelmoqda.

#### Samarqand.

O‘zbek xalqining qadimgi madaniyati va san‘ati rivojlanishi haqli ravishda Samarqanddan boshlangan deb hisoblanadi. Bu qadimgi shahar 2.5 ming yil oldin tashkil topgan.

Vavillon, Rim va Afina tengdoshi – Samarqand ko‘chalaridan yurib borar ekansiz shaharning boy tarixini varaqlayotgandek bo‘lasiz. Samarqand o‘zining ajoyib ma‘morchilik yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Ulardan eng qadimgi, eng mashhurlari Registon maydoni,

shaharda joylashgan Bibixonim, Go'riamir maqbarasi, Shoxi – Zinda obidalari.

Hozirgi Samarqandda 10 dan ortiq oliy o'quv yurtlari bor, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlangan shahar.

#### Buxoro.

Zarafshon vodiysida yana bir muzey – shahar joylashgan. Buxoro bu sharqdagi qadimgi shaharlar kabi o'zining qadimgi ajoyib me'morchilik yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Bu shaharda Sharq me'morchiligi durdonasi – Ismoil Samoniy maqbarasi saqlanib qolgan. U IX-asrda barpo etilgan. U sariq g'ishtlardan o'ziga xos mahorat bilan qurilgan. Bu shaharda, Minorai Kalon, Labixovo'z, Sitorai Moxi Xosa, Miri Arab madrasasi kabi mashhur tarixiy yodgorliklar qad ko'targan, zamonaviy Buxoro qorako'l, zardo'zi buyumlari, misga o'yima naqshkorligi bilan mashhur.

#### Xiva.

O'zbekistonning Shimoliy G'arbida Xorazm vohasida Xiva shahri joylashgan. Bu tarixiy va qadimiy shahar bo'lib, unda barpo etilgan minora, madrasa, maqbaralar qadimgi madaniyat taraqqiyotini ko'rsatib turadi.

Tarixiy yodgorliklardan eng mashhurgari bu Xiva qal'asi, Kuna-Ark, Tash-Xauli saroyi.

Xiva o'zining paxta tozalash, tikuvchilik va gilam to'qish korxonalarini bilan mashhur.

#### Farg'ona.

O'zbekiston durdonasi Farg'ona vodiysidir. Uning markazi Farg'ona shahri. Farg'ona vodiysida joylashgan ko'hna Marg'ilon shahari 2007 yil rasmiy ravishda o'zining 2000 yilligini nishonlaydi.

Farg'ona – bog'lar shahri. Uni xalq – gullar shahri deb ham ataydi.

Farg'ona vodiysi mevalari dovrug'i o'zoq-o'zoqlarga taqalgan. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari – paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, bog'dorchilik va chorvachilik hisoblanadi.

#### Namangan, Andijon, Qo'qon.

Bu shaharlar Farg'ona vodiysining mevali bog'lari va yashil xiyobonlariga burkangan. O'z tarixiga ega bo'lgan bu shaharlar keyingi yillarda yirik ishlab chiqarish va madaniyat markazlariga aylandi.

Xotira haqida gapirganimizda, avvalam bor, o'tmish, ajdodlarimizni ardoqlashni tushunamiz va biz, yangi avlod ular ishlarining davomchilari sifatida uni qabul qildik. Davlatimiz yo'l boshchisi bu so'zlarida xalqimiz asosiy yutuqlaridan biri bo'lgan – o'z ajdodlari, o'z tarixini asrlar osha xotiralash haqida ta'kidlagan.

Xalq jangovar va mehnat shon – shuhrati joylariga Respublika safari O'zbekiston xalqlari qahramonona tarixini o'rganish, an'analarni o'zlashtirish va ularni mehnat va o'quv jamoalari kundalik faoliyatida tadbiiq qilishga yoshlarni jalb qilish vazifasiga ega. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi safarni o'tkazish shakl va uslublarini ijodiy rivojlantirish va takomillashtirish, serunum mehnat va O'zbekiston suverenitetini himoya qilishga yoshlarni tayyorlash uchun uning tarbiyaviy ahamiyatidan foydalanish lozim.

Eramizdan avvlgi II-I asrlar davrida Sharqiy Xitoydan O'rta Osiyo va G'arbiy Osiyo buylab "Buyuk ipak yuli" nomi bilan atalgan dunyo miqyosidagi savdo yo'li o'tgan.

Buyuk ipak yo'lining yo'z yilliklar davomida O'rta Osiyoda iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlanib kelishida katta rol o'ynagan.

Farg'ona vodiysidagi Buyuk Ipak yo'li 2 shu'baga (yo'nalish) bo'linadi: birinchisi-shimoliy – Oxsiya orqali O'zgandan o'tadi, qamchiq dovonidan (faqat yozgi vaqtda) Iloq va Toshkentga; ikkinchisi- janubiy – Quva, Marg'ilon, Qoqon orqali. O'zgan va Osh shahridan o'tadi, so'ng Xojand, Samarkand va Buxoroga yo'nalgan.

Buyuk Ipak Yo'li yana boshqa nomlarga ega: Oltin yo'l va kumush yo'l.

Qurama va Oloy tog'lari, hamda Zarafshon daryolarining bitmas boyliklari "oltin yo'l" deb nomlanishga sabab bo'lgan.

Tarixchilar yana bir muhim voqeani isbot qilgan; "Shonga" koni va mashhur Ko'xi-sim (kumush tog') aynan Kurama tizmasida joylashgan ekan. Bu erdagi kumush Samoniy davlati tangalarini zarb qilish uchun ishlatilgan. Rossiya, Germaniya, Boltiq dengizida topilgan kumush

dirhamlarga ko'ra kumush tangalar faqat pul o'rnida emas, balki mol sifatida ham chetga chikarilgan.

Shunday qilib yana "Kumush yo'l", ya'ni shu metall etishmaydigan Kiev Rusi va Evropa mamlakatlariga Xohar, Bulg'or Kaganatlardan o'tadigan O'rta Osiyo kumush yo'li bor edi. Bu yo'l qisman Buyuk Ipak Yo'lining shimoliy tarmog'i bo'lib, bizning ertamizgacha VI asrdan boshlab IX-X asrlargacha ayniqsa faol ishlagan. Hech bo'lmaganda bitta tepalikni topish, Buyuk Ipak Yo'li yo'nalishi joylaridan yurish, qal'a, aholi turar joylari tarixini o'rganib chiqish – "Vatanim - O'zbekiston" safarining maqsadimasmi.

## **Mavzu-5/1: “Qurolli kuchlar, mehnat faxriylari bilan mavzuli kechalar va uchrashuvlar o‘tkazish”.**

Reja:

O‘quv maqsadlar:

1. Talabalarni sayyoxatlarni tashkillash uslubiyoti bilan tanishtirish.
2. Talabalarga sayyoxat davomidagi xavsizlik qoidalarini o‘rgatish.
3. Talabalarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O‘quv savollari:

1. Urush va mehnat faxriylari bilan tematik kecha va uchrashuvlar o‘tkazishning maqsad va vazifalari.
2. Tematik kecha va uchrashuvlarni tashkillash va o‘tkazishda ChQBT rahbarining vazifalari.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma’ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko‘rgazmali qurollar va mashg‘ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

1. Urush va mehnat faxriylari bilan tematik kecha va uchrashuvlar o‘tkazishning maqsad va vazifalari.

Bu masalani biz o‘quv muassasalardan biri faoliyatida ko‘rib chiqamiz.

a) "Vatanni himoya etishni qahramonlardan o‘rganaman" mavzusida «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik» o‘qituvchisi, o‘qituvchiga ssenariyni to‘zishda zarur materillarni tanlash, o‘quvchilarning chiqishini tayyorlashda yordam berildi.

Kecha musiqa bilan ochildi. Boshlovchi o‘z kirish so‘zida jangchi qahramonlarning so‘zlari, Vatan himoyasini targ‘ibot qilish va tashkil etishda davlatimiz talablari, Vatan uchun xizmat qilishni o‘z burchi deb biladigan qahramonlarning nomi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibiga murojaat, Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tabrik va shu kabi o‘zining samimiy dil izhorlarini aytib davrani ochiq deb e‘lon qiladi. Masalan: "Qadimdan har bir erkak bizning davlatimizda yosh yoki keksaligidan qat’iy nazar Vatan, uning mudofaasi uchun o‘z kuch quvvatini ayamagan. Hozirgi kunlargacha davlatimizda ana shu qutlug‘ an’ana keng nishonlanib, davom etib kelmoqda. Hozirda uning mazmuni yangi ma’no kasb etib, ma’naviy boyitilgan holda yoshlarimiz tomonidan davom ettirilmoqda". Boshlovchi fashistlar Germaniyasi ustidan g‘alaba qozonilishida o‘zbek xalqining juda katta, ulkan hissasi borligini aytib o‘tadi va ba’zi bir raqamlarni ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, Ikkinchi Jahon urushi frontlarida o‘z xalqini, yurtini himoya qilish uchun ko‘rsatgan qahramonligi va jasoratlari uchun 170 mingdan ortiq O‘zbekistonliklar orden va medallar bilan mukofotlanganlar, 53 kishi shuhrat ordenining tulik sovrindori, 338 o‘zbekistonlik sobiq Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga (ulardan 69 tasi o‘zbek) sazovor bulgan. O‘z tanasi bilan dushman o‘qini to‘sisib, o‘z bo‘linmasidagilarni olg‘a harakat qilishga yo‘l ochgan T.Rustamov va D.Qoraqulovlar A.Matrosov qahramonligini takrorladilar.

Boshlovchining chiqishidan so‘ng bir necha o‘quvchilar ham so‘zga chiqadilar. Ular ham turli qahramonliklar haqida, insonning nimalarga qodir ekanligi haqida so‘zlaydilar. Chiqishlar

qiziqarli va jonli o'tardi, har bir o'quvchi tarix badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, o'zining hayotiy tajribasidan misollar keltirardi.

Munozaraning yakuniy qismida «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi xulosa chiqarib jasorat – bu qahramonlik, fidokorona mehnati, yuqori maqsad sari og'ir sharoitlarda har bir inson, guruh va butun xalq bilan amalga oshirilgan ahamiyatiga ko'ra muhim harakat, harbiy, mehnat va ilmiy jasorat turlari ham mavjudligini aytib o'tadi.

Qahramonlik o'z ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra buyuk harakatlarning sodir etilishi, xalq ommasi, ilg'or sinflar manfaatlariga javob beradigan va insondan shaxsiy mardlik, qat'iylik; o'zini qurbon qilishga tayyorlikni talab qiladigan tushunchadir.

Mardlik o'zoq davom etuvchi jismoniy yuklama, ruhiy zo'riqish va shu bilan birga xavfli vaziyatlarda yuqori jangovar faollikni, sabr toqatni ifodalaydigan jangchining ma'naviy psixologik va jangovar sifatidir.

«Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining chiqishidan so'ng "Mardlikni ham bayroq kabi olib yurdik" nomli adabiy musiqiy sahna tomoshasi ko'rsitildi, unda shoirlarning (urushdan qaytmagan) she'rlari o'qib berildi.

Adabiy musiqiy sahnada turli hujjatli (urush davri) kinofilmlardan ham parchalar berildi. Qatnashchilar ikkinchi Jahon urushi faxriylarining chiqishlari, afgon urushning mard va qahramon jangchilari so'zlarini qiziqib tingladilar. Ulardan biri Samarkandlik dehqon Po'lat Alievdir. U ikki o'g'lini urushga jo'natib, ular ketidan o'zi ham borib, pulemetchilik qilgan. O'zbek xalqining mard jangchisi janglardan birida o'n sakkiz dushmani yakson qilib, o'z do'stlarini hujumga olg'a boshladi. O'zi birinchi bo'lib xandaqqa bostirib kiradi.

Kechada "Qaynoq qor" kinofilmdan parchalar ko'rib, hozirgi Vatan himoyatlari uchun namunaviy jang qilgan, jangchi qanday bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining boshqa shakllaridan biri urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkazishdir. O'zbekiston xalqlari an'analarini qo'llab kelayotgan jangovar va mehnat faxriylari - targ'ibotchilardir. Ularning ko'pchiligi jarohat, konto'ziyaga ega, lekin shunga qaramay O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga o'z ishlari bilan hissa qo'shayotgan, bugungi kunda ham o'z shijoatlari bilan yurt farovonligi yo'lida mehnat qilayotgan shaxslardir. Faxriylar yoshlarimizga Vatan va xalqimizga sadoqat ruhida tarbiyalanishlarida namunadirlar. Ular insonlar xotirasidan Vatan qahramonlari abadiy joy olishi uchun har narsaga tayyordirlar. Ular bilan uyushtirilgan uchrashuvlar to'la vatanparvarlik mazmuniga ega. Faxriylarning qahramonliklari, front va front ortidagi jasoratlari haqidagi hikoyalari yoshlarda o'z Vatani xizmatiga tayyorlik va mas'uliyatlilikni tarbiyalaydi. Faxriylar tajribasi davlat uchun qadrlil bo'lgan tajriba, hamda jangdagi, mehnatdagi va o'qishdagi g'alaba tajribasi beqiyosdir. Faxriylar tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etadilar. Ular yoshlar bilan hamkorlikda kechalar, ma'ruzalar, fotokurgazmalar, tarixiy sanalarga bag'ishlangan mardlik darslari, uch avlod uchrashuvi kechalari va boshqalarni tayyorlashda qatnashadilar. Masalan, "Qahramonlar shuhrati boqiydir", "Xalq va armiya birdamdir" va boshqalar. Biroq, faxriylar bilan uchrashuv ba'zi bir muammolar, hal qilinmagan masalalarni o'rta qo'yadi. Ba'zi kechalar yoshlar uchun zerikarli, quruq ma'ruzalar bilan o'tkazilib, yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Sababi, ushbu tadbirning yaxshi tayyorlanmaganligidir. Insonning mehnat va jangovar xizmatini ko'rsatish uchun qahramon extiros bilan, yorqin, qiziqish uyg'otuvchi voqealar tavsilotini ta'sirchan ifoda ega olishi ham zarurdir. SHu sababli, taklif etiladigan mehmonlar bilan avvaldan suhbatlashib auditoriya xususiyatlarini tushuntirib berish yaxshi natija beradi. Uchrashuvga o'quvchilar ham tayyorlanishi, faxriylar hakida ma'lumotga ega bo'lishlari katta samara beradi. Uning ma'naviy dunyosi yoshlarning qiziqishlariga, uning hikoyalari o'quvchilarning o'quv jaryoniga, izquvarlik ishlariga, yordam beruvchi bo'lishi, yoshlarga yangi savollarning qo'yilishi, xayoliy dunyolarga ta'siri, qahramonlikka chorlashi, fuqarolik burchini anglash, o'zida ma'naviy, Vatan himoyasi uchun tayyorlik hislatlarini shaklanishida ahamiyati juda kattadir.

Uchrashuv o'quvchilarni shaxsiy faolligini rag'batlantirishi lozim. Uchrashuvlardan birida faxriy ikkinchi Jahon urushi jang voqealari, insonlarning ommaviy qahramonliklari, askar va ofitserlarning jasoratlari haqida gapirib berdi. SHuningdek jangchilarning o'z onalari, yaqinlaridan

olgan xatlarini o'qigandagi tuyg'u va kechinmalari hikoya qilindi. "Dushman ustiga borganingda dushmanni ayovsiz qir", "Asirga tushma seni Vatanning muqaddas va adalat jangida munosib jangchi bo'lishingni duo qilaman" deb yozadi onalardan biri. Oddiy ayolning ushbu maktubi barcha jangchilarni ruhatirdi. Ular onaning ko'rsatmasiga ko'ra kurasha boshladilar. Oddiy bir ayolning bu maktubi barcha jangchilar ruhiga ko'tarinkilik berib, ularga Ona Vatan uchun dushmanni ayovsiz qirishlarida kuch quvvat bag'ishladi. Jangchilar Ona Vatan topshirig'ini muqaddas deb bildilar va shu sababli mardlik, jasorat va qahramonliklarga bel bog'ladilar. Ko'plab orden va medallar sohibi bo'lgan, urushda ko'plab jangovar yo'llarni bosib o'tgan faxriylar o'z xotiralaridagi voqealardan istalgancha so'zlab berishlari mumkin. Biroq, ana shu Ona maktubi haqidagi hikoyasi yoshlar uchun juda ham ta'sirli bo'ldi. Aynan ana shu voqea bilan jangchilarning Vatan uchun istalgan sinovdan o'tishga tayyor ekanliklari juda chiroyli va ta'sirli tarzda so'zlab berilishi sababli, o'quvchi yoshlar qalbida o'zoq saqlanib qoldi.

Bunday kechalarning muhim tarbiyaviy kuchi, faxriylarning o'quvchilarga qarata Qurolli Kuchlarimiz, halqimizning qahramon farzandlarining ana shunday jasoratlarini o'z xotiralarida saqlash, ularning an'analarini davom ettirishga undashlari, chaqirig'idir.

Faxriylarning bunday torshiriqlariga o'quvchilar "labbay"- deb javob beruvchi devoriy gazetalar chikarishlari, plakatlari har bir o'quvchi uchun varaqa va tarqatma materiallar tayyorlashlari yaxshi samaralar beradi.

Bunday uchrashuvlarning faxriylar faoliyatiga bog'liq joylarda olib borilishi, aniq bir ish ustida yoki voqelik bilan bir vaqtda o'tkazish ham o'quvchilar tarbiyasida samarali iz qoldiradi. Uchrashuv joyi o'quvchilar uchun so'z borayotgan voqealar qiziqishlariga yanada orttiruvchi, o'zaro tushunishni, hamkorlikni amalga oshirishga qulay bo'lishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, uchrashuv va kechalar mavzulari, ularni tashkil etish, tayyorlash usullari turlichadir. Ularning umumiy xususiyatlarini alohida ko'rsatib o'tish muhimdir; birinchidan bag'ishlov kechalari qahramonlarning jangovar va mehnat faoliyatlarini targ'ibot qilish maqsadida o'tkaziladi, o'quvchilarda yuqori darajada harbiy vatanparvarlik hislatlarini shakllantirishga qaratiladi. Bu tarbiya ta'sirchanligini faollashtirishning muhim shaklidir. U tarbiyalanuvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan - kecha va uchrashuvlar qahramonlik an'analarini davom ettirgan insonlar bilan o'tkaziladi, bunda qahramonning so'zlari bilan hikoya qilib berilgan voqea, boshqa uchinchi shaxs haqida hikoya qilgandan ko'ra, o'zi haqida aytgan voqealari yanada ta'sirchanroq bo'ladi. Qahramonlik an'analarini davom ettirishga undovchi og'zaki targ'ibot - Qurolli Kuchlar xizmatiga himoya uyg'otuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan - badiiy qism o'quvchilarni tadbirga qiziqtiruvchi, ularning his tuyg'u va tafakkuriga ta'sir ko'rsatuvchi yuksak g'oyaviy yo'nalishga egadir.

To'rtinchidan - bag'ishlov kecha va uchrashuvlarini amalga oshirishda ularni puxta va har jihatdan mukammal etib tayyorlash zurlurigi sababli o'quvchilarni bu ishlarda tarbiyaviy imkoniyatlari jihatidan ham bunday tadbirlarning ahamiyati kattadir.

Targ'ibot ishida texnik vositalardan foydalanish.

So'ntgi vaqtlargacha o'qitishning texnik vositalariga, ko'rsatma, qo'lanmalardan alohida qaralar edi. Hozirda "O'qitishning texnik vositalari" atamasi "zamonaviy ko'rsatma, qo'llanma", "o'quv texnika" tushunchasi bilan umumiy deb tushunilmoqda.

Bu narsa tasviriy vositalar, zamonaviy: kino, televidenie, ovoz yozish va boshqa vositalar bo'lib, avvalgi an'anaviy plakat, model, maketlardan sifat jihatidan farqlanadi, shu sababli ularni faqat ko'rsatma vositalari (diafilm, kinofilm, videofilm) sifatida hisoblash xato bo'lardi.

Bunda birinchi navbatda texnik qurilmalar, ularsiz kinofilmni tomosha qilish va magnitofon yozuvi va boshqalarni tinglash imkoni bo'lmaganligi uchun tayyorlanishi zarurdir. Shu sababli "o'qitishning texnik vositalari" atamasini tavsiya etish to'g'riroqdir. Bu o'quv axborotlarini zamonaviy o'quv texnikasi bilan bog'lab olib borish demakdir. Ular dars davomida o'qituvchi va o'quvchi mehnati samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Bag'ishlov kecha va uchrashuvlarida audio, ko'rsatuv vositalaridan ham foydalanish mumkin:

1. Texnik qurilmalar proeksiyalash, ovoz yozish, televizion va boshqa zarur asbob anjomlar;

2. Axborot etkazuvchilar o'quv kinofilmlari, diafilmlar, diopozitiv, magnitofon va audio yozuv, radio o'zatish va televizion dasturlar; videoroektor, videomagnitofonlardan foydalanish mumkin.

Biz harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ikki xil shaklini ko'rib chiqdik. Bular Qurolli Kuchlar, zahiradagi urush va mehnat faxriylari bilan bag'ishlov mavzusidagi uchrashuv hamda turli xil kechalardir.

Ular ichida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, ya'ni Vatan himoyasi kunining nishonlanishi oldidan o'tkaziladigan haftalik va oyliklarga bag'ishlangan kechalarni o'tkazish ancha murakkabroq hisoblanadi.

Harbiy xizmat o'tash uchun ketayotgan askarlarga bag'ishlab yoshlar hamda harbiy qismlarning bo'linma komandirlari ishtirokida, harbiy o'quv yurtlari, o'quv yurtining sobiq o'quvchilari bilan uchrashuvlar, sportning harbiy texnik turlari bo'yicha turli xil musobaqalarni o'tkazish mumkin. Kechalarni o'tkazishda «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi puxta va ilgaridan tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari shartdir. Ko'pincha tadbirlarning yaxshi o'tishi asosan shunga bog'liq bo'ladi. Kecha va uchrashuvlarni o'tkazishda «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining o'quv va malakalari o'quvchi yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga samarali ta'sir etishida juda muhim o'rin tutadi (ya'ni juda muhim o'rinni egallaydi).

Faxriylar tajribasi davlatimiz tomonidan munosib baholanib, ularning g'alabaga, ya'ni ozodlikga qushgan hissalarini beqiyos, o'qish va mehnatdagi ibratlari biz uchun eng oliy va ijobiy namunadir.

## 2. Tematik kecha va uchrashuvlarni tashkillash va o'tkazishda ChQBT rahbarining vazifalari.

O'quvchi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy shakllari:

- ma'ruza, suhbat;
- ijtimoiy siyosiy o'qishlar;
- savol javob kechalari;
- urush va mehnat faxriylari, hamda taniqli insonlar bilan turli xil kechalar o'tkazish;
- jangovar va mehnat shuhrati joylariga safarlar uyushtirish;
- mudofaa ommaviy ishlari bo'yicha haftalik hamda oyliklar o'tkazish;
- xotira vaxtalari (navbatchi posbonlar);
- "Vatanparvar" va "Temurbeklar" harbiy sport o'yinlarini uyushtirish;
- harbiy vatanparvarlik mavzularida kinofilm, spektakllar tomosha qilish va ularni muhokama qilish;
- urush qahramonlari yodgorliklari, jangovar shuhrat muzeylari, xonalari va burchaklarini ziyorat qilish;
- bag'ishlov kechalarini o'tkazish;
- kitobxonlik anjumanlari.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi mavzusidagi mashg'ulot mazmunini o'zlashtirish tinglovchilarning guruh xususiyatlariga bog'liqdir. Ularni o'zlashtirilishida «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining metodik mahorati, yoshlar bilan ishlashda ish usulini namunaviy tarzda tanlashi katta ahamiyatga egadir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasida u yoki bu tarbiya usulidan foydalanishini rejalashtirishidan avval tinglovchilarning yoshiga, ma'lumotiga mehnat faoliyati turi va boshqalarga asoslangan holda o'rganib chiqishlari kerak. Bu xususiyatlarni e'tiborga olmay turib, samarali targ'ibotga erishib bo'lmaydi.

«Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi doimiy ravishda o'z bilimi va tarbiya mahorati ustida ishlashi zurrur. Har bir tadbirning o'tkazilishiga, hatto buni ko'p bor o'tkazgan bo'lsada puxta tayyorlanishi shart.

Ushbu va avvalgi ma'ruzalarimizda «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik»

o'qituvchisining harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha targ'ibot metodlarining turli shakllarini ko'rib chiqdik. Endi «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining Qurolli Kuchlar, mehnat faxriylari va zahiradagi jangchilar bilan kecha va uchrashuvlar tashkil etish va o'tkazishdagi o'rni ko'rib chiqamiz.

O'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tizimida muhim o'rinish bag'ishlov kechalari egallaydi. Ular bo'lajak O'zbekiston Respublikasi himoyachilarining harbiy vatanparvarlik tarbiyasida, o'quvchilarni dam olish kechalari qatorida ularga g'oyaviy - emotsional hamda ma'naviy ta'sir etishning ma'lum imkoniyatidir. Ularni o'tkazish anchagina murakkab bo'lib, oldindan tashkiliy metodik tomondan ssenariy ishlab chiqishni talab etadi.

Unda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini berishda samarali vositalar, vatan himoyasi uchun, dunyoda tinchlikni asrashda yoshlarni himoyachi etib tayyorlash muammolarini o'z mazmuniga kiritishi shart. Bunday kechalarining tub zaminida, ya'ni faoliyatida o'quvchilarning shaxsiy hislatlariga harbiy vatanparvarlik hissini singdirish yotadi. Turli xil shu kabi kechalarining asosiy xususiyati ularning hujjatli, badiiyli, obrazlili, ommaviylik, aniq ifodalangan syujetlarning ko'pligi, qat'iy ssenariyga asoslanganligi, yoshlarning hayotiy tajribaga tayanligi, ularni vatan himoyasi, urush va tinchlik muammolariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Ularning o'tkazilishida yoshlar uchun qiziqarli badiiy estetik vositalar, ya'ni zamonaviy shoirlar she'rlarini o'qish, shuningdek ikkinchi Jahon urushidan qaytmagan shoirlar ijodi yoshlar uchun ommaviy bo'lgan qo'shiqlar, yoshlar o'ratsida harbiy vatanparvarlik mavzusidagi she'rxonlik, qo'shiq tanlovlarini o'tkazish, kinofilmlardan parchalar namoyish etish, hamda ularni muhokama qilish, adabiy asarlar, tasviriy san'at va boshqalarni tomosha qilish yoshlar ongini yanada rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bunday kechalarda urush faxriylarining, ofitserlar va generallar, zahira va rezerva harbiy xizmatchilarning ishtiroki va so'zga chiqishlariga ham katta ahamiyat beriladi. Ular bilan uchrashuvlar yoshlarga bizning tarixiy an'alarimizni va jangovar qahramonliklarni bilishga yordam beradi. Bu bo'lajak Vatan himoyachilarini tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir.

Mana shu qudratli qurol orqali xalqimiz mustaqillik va o'z erki uchun kurashlarda qahramonlik ko'rsatgan. Shunday kechalarda o'tmish qahramonlarimiz to'g'risida so'z borishi juda o'rindir. Ularning namunaviy qahramonliklari tinch hayotimizni ta'minlashda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuning uchun uchrashuv va kechalarga ishlab chiqarish ilg'orlari, jangovar va ijtimoiy - siyosiy tayyorgarlik a'lochilari, o'quv yurtlari bitiruvchilari va harbiy xizmatni muvaffaqiyatli o'tayotganlarni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Kecha va uchrashuvlarni mashhur sanalarga, Vatanimiz tarixidagi qahramonona voqealarga, Qurolli Kuchlar, O'zbekiston xalqlari an'analari, urush va mehnat faxriylariga, hamda butun dunyodagi tinchlik muammolariga bag'ishlanishi katta ahamiyatga ega. Kecha mavzulari har tomonlama va erkin ifodalangan bo'lishi shart. Masalan, "Ikkinchi Jahon urushida O'zbekistonliklarning qahramonlari", "Ikkinchi Jahon urushi g'alabasiga O'zbekiston xalqining qo'shgan hissasi", "O'zbek xalqining tinch mehnatiga - ishonchli himoya", "Hoziri zamon sharoitida harbiy xizmatning xususiyatlari", "Unutma, bir vaqtlar yigitlar jangga ketgandilar", "Mening yaxshi yashashim uchun jangda qurbon bo'lganlar haqida" va boshqalar.

O'quvchilarni Vatan mudofaasi uchun ma'naviy rivojlanishiga katta samarali ta'sir ko'rsatuvchi kechalar odatda bir o'quv yiliga mo'ljallab rejalashtiriladi.

Bunday kechalarining soni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajalari ko'rib chiqiladigan muammolar hajmi va xususiyatiga ko'ra aniqlanadi. Qoidaga asosan har xil kechalar mo'ljallanib oyiga bir - ikki marta ko'p holda bitta auditoriya uchun o'tkaziladi. Kechalarga tayyorgarlik jiddiy va puxta bo'lish shart, barcha tashkiliy masalalarni avvaldan hal etish muhimdir. Kechaning qayda o'tkazilishi, qatnashchilarning tarkibi oldindan belgilanishi shart. Tayyorgarlik rejasiga asosan «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi kecha o'tkaziladigan zal va sahnaning bezatilishi, kecha mavzusiga asosan taklif etiladigan mehmonlar, mavzu bo'yicha so'zga chiquvchilar, taklifnomalarning tayyorlanishi, kechada orkestr ishtirokining ta'minlanishi, badiiy, hujjatli filmlardan parchalarning tayyorlanishi uchun to'liq mas'ul shaxs hisoblanadi. Shuningdek, kechaning ssenariysini to'zish va uning tarkibidagi chiqishlar orasidagi vaqtning

hisobga olinishi kechani olib boruvchining faoliyati soʻzga chiquvchilarining roʻyxatini ssenariy asosida toʻzishni talab etiladi. «Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik» oʻqituvchisi kechani tayyorlashda guruhlarining tashabbuskorligiga asoslanadi. Tashabbuskor guruh kechani tayyorlash va oʻtkazishga yordam beradi. Guruh aʼzolaridan biri oʻrtada boshlovchi etib tayinlanadi. U yuqori madaniyatli, bilimdon, ziyarak, urush va armiya nazariyasi bilimiga, Vatan himoyasi haqida barcha maʼlumotlarga, oʻrtada oʻtkir savol - javoblarni qoʻllay oladigan; notiqlik sanʼatiga ega istedod sohibi boʻlishi maqsadga muvofiqdir. U tinglovchilarning qiziqishi va kayfiyatini saqlab turadigan, kutilmagan jimlikni koʻtara oladigan, turli xil koʻrsatma materiallaridan savodxonlik bilan foydalana oladigan, barcha harakat va faoliyatlarni mantiqiy umumlashtira oladigan, kechaning yaxlitligini taʼminlay oladigan, soʻzga chiquvchilarni avvaldan koʻra bilishi, mavzu ifodasi vositasi sifatida koʻrsatma va badiiy vositalardan ustalik bilan foydalana bilishi zarurdir. Zalning dekorativ, badiiy bezatilishi va kecha emblemasi ham kechaga yorqinlik beradi va oʻz taʼsir kuchini koʻrsatadi. Badiiy havaskorlik, adabiy musiqiy chiqishlar, fono yozuvlar, diapozitiv, diafilm, gramplastinka, magnitofon yozuvlari, zarur kinofilm va boshqalarni avvaldan tayyorlab qoʻyish maqsadga muvofiqdir. Kechani samarali boʻlishi undagi qatnashuvchi va tinglovchilarga bogʻliqdir. Tinglovchilarning faolligini oshirish qatnashchilar bilan muammoli vaziyatlarning yaratilishi, dialoglar tinglovchilarning emotsional kayfiyatini koʻtaradi, shuningdek, harbiy marosimlarning, bir daqiqalik sukut va boshqalarning qoʻllanishi tarbiyaviy taʼsir qiladi.

## **Mavzu-6/1: “Harbiy vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha konferensiyalarni tayyorlash va o‘tkazish”.**

Reja:

O‘quv maqsadlar:

1. Talabalarga konferensiyalarni maqsad va vazifalari tushuntirish.
2. Talabalarga konferensiyalarni tayyorlash va o‘tkazish uslubiyotini o‘rgatish.
3. Talabalarga konferensiya rejasini ishlab chiqish yo‘llarini o‘rgatish.
4. Talabalarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O‘quv savollari:

1. Konferensiyalarni maqsad va vazifalari.
2. Konferensiyalarni tayyorlash va o‘tkazish uslubiyoti.
3. Konferensiya rejasini ishlab chiqish.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma’ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko‘rgazmali qurollar va mashg‘ulot rejası, sxemalar, slaydlar va multimedıya.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

Eksremistlarning barcha xiyla – nayranglari, mafkuraviy va qo‘poruvchiliklariga muvaffaqiyatli qarshi turishga tayyor bo‘lish O‘zbekiston yoshlarida Vatanga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash, Davlat gerbi, bayrog‘i va madhiyasiga hurmatda bo‘lish, O‘zbekistonliklarning o‘lmas qahramonliklarini ko‘rsatuvchi tashviqot qilish natijasini ko‘tarishni talab qiladi.

Ana shu muhim masalalarni hal etishda "Vatanparvar" MKJ, shahar va tuman Mudofaa ishlari bo‘limi, mehnat va urush faxriylari birgalikda o‘quv yurtlariga o‘z hissasini qo‘shishlari kerak.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu masalalarni hal etishga qaratilgan. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shakl va usullari turlicha. Ulardan ba’zilarini biz ilgari mavzualarimizda ham ko‘rib chiqqan edik,- bular:

- xalqimiz mehnat va jangovar shon-shuhrati joylari bilan tanishish.
- mavzuviy kechalar o‘tkazish:
- Urush va mehnat faxriylari, harbiylar, bilan uchrashuvlar uyushtirish.

Harbiy vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha nazariy konferensiyalar tashkil etish va o‘tkazish kabi harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bir qator shakllardan iborat.

O‘quvchilar bilan konferensiyalar o‘tkazish o‘quv muassasa va o‘quv yurtining o‘quv tarbiyaviy ishlari tajribasi va hayotiga mustahqam kirib bordi. Ular dars-konferensiyalar, ilmiy – amaliy, nazariy, yakuniy va o‘quvchilar konferensiyasi ko‘rinishida olib boriladi. Ularni samarali o‘tkazish avvalam bor harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadi, ularning umumiy o‘quv tarbiya tizimidagi o‘rni, o‘quvchilar yoshi, tarbiyaviy darajasi, madaniyati va hayotiy tajribalarini hisobga olib bilishni belgilab beradi. Konferensiyalar o‘qish davrida bo‘lgani kabi o‘qishdan tashqari faoliyat davrida ham, lekin ko‘pincha ana shu ikki jarayon ulanish paytida ulardan

foydalash maqsadga muvofiqdir.

Harbiy vatanparvarlik mavzusi bo'yicha konferensiyalar o'tkazish harbiy xizmatga tayyorlash bo'yicha o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlar butun tizimiga tayanuvchi katta tayyorgarlik ishlari olib borishni talab etadi. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining muhim vazifalaridan biri konferensiya mavzusi aniq va tushunarli qilib belgilash, mavzu o'quvchilar tomonidan ma'kullanishi, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi masalalari va o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlari bilan belgilanishi kerak.

Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan konferensiyalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Masalan:

Konferensiyaning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, unda muommo jamoa bo'lib hal etiladi, o'quvchilarning imkoniyatlari ochib boriladi.

Ular nafaqat o'z nuqtai nazarlarini himoya qilishga o'rganadilar, balki o'zlarini qiziqtiruvchi savollarga ham javob oladilar, ma'naviy o'sadilar.

Bunday konferensiyalarning asosiy maqsadi o'quvchilarni urush va armiya haqidagi chukur bilimlar Vatanni himoya qilish ta'limoti, dunyodagi Harbiy – siyosiy vaziyatni tahlil qila olish qobiliyati bilan qurollantirish, fikrlarni egallash, mustaqil O'zbekistonning bo'lajak himoyachisi shaxsi rivojlanishi mazmunida harbiy – nazariy mazmundagi muommlarni ko'rib chiqishga o'rgatishdir.

O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida kitobxonlar konferensiyalari ham o'tkaziladi. Konferensiya mavzusi bir qator hollarga ko'ra tanlanishi kerak, ya'ni asarning badiiy saviyasi, uning haqiqiyliigi, asarda ko'rsatilganlarning haqiqatga yaqinligi, tasvirlangan hodisalarning bugungi kun bilan bog'liqligi, uning tirik ishtirokchilari, guvohlari bilan aloqasidir. Kitobxonlar konferensiyalari turli shaklda bo'lishi mumkin. Bular asarning badiiy qimmatini bilan bog'liq savollarni muhokama qilish (obrazlar kelib chiqishi va xususiyatlari, haqiqatni qahramon va muallif ichki dunyosini ochib berish orqali ko'rsatish) va yozuvchi bilan uchrashuv, ko'rilayotgan asar muallifining kitob ustida ishlashi, materiallarni to'plagani, qanday maqsadlarga intilgani; unga nima uchun jasorat mavzusi muhimligi haqidagi hikoyalari. Konferensiyaga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quvchilar asar voqealarining tirik ishtirokchilarini topishlari, hamda ularni uchrashuvga taklif etishlari mumkin.

Konferensiya maqsadlari o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ular buning muhimligini tushunib etishlari zarur. Bunga ma'lum mikkorda anketa yordam berishi mumkin.

## 2.Nazariy konferensiyalarni tayyorlash va o'tkazish uslubiyoti.

Sh.Rashidovning "Qudratli to'lqin" asari bo'yicha konferensiya o'tkazish uchun tayyorlangan anketani ko'rib chiqamiz.

1. Qanday hislatlar Po'lat Sodiqovni qahramon bo'lishiga va o'z maqsadiga erishishga yordam beradi?

2. Qahramon harakterining shakllanishiga nima katta ta'sir ko'rsatadi?

3. O'z yurtdoshlaringizdan qaysi urush mehnat qahramonlari bilasiz?

4. Qahramon shaxsida sizga nimalar ko'proq yoqdi?

5. Po'lat Sodiqov haqiqiy tarixiy shaxs, u Baxmal qishlog'ida yashovchi yosh yigit. Siz romanni o'qidingiz. Yozuvchi yaragan bu obrazga siz ishonasizmi?

O'quvchilarga quyidagicha savollar berish ham maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Hayotimizning qaysi qirralari qahramonni tarbiyalaydi?

2. Jamiyatimizni xavotirga soluvchi muammolarga ba'zi zamonaviy yoshlarning befarqligi qanday namoyon bo'ladi?

3. "Vatanparvar" so'zini Siz qanday tushunasiz? Vatanparvarlikning belgilari nimadan iborat? Tinchlik sharoitida u qanday namoyon bo'ladi?

4. Vatanparvar fuqaro shaxsi shakllanishida adabiyot qanday rol o'ynaydi?

Kitobxonlik konferensiyalarining asosiy, muhim belgilari – munozaralar, fikrlar to'qnashuvidir. Ular urush qatnashchilarining chiqishlari, o'quvchilarning qidiruv ishlari bo'yicha axborotlari, adabiy viktorinalar, urush qatnashchilari, shoirlar she'rlarini o'qish, harbiy mavzudagi ashulalar ijro etish bilan to'ldirilsa yaxshi bo'ladi.

Kitobxonlar konferensiyalari yoshlarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, qidiruv ishlarida faol ishtirok etishga intilishni rivojlantirish, Vatanimiz qahramonlik tarixini o'rganishga jalb etishi juda muhimdir. Bular o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatanni himoya qilishga tayyorlashga yordam beradi.

Konferensiya oxirida yurtdoshlarimizning Ikkinchi Jahon urushi va Afg'on urushida ko'rsatgan qahramonliklarini hikoya qiluvchi kinofilmlar namoyish etish tavsiya etiladi. Konferensiya o'tkazishda video tasmlardan foydalanish ayni muddaodir.

### 3. Nazariy konferensiya rejasini ishlab chiqish.

O'qituvchi konferensiya o'tkazilshidan 1,5 oy avval o'quvchilarni xabardor etadi. Dastur, asosiy, majburiy va qo'shimcha adabiyotlar, muhokama qilinadigan savollar ro'yxati chaqiriqqacha tayyorgarlik xonasida osib quyiladi.

Bu o'quvchilarga ko'rsatilgan qo'llanmalarni o'rganish, muammoni har tomonlama tahlil qilishga imkon beradi. Eng faol, siyosiy savodli o'quvchilar ma'ruza va axborotlar tayyorlaydilar. Surat olish bilan tanish o'quvchilar "Konferensiya ishtirokchilari gapiradi" ekspres – ma'lumotlar stendini yaratadi. Boshqa o'quvchilar konferensiya nishonini yaratadi, plakatlarni, harbiy harakatlar haritalarini bezatish bilan shug'ullanadi.

Ancha murakkab topshiriqlarni 2-5 kishidan iborat o'quvchilar guruhiga topshirish pedagogik ma'noda maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosiysi har bir o'quvchiga o'zi qiziqadigan ishni topib berish muhim.

Turli manbalarni o'rganishda ko'zga ko'ringan davlat arboblari, O'zbekiston Xukumati hujjatlari, o'quv ilmiy – ommabop, badiiy, ma'lumotlar adabiyotlari, bezakli gazeta materiallari o'quvchilar o'qituvchilar rahbarligida kutubxonada ensiklopediyalar bilan ishlaydilar.

Tayyorgarlik davrida ular kinofilm, spektakllar ko'rib, konferensiya mavzusiga tegishli tomonlarini o'rganib chiqib, muzeylarga borib urush va mehnat faxriylari bilan uchrashadilar. O'zbekiston xalqi harbiy va mehnat shon-shuhrati joylariga borib tanishadilar. Bularning hammasi ularning g'oyaviy-siyosiy saviyasini o'stirishga yordam beradi. So'zsiz, albatta o'quvchilar izlanishlarida fanda bor ma'lumotlarni to'plash uslublaridan foydalanish mumkin va lekin shart emas, biroq ma'lumotlar haqiqiy bo'lishi uchun ular iloji boricha ko'p izlanishlari lozim.

Konferensiyaga tayyorlanish davomida «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi o'quvchilarga rejalar, konspektlar, testlar tayyorlash, asosiy ma'nolarini ajrata bilish, sitatalar tanlash, hujjatlar bilan ishlash, o'lka ma'lumotlarini to'plash va rejalashtirish ko'nikmalarini singdiradi, ularni mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar qilishga o'rgatadi, bunday ish «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining o'zidan ham katta mahoratni talab etadi.

Keyingi bosqichda har bir ishtirokchi tomonidan chiqish rejalarini to'zilatadi. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi guruh va individual tarzda maslahatlar beradi (sharoit talabiga qarab). Bu bosqich ma'ruza rejasini yozish yoki uning to'la matnini yozib chiqish bilan yakunlanadi.

O'quvchilar bunday ishlar tajribasiga ega emasligini e'tiborga olib, rahbar – maslahatchi har bir ma'ruza, ma'lumotni diqqat bilan ishlab chiqishi, ularga emotsional, qiziqarli tus berishi, ularga nutq madniyatini egallashlariga yordam berishi kerak.

Konferensiyaga tayyorgarlik faqatgina ma'ruza yozib, uni tayyorlash bilan cheklanmaydi.

Bolalarni jalb eta bilish, ularni o'z fikrlarini izhor qilishga majbur etish juda muhim. O'quvchilar orasida so'rov o'tkazish, konferensiya ma'ruzasiga yaqin bo'lgan insho yozishni taklif etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda konferensiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan bog'liq bo'lsa, insho mavzusi shunday bo'lishi mumkin: "Jasorat-bu bir lahza yoki butun hayotmi?", "Vatanni asrashni qahramonlardan o'rgan", "Vatan himoyachisi nomi sharafini yuqori ko'tarish, xalq ishonchini oqlash", "Mardlar o'lmaydi", "Tarixning borishini hech kim o'zgartira olmaydi".

Bolalarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan o'quv muassasalari bitiruvchilari haqida ma'lumotlar to'plashni topshirish mumkin. Konferensiyaga

bunday yondashish o'quvchilarning ko'rilayotgan muammoga shaxsiy munosabati, qiziqishlarini aniqlash, ularni qiziqitiruvchi savollarni, bu mavzu bilan shug'ullanish darajalarini aniqlashga yordam beradi.

Rahbarning tayyorlanishi, ma'ruzani tayyorlash. Konferensiyaga yakun yasash.

"O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari" mavzusi bo'yicha konferensiya o'tkazish metodikasini ko'rib chiqamiz. Bu konferensiya dasturi shunday bo'lishi mumkin.

1. Musiqiy kirish qismi: Harbiy mavzudagi qo'shiq. O'qituvchi yoki yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilardan birining kirish so'zi.

2. Ma'ruzalar:

a) "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qurilishi prinsiplari"

b) "Qurollangan kurash olib borishda harbiy qo'mondonlar, armiya, xalq ommasining tutgan o'rni".

v) "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari doimiy jangovar tayyorligining mazmuni nimada"

g) "O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasi"

d) "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish—O'zbekiston fuqarosi burchi"

e) "Vatan himoyasiga tayyorlanamiz".

3. Yakuniy so'z. Musiqali xotima, Harbiy qo'shiq.

Kirish so'zida konferensiya boshlovchisi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topishi va rivojlanishining muhim prinsiplarini ochib beruvchi aniq dalillarni ko'rsatib berishi kerak. Ularning xalq, yangi davlat va jamiyat tizimi bilan yaqin aloqasi; armiya va xalq birligi: Har qanday bosqinchilikni qaytarishga doim tayyorligi; kadrlar bilan ta'minlash, harbiy va siyosiy rahbarlik yagonaligi, yuqori intizom haqida gapirib o'tadi.

Kirish so'zida o'qituvchi muhokama etiladigan asosiy dunyoqarash g'oyalarini ochib berishi, qiziquvchanlik psixologik vaziyatni yuzaga keltirishi, o'quvchilarni munozaraga munosabatlarini bildirishni taklif etishi kerak.

Asosiy ma'ruzalarda Qurolli Kuchlar rivojlanishi prinsiplari, hayotiy muhimligini ko'rib chiqish lozim.

Ko'rilayotgan masalalar mazmunlari kengligi, chiqishlarning yorqinligi, konferensiya o'tayotgan muhitning ta'sirchanligi bilan moslashishi kerak. Bunga I.A. Karimov ishlaridan misol keltirilgan plakatlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Respublikamiz Qurolli Kuchlari, harbiy burch, Vatan himoyasi haqida maqolalar, "O'z vatanimizni kurashlarda himoya qildik", "O'talar jasoratini unutma" stendlari, urush yillari ashulalari va harbiy vatanparvarlik mavzusidagi zamonaviy mualliflar ijodi bilan tanishish, o'quvchilar kayfiyatini ko'tarishga yordam beradi.

Bularning hammasi konferensiyani yorqin emotsional tus olishiga ta'sir ko'rsatadi. Emotsional ta'sir kuchayishiga konferensiyadagi yozuvchi, olimlar, Qurolli Kuchlar faxriylari, baynalminal (tinchlikparvar) jangchilar ishtiroki yordam beradi.

Konferensiyaning samarali o'tishi uning ishtirokchilar ongi, hissiyoti, irodasiga ta'sir etish bilangina cheklanib qolmaydi. Uni o'tkazish yakunlarini muhokama qilish lozim, buning uchun o'quvchilarga shunday savollar bilan murojaat etish mumkin:

1. Konferensiya o'tkazishda nimalar eng foydali va qiziqarli deb hisoblaysiz?

2. Sizningcha qaysi savollar noaniq, to'la ochilmay qoldi?

3. Bunday konferensiyalar o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha Sizlarning takliflaringiz?

Shu kabi konferensiya materiallarini saqlab qolish va qayta ishlab chiqish, ulardan darslarda nazariy holatni ko'rsatuvchi illyustratsiya sifatida, konferensiya nitajalariga bag'ishlangan stendlar tayyorlashda foydalanish zarur.

O'quvchilar Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining barcha shakllari o'zaro bog'langan holda bir – birini to'ldirishi va boyitishi, shuningdek yoshlarni xalqqa cheksiz muhabbati, mustaqil O'zbekiston himoyasiga tayyorlik ruhida tarbiyalashning eng keng tarqalgan va amaldagi vositalari orasidan mavzuviy kechalar, urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, nazariy va kitobxonlar konferensiyalari, ijtimoiy – siyosiy o'qishlar joy olishi katta ahamiyat kasb etadi.

Harbiy vatanparvarlik tashviqotining u yoki bu shakllarini rejalashtirishdan avval qatnashchilar yoshi, ma'lumoti, mehnat faoliyati turiga ko'ra auditoriya tarkibini o'rganib chiqish lozim. Bu xususiyatlarni hisobga olmasdan samarali targ'ibot va tashviqotga erishib bo'lmaydi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida tinglovchilar tomonidan mazmuni o'zlashtirilish natijasi «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisining uslubiy mahoratiga bog'liq. U doimiy ravishda o'z bilimi ustida ishlashi, uslubiy mahoratini takomillashtirishi zarurdir.

## **Mavzu-7/1: “Badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san’atning o’quvchilarni tarbiyalashdagi roli”.**

Reja:

O’quv maqsadlar:

1. Talabalarga HVT da badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy sanoatni ahamiyati tushuntirish.
2. Talabalarga mashg’ulotlarda kinofilmlardan foydalanish tartibi, ularni tanlash va namoyish etish usullarini o’rgatish.
3. Talabalarga jamoa tarkibida teatr, tasviriy san’at ko’rgazmalariga tashrif buyurishni o’rgatish.

O’quv savollari:

1. HVT da badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy sanoatni ahamiyati.
2. Mashg’ulotlarda kinofilmlardan foydalanish tartibi. Ularni tanlash va namoyish etish.
3. Jamoa tarkibida teatr, tasviriy san’at ko’rgazmalariga tashrif buyurish.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma’ruza

O’tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko’rgazmali qurollar va mashg’ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to’g’risida”. T- 2002.
2. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o’tash tartibi to’g’risida Nizom. T.: 2006.
4. O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig’ining buyruq va direktivalari.

### 1. HVT da badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy sanoatni ahamiyati.

Mashg’ulotimizda uchraydigan asosiy terminlar mazmunini tushuntirib o’tamiz;

Adabiyot – yozma asarlar umumiy yig’indisi.

Badiiy adabiyot – xaqiqiy xodisalarni obrazlar yordamida tasvirlash (sheriya, proza, drama)

San’at – xaqiqatni badiiy obrazlarda tasvirlab berish, ijodiy aks ettirish.

Tasviriy san’at – badiiy obrazlarni tekislik va fazoda ifoda etuvchi san’atning umumiy nomi (rassomlik, grafika, xaykaltaroshlik, arxitektura)

Xaykaltaroshlik (skulptura) – kesib, o’yib, kuyma yo’li bilan xajmli badiiy asarlar yaratish san’ati.

Teatr – dramatik asarlarni saxnada ijro etish san’ati.

Spektakl – teatrlashtirilgan tomosha.

Shunday qilib umuman adabiyotning va xususan badiiy adabiyotning o’quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda roli qanday?

Adabiyotlar o’quvchilarni vatanni himoya qilishning ming yillik an’analari haqida o’ylashga majbur etadi, Vatanning mustaqilligi uchun tarixiy janglar qaxramonlari bilan faxrlanish xissini uyg’otadi. Xalqning buyukligini ko’rsatadi, Vatanni himoya qilishga chorlaydi, dushmanga nafarat uyg’otadi. Adabiyot o’quvchilarga Vatan uchun kurash axamiyatini ochib beradi, yoshlarga butun yuragi bilan bu kurash chiroyi va oliyjanobligini ochib beradi. Malika To’maris, cho’pon Shiroq, Spitamen, Muqanna, A.Temur, Ulug’bek, Bobur, S.Raximov, L.Alieva, K.Suyunova obrazlari o’quvchi yoshlar uchun ma’naviy namuna hisoblanadi. Xalqning o’z mustaqilligi uchun kurashiga bag’ishlangan adabiy asarlar o’quvchilarga urushlarning yuzaga kelishi sabablarini

tushunish, O'zbekiston xalqlarining o'z mustaqilligi uchun qaxramonona jasoratlari ma'naviy sabablarining chuqur asoslarini tushunishga yordam beradi. Urush xaqidagi bizning asarlarimiz qaxramonlar ma'naviy dunyosini og'ir sinovlarda ochib beradi, o'quvchilar ongida Vatan va butun dunyoda tinchlik himoyachilari namunasini yaratib va o'rgatib qolishiga intiladi. (Taqlid etish uchun misollar keltiring).

"Menda mujassam hamma yaxshi narsalar uchun, deb yozgan A.M.Gorkiy - men kitoblar oldida qarzdorman".

Badiiy adabiyot ikki vazifani bajaradi desak bo'ladi.

Birinchidan o'rganish bilishni. Kitobni o'qib yoshlar dunyoni o'rganadilar, bilimlarini oshiradilar, ular tabiat sirlarini bilib oladilar, xalqlar tarixi ulug'ligidan xabardor bo'ladilar.

Badiiy adabiyot o'quvchini ming yillik o'tmishga va kelajakka olib o'tishi mumkin. Uning ulug' qadr qimmatini ana shundadir.

Ikkinchidan tarbiyaviy. U o'z sevimli qaxramonlari bilan qo'shib birlashib ketadi, xuddi ularning xayoti, fikri, jasorati harakatlari bilan yashay boshlayotgandek bo'ladi. Kitob qaxramonlari o'quvchilar qalbida chuqur iz qoldiradi. o'quvchi, ayniqsa, yoshlar o'z qaxramoniga o'xshashni xoxlaydi, undan ibrat olish, uning qaxramonliklarini qaytarishni orzu qiladilar, Albatta shu bilan maqsadga muvofiq va ancha foydali tarbiyaviy beradi. Bunda gap vatanparvarlik ruxida yozilgan, Vatanga muhabbat xaqidagi fikr ifodalangan, uni himoya qilish, o'z xalqi qaxramonona tarixi, uning madaniyati, turmushi, odatlari va ajdodlari buyuk jasoratlari haqida yozilgan kitoblar nazarda tutiladi.

Badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san'at fashizmga qarshi kurashda o'zining qimmatli rolini o'ynaydi. Ular xalqning ma'naviy ruxini ko'tardi, ayniqsa urushning boshlanishi davrida.

Vatan himoyasiga qaratilgan plakatlarga xayajonlanmay qarab bo'lmasdi. Radio orqali so'zlarni eshitishlari bilan odamlar ko'zidan ko'z yoshi qalqib chiqar edi. Buyuk yozuvchilar shunday asarlar yaratdilar! "Tiriklar va o'liklar", "Ular Vatan uchun jang qilganlar", "Dushman orqasidagi urush" va ko'plab shunga o'xshashlar.

Kinomatografiya juda keskin ravishda ildamlab ketdi. Ekranlarda o'lmas nodir asarlar yaratildi: "Ular vatanni himoya qiladilar", "Soat yarim kechada to'xtadi", "Farxodning jasorati", "26 chisi otilmasin" va boshqalar. Harbiy yozuvchilarning ko'pgina asarlari ekranlashtirildi. Teatr saxnalarida harbiy mavzu ustun turdi. Boshqacha qilib aytganda butun ijodiy ziyolilar fashizmga qarshi umumxalq kurashiga qo'shildilar. Shuni aytish kerakki u o'z burchini sharaf bilan bajardi va dushman ustidan g'alaba uchun o'z xissasini qo'shdi. U buyuk qaxramonlik ko'rsatdi. Bu buyuk qaxramonlik nimadan iborat?

Birinchidan, asosiysi, ular g'alabaga bo'lgan ishonchni mustaxkamlaydi. Vatan uchun eng qiyin damlarda ruxan tushmaslikka, oxirgi tomchi qoni qolguncha erning har bir qarichini himoya qilishga chaqiradi, ularning kitoblari, she'r, kinofilmlari, plakatlari, asarlari er yuzida xayot uchun jangga chorlaydi, shavqatsiz, qonli lekin zarur bo'lgan jangga chorlaydi. Ular xalqqa eng qiyin onlarda yordamga keldilar. Ko'pgina yozuvchilar o'z asarlarini bevosita front chizig'ida yaratdilar. Qalam va qog'oz bilan ular jangchilar bilan bir safda xujumlarda ishtirok etdilar.

Bugungi kunda odamlar ular yordamida urush qanday daxshatli bo'lganini, u va bu tomondan qanchalar xayotlarni olib ketganini, Evropa xalqlariga behisob ofatlar olib kelganini bilib oladilar, Bugungi kunda hujjatli kadrlar o'ta daxshatli kunlarni odamlar yodiga solib "Odamlar xushyor bo'linglar" deb xitob qiladi.

Ko'pgina konsert brigadalari doim front chizig'ida bo'ldilar. Ko'pincha to'g'ri kelgan joyda, odatda avtomashina kuzovi saxna sifatida xizmat qilib konsert qo'yilardi. Bu jangchilarni ruxlantirar, g'alabaga ishonchini oshirar edi. Bu damlarda har bir jangchi o'z xayollariga berilar edi: oilasi, bolalari, ona eri, do'stlari, endi xech qachon yonida bo'lmaydigan safdoshlari haqida o'ylar edilar. Ana shunday damlarda hammaning orzusi bitta edi: tezroq dushmanni engib o'z uyiga qaytish.

Ikkinchidan, ijodkor ziyolilar xalqqa bu shavqatsiz kurash haqida xaqiqatni etkazar edilar. Xaqiqat shundan iborat ediki fashist Germaniyasi o'z oldiga butun-butun xalqlarni yo'q qilib tashlashni, bosqinchilikni maqsad maqsad qilib olgan edi. Xaqiqat shundan iborat ediki, xalq bilar

va muqaddas jangda yosh va qari ishtirok etardi. Va nixoyat ular ertami kechmi g'alaba qilishlariga ishonar edilar.

Uchinchidan, ijodkor ziyolilar urush zaxmatkashlari- jangchilarning qaxramonliklarini yorqin ko'rsatib berar edilar. G'arb mamalakatlari o'zlari guvoxi bo'lib ulug' jangning asosiy og'irligi xalq va uning armiyasi elkasida ekaniga ishondilar. Ijodkor ziyolilar bularni butun jaxonga ko'rsatib bera oldilar.

Va nixoyat to'rtinchidan ijodkor ziyolilar jangchilarda Vatanga muhabbat, bosqinchilikka nafrat, botirlik, madlik, jasorat, o'z qasamyodiga, bayrog'i, quroldosh do'stlariga sodiqlik kabi sifatlarni tarbiyalash, g'alaba uchun o'z jonini ayamaslikni tarbiyalaydi.

Jangchilarning bu sifatlari romanlar, kinofilmlarda, pesalarda asosiy mavzu qilib ko'rsatildi. Shu tariqa ijodkor ziyolilar ikkinchi Jahon urushi davrida fashizm ustidan g'alaba qilishda o'z xissalarini qo'shdilar. Yozuvchilar, rassomlar, kino ustalari, jurnalistlar, artistlar, xonandalar - hammalari bir bo'lib Vatan himoyasiga shaylandilar, o'z ijodlari bilan ular xalqni Vatan himoyasi uchun kurashga, g'alabaga chaqirdilar. Hozirgi davrga kelib badiiy adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'atning roli ancha o'sdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ularning ahamiyati o'sishiga sabab bo'ldi. Bu sharoitda tarbiyaviy jarayonning bir qator masalalarini qayta ko'rib chiqish sharti yuzaga keldi.

O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida badiiy asarlar, kino, teatr, tasviriy san'at roli va vazifasi o'zgarmay qoldi.

Gap bu jarayon shakli va uslublarini qayta ko'rib chiqish (tashkil etish) haqida boradi. Xususan hozirgi davr bosqichida o'zbek klassikasiga e'tiborni qaratish zarur. Albatta bu tarbiyaviy jarayondan jaxon, rus klassikasini chiqarib tashlash kerak degani emas. Respublikamiz mustaqillikka erishgunga qadar o'zbek klassikasi ikkinchi o'rinda turib, rus klassikasi ustunlik qilar edi. Shu tartibda butun avlodlar tarbiyalandi, ta'lim oldi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Hozirga kelib o'quvchilarni ko'proq o'zbek yozuvchilari asarlari bilan tanishtirish zarur, tarbiyaviy jarayon uchun bunda juda ko'p imkoniyatlar bor. Beruniy, Navoiy, Bobur, G'ofur G'ulom, Oybek Sh.Rashidov va boshqalar.

Bunda asosiy rolni harbiy rahbarlar, maktab kutubxonasi xodimlari, o'qituvchilar, ayniqsa adabiyot o'qituvchilari bajarishlari zarur, o'quv dasturi bo'yicha o'rganiladigan asarlardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish zarur.

Maktab kutubxonalarida vatanparvarlik yo'nalishidagi badiiy adabiyotlar maxsus stendi bo'lishi kerak. Tarbiya shakli turlicha bo'lishi mumkin: Bu eng avval o'quvchilarning o'zlari badiiy adabiyot o'qishlaridir. Bu eng asosiysi. Lekin shu bilan tarbiya jarayoni to'xtab qolishi kerak emas. Kitobni jamoa o'rtasida muloxaza qilish, kitob muallifi bilan uchrashuv tashkil etish, uning Kaxramoni bilan so'zlash tashkil etish, bir so'z bilan aytganda bu ishga ijodiy qarash kerak. Hozirgi kunda ko'pgina oilalar aytarli katta kutubxonaga ega. Axoli qo'lida juda katta miqdordagi badiiy asarlar bor. Harbiy rahbar, o'qituvchining burchi tarbiyalanuvchilar qanday kitoblarni o'qishlari bilan qiziqishdir, maslaxat berish, ota-onalari roziligi bilan ular kitob almashtirishlariga yordam berish. Ko'rib turibsizki o'sib kelayotgan avlod uchun faoliyat imkoniyatlari juda keng. Yoshlar hozirgi kunda juda ko'p g'arbning ko'ngilochar, ular tarbiyasini buzuvchi kitoblarni o'qiydilar. Bu ular tarbiyasiga tuzatib bo'lmas zarar etkazadi. Shuning uchun harbiy rahbarning, o'qituvchilarning vazifasi o'quvchilarga kitob tanlashda yordam berishdan iborat. Bundan tashqari yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalovchi kitoblar kutubxonalarda etarli ekani bilan qiziqib turish zarur. Albatta bunda maktab kutubxonasi xodimlari mas'uliyati katta bo'ladi. Ular faqatgina texnik xodim sifatida emas yoshlarga qaysi kitobni o'qishni tavsiya eta bila oladigan bilimdon tarbiyachi bo'lishlari zarur.

Bolalar o'qigan har bir kitob ular ko'nglida yaxshi iz qoldirishi, uni tarbiyalashi kerak. Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash ishida ko'pgina xalqlarning, fashizm tanqidchilarining ikkinchi Jaxon urushi haqida yozilgan asarlar to'plashlari qimmatli axamiyatga ega.

Ulardan ko'plari bugungi kunda klassik asarlar tarkibini tashkil etadi.

Albatta, biror kitobni turli yoshdagi o'quvchilarga tavsiya etib bo'lmaydi. Bu masalaga katta e'tibor berish zarur. Aytaylik 4-5 sinf o'quvchilariga murakkab klassik asarlarni o'qishga

tavsiya etish albatta to'g'ri bo'lmaydi. Bu asarlar faqat katta sinf o'quvchilariga tavsiya etilishi mumkin. Shunisi aniqki o'quvchilar faqatgina klassikani o'qishlari kerak emas, ayniqsa 3-5 sinf bolalari. Shu sababli kitoblar turlari keng bo'lishi kerak. Boshqa tomondan faqatgina vatanparvarlikni tarbiyalovchi kitoblarni tavsiya qilish ham mumkin emas, chunki bu juda zerikarli bo'lishi aniq. Bunday yondoshish yoshlar tarbiyasiga tuzatib bo'lmas zarar etkazishi mumkin. Demak badiiy asarlar mavzulari turli tuman bo'lishi kerak. o'quvchida vatanparvarlikni tarbiyalovchi kitoblar bilan bir qatorda texnik adabiyotlar, detektiv asarlar, fantastik kitoblar bo'lishi foyda keltiradi. Bunday kitoblarni shubxasiz o'quvchilarga tavsiya qilish mumkin. Chunki detektiv va fantastik asarlarda ham foydali tarbiyaviy jihatlar kam emas. Masalan Jul Vern asarlari yoshlarda Vatanga muhabbat, mardlik, jasoratni tarbiyalamaydimi? Albatta tarbiyalaydi. Xatto xajviy kitoblar ham tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu erda o'lmas Xo'ja Nasriddin va uning Buxorodagi sarguzashtlarini esga olmay bo'lmaydi.

Bu aytib o'tilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir badiiy adabiyot o'z tarbiyaviy rolini quyidagi hollardagina to'la bajara oladi:

1. Bu jarayonni harbiy rahbar, o'qituvchi, maktab kutubxonasi xodimi boshqarib borsalar. Bu jarayonni o'z xoliga tashlab qo'yish mumkin emas, tarbiyalanuvchilar nimani o'qiyotganlari bilan doimiy qiziqib turish – o'qituvchining burchidir.

2. Tarbiyaning turli shakllaridan foydalanish zarur (o'quvchilar o'zlari kitob o'qishlaridan tashqari) o'quvchilar konferensiyalari, o'qib chiqilgan kitoblarni muxokama qilish, kitob mualliflari, hujjatli asar qaxramonlari bilan uchrashuvlar o'tkazish va shu kabilar.

3. o'quvchilarga faqatgina vatanparvarlikni tarbiyalash yo'nalishidagi kitoblarni tavsiya qilish mumkin emas. Bu ularni zeriktirib qo'yishi va bu mavzuga qiziqishlarini yo'qotishi mumkin. Kitob o'qish- dam olishdan majburlash, qiynoqqa aylanadi. Bu xolda biz tarbiyadan ko'ra teskari natija olishimiz mumkin. Tavsiya etilgan mavzular turli xil bo'lishi kerak. Har bir kitobda tarbiyaviy tomonlari borligini esda tutish kerak.

Birinchi navbatda yoshlarni o'z xalqimiz yozuvchilarining asarlari bilan tarbiyalashimiz zarur. o'zbek klassikasidan keng foydalanish kerak. Chet el adabiyotini tavsiya etishdan qo'rqish kerak emas. Har doim shuni esada tutish kerakki, aynan siz tavsiya etayapsiz. Bunda ma'no va mazmun muxim, shakli emas.

Kino ham katta tarbiyaviy kuchga ega. Kinoning imkoniyatlari cheksizdir: u respublikamizning hamma erida mavjud. Uning har bir yoshdagi insonlar uchun imkoniyati bor, ko'p vaqt sarflashni talab qilmaydi 1,5 – 2 soat (400-500 betli kitobni o'qish uchun o'rtacha 5-7 kun kerak bo'ladi). Kino yordamida tarbiyalash formalari ham unchalik murakkab emas. Bular jamoa bo'lib kinoga borish (madaniy tashrif), tomosha qilingan filmni muxokama qilish, shu mavzuda insho yozish, aktyorlar, film qaxramonlari bilan uchrashuvlar va shu kabi. Va yana o'sha ilgari xulosa: xech qanday uslubda ham ma'muriyatchilik, rasmiyatchilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Tarbiyachilar hozirgi vaqtda har bir oilada televizor borligini e'tiborga olishlari muxim. Har kuni televizor orqali filmlar namoyish etiladi. Tarbiyachilar o'quvchilar nimalarni ko'ryaptilar, ularga ko'proq nimalar yoqishi, nimalarga ko'proq qiziqishlarini bilib borishlari kerak. Bu masalalarni erkin formada muxokamaga olib chiqish zarur keskin savollardan qochish, ularga javob bermaslik kerak emas.

o'quvchilarga tasviriy san'at, rassomchilik, grafika, xaykaltaroshlik, arxitektura ham katta ma'naviy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ko'p asrlik tarixida juda ko'plab takrorlanmas, ajoyib tasviriy san'at nodir asarlari yaratilgan. Ulardan harbiy- vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish – har bir harbiy rahbar, tarbiyachilar burchidir, o'zbek xalqi yaratgan va milliy iftixorimiz bo'lgan nodir tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash bizning ma'naviy madaniyatimizning muxim qismini tashkil etadi. Lekin biz faqatgina miliy boyligimizni aniqlabgina qolmay va balki yangi san'at asarlarini yaratishimiz kerak". Bunga misol qilib Amir Temur xaykalini, muzeyini ko'rsatishimiz mumkin.

U bir qo'li bilan jaxli chiqqan ot jilovini ushlab turgan bo'lsa, ikkinchi, oldinga ko'tarilgan qurolsiz qo'li bilan "Kuch xaqiqatda" tamoilini shior qilib kursatib dunyo xalqlariga tinchlik va

xotirjamlik tilaydi.

Yoki Toshkent aeroport binosidagi A.Navoiyning "Farxod va Shirin" asari bo'yicha devordagi naqshlarni olaylik. Farxod obrazi bizning erkaklarimiz mexnatsevarligi va jasoratini ifoda etadi, Shirin obrazi esa – ayol sadoqati, uning go'zalligini namoyon etadi.

Shu kabi asarlar juda ko'p va ulardan yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash uchun foydalanish zarur.

## 2. Mashg'ulotlarda kinofilmlardan foydalanish tartibi. Ularni tanlash va namoyish etish.

Maktabda filmlar namoyish etishda tarbiyachilar ularni tanlab olish bilan shug'ullanishlari kerak, Kinofilmlarni namoyish etishni rejalashtirishda ko'llanmalardan foydalanishlari kerak. Har bir film yaratilgan yili, kinostudiyasi, necha qismdan iboratligi yozib qo'yiladi, hujjatli va ilmiy ommabop filmlarga ular mavzusi va mazmuni qisqacha aytib o'tiladi. Hujjatli, ilmiy-ommabop va o'quv filmlardan leksiyalar, tematik so'hbat uchrashuvlari, kinokechalar va yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda keng foydalanish tavsiya etiladi. Maktabda namoyish etiladigan badiiy filmlar mavzulari turlicha bo'lishi kerak. G'arb filmlarini namoyish etishdan qo'rqish kerak emas Albatta ular yoshlar ko'ngliga yorug'lik bilim olib kelishi kerak, ya'ni ular:

1. Zo'rvonlik, shavqatsizlik, bir millatni ikkinchi millatdan ustunligini tashviqot qilmasligi kerak.

2. Siyosiy masalalarga erishish vositasi qilib urushni tashviqot qilmasligi kerak,

3. Fashizm va buyuk davlat shovinizmini tashviqot qilmasligi. tarbiyachi senzurani qo'llamay o'quvchilarga qaysi filmlarni ko'rsatishni, filmlar ular ko'nglida qanday iz qoldirishini bilishi shart va majburdir.

3. Jamoa bo'lib teatr, ko'rgazmalarga borishni tashkil etish, o'qish uchun adabiyotlarni tanlash bo'yicha tavsiyalar.

Jamoa bo'lib kino, teatrlarga borishlari boshqa harbiy-vatanparvarlikda tarbiyalash usullari bilan birgalikda olib borilishi xizmatga chaqmiriladigan yoshlar tarbiyasiga samarali yordam beradi. Yigitlar o'zlarini ekranda ko'rsatilayotgan xodisalar qaxramonlaridek xis etib, beixtiyor film, spektaklda yoqib qolgan qaxramonlariga taqlid qilishga intiladilar.

Badiiy, harbiy-vatanparvarlik film va spektakllarni yoshlar bilan ofitserlar uyida, madaniyat saroylarida, ommaviy-mudofaa ishlari oyligi kunlarida jamoa bo'lib tomosha kilishni tashkil etish kerak. Jamoa bo'lib harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi film, spektakllarni tomosha qilish asosan sinf rahbariga yuklatiladi. bu ishlarni amalga oshirishda sinf rahbari sinfdan tashqari ishlar tashkilotchisi, hamda harbiy rahbar yordamiga tayanadi.

Kinoteatrlarga borishda avval kinofilm tanlashga e'tibor berish kerak. Film mazmuni o'quvchilar o'rganayotgan ChXT dasturi bilan bog'liq bo'lishi, va boshqa umumta'lim darslari bilan mos kelishi zarur. Kinofilmlar o'quvchilar bilimini to'ldiradi, ularga ma'lum darajada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

## 3. Jamoa tarkibida teatr, tasviriy san'at ko'rgazmalariga tashrif buyurish.

Film mavzusi tanlangandan so'ng sinf rahbari harbiy rahbar bilan birgalikda kino teatrga borish rejasini tuzadilar. Rejada quyidagilarni ifoda etish maqsadga muvofiqdir:

1. Kinoteatrga borishni tashkil etishga kim javobgar shaxs etib tayinlanadi.
2. Kinoteatrga borishni tashkil etishda o'quvchilar yoshiga qarab guruxlar tashkil etish.
3. Tashkilotchi tomonidan filmni shaxsan ko'rib chiqish
4. Tashkilotchi tomonidan film mazmunini taxlil qilish.
5. O'quvchilarga kinoteatrga borish kuni va film nomini ma'lum qilish.
6. O'quvchilarni muvzu bo'yicha badiiy manbalar va tarixiy ma'lumotlar bilan tanishtirish, o'quvchilarga tanish bo'lmagan muammolarni o'rganish.
7. Bilet sotib olish (kuni)

8. Harakatlanish transporti, marshrutini aniqlash, (kinoteatrga jo' nab ketish tartibi) extiyotkorlik choralarini ishlab chiqish va ular bilan o'quvchilarni tanishtirish.

Kinofilmni tomosha qilishdan avval rahbar o'quvchilarga kerakli bilimlarni ma'lum qiladi. ya'ni hamma kirish mashg'ulotlarini o'tkazadi, faqat shundan so'ng kinofilm tomosha qilinadi. Kinofilmni tomosha qilgandan keyin uning asosiy muammolari, tarbiyaviy va o'rganish mazmunidagi qiziqarli masalalarni muxokama qilishni tashkil etish zarur. Kinofilmni muxokama etish turli yo'llarini taklif etish mumkin.

## **Mavzu-8/1: “Vatanparvarlik mavzusida ma’ruza, referat va dokladlar tayyorlash va o‘tkazish.”.**

Reja:

O‘quv maqsadlar:

- 1.Talabalarga HVT mavzusidagi ma’ruza, referat va dokladlarga qo‘yilgan talablarni tushuntirish.
- 2.Talabalarni ma’ruza yozishga tayyorgarlik bosqichlarini tushuntirish va o‘rgatish.
- 3.Talabalarni ChQBT rahbarining ma’ruza, referat va doklad o‘qishga tayyorgarlik ko‘rish (uslub) bilan tanishtirish.

O‘quv savollari:

- 1.HVT mavzusidagi ma’ruza, referat va dokladlarga qo‘yilgan talablar.
- 2.Ma’ruza yozishga tayyorgarlik bosqichlari.
- 3.ChQBT rahbarini ma’ruza, referat va doklad o‘qishga tayyorgarligi. Ma’ruza o‘qish metodikasi (uslub).

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma’ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko‘rgazmali qurollar va mashg‘ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

1.HVT mavzusidagi ma’ruza, referat va dokladlarga qo‘yilgan talablar.

Ma’ruza – og‘zaki so‘zga chiqishning o‘ziga xos turi bo‘lib, o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasining shakllaridan biri sifatida yoshlar bilan muloqotning tajribada sinalgan vositasi hisoblanadi.

Ma’ruza – o‘quv-tarbiyaviy ishlarning davriy uslubi bo‘lib, o‘quvchilar ongiga o‘z ta’sirini ta’minlaydi. Ma’ruza ko‘proq maktab va kollejlarda qo‘llaniladi. Xuddi shuningdek, o‘quvchilarga mazmun jihatidan murakkab bo‘lgan axborotni etkazishda, keyinchalik uni chuqurlashtirishda turli o‘quv faoliyatida, mashg‘ulotlarda ularni to‘ldirib borishda qo‘llanishi ham mumkin. Ma’ruza – bir manbaani gapirib berish emas, balki turli ma’lumotlarni tahlil qilish demakdir. Ma’ruzachi o‘z qarashlarini bayon etgan olimlar, adabiyotshunoslar g‘oyasining hamfikrli ifoda etuvchi sifatida so‘zga chiqadi.

Ma’ruzada o‘rganilayotgan mavzuga ma’ruzachining munosabati hamda shaxsiy mavqei ko‘rinib turishi kerak.

Harbiy vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha ma’ruzaning o‘ziga xosligi mavzuning tabiatda, ma’lumotlarni etkazib berish shaklida, uslubiy usullarda, uning tuzilishi mantiqiyligida, ilmiy va g‘oyaviy ma’lumotlarning hajmida, o‘quvchilarda Vatan himoyasiga tayyorgarlikni shakllantirish imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi.

Harbiy vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha ma’ruza talabalarda armiya va Vatan himoyasi to‘g‘risida bilimlar tizimini, dunyoqarashni shakllantiradi, ularni o‘z e’tiqodini himoya qilish, tasavvurdagi raqib bilan baxslashish, asoslarni keltirish malakalari bilan qurollantiradi.

Ma'ruzani ishlab chiqish, mavzuni ifodalab berishdan boshlanadi. Ma'ruzalarni o'qish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, «armiyada xizmat qilishning fazilatlarini nimadan iborat?», «Vatan himoyachisi qanday bo'lishi kerak?», «Qahramonlik ko'rsatishga tayyormisiz?» kabi mavzular o'zining ommabopligi bilan diqqatga sazovordir. Ma'ruzalarni o'qish ishlab chiqishda muhim omil bo'lib, maqsadlarni (ta'lim – tarbiyaviy, o'stiradigan) to'g'ri qo'shish hisoblanadi.

Maqsad – bu o'quvchilar ongidagi, bilimlaridagi ma'ruzachi etkazmoqchi bo'lgan o'zgarishlardir. Bu bilan maqsadni amalga oshirish uchun muvofiq keladigan vositalarini tanlash aniqlanadi.

Ma'ruza maqsadni aniqlashda faqat ma'ruzaning xususiyatini emas, balki tinglovchilarning tabiatini ham hisobga olish zarurdir. Ma'ruza maqsadi aniqlangandan so'ngina uning rejasini to'zishga o'tiladi. Reja o'quvchilarning diqqatini mavzuning asosiy savollarida jamlash, mantiqiy bo'lish kerak. Reja ma'ruzaga tayyorlanishda katta ahamiyatga ega bo'lgan uslub bo'lib, nazariy, taxliliy, baholash, haqiqiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash uslubi hisoblanadi. Uning manbai hisoblangan mumtoz yozuvchilarning asarlari, ilmiy nashrlar, badiiy asarlar, turli shaxsiy ko'zatuvarlar va taasurotlar hisoblanadi. Ushbu ko'zatuvarlar manba bo'lib, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash haqida maxsus ilmiy ishlar uchun xizmat qiladi.

## 2. Ma'ruza yozishga tayyorgarlik bosqichlari.

Ma'ruzalarni ishlab chiqishda, uning matnini tayyorlashda ahamiyatli ma'lumotlarni ta'riflash, ishontiruvchi dalillar keltirish, mantiqiy fikrlarni solishtirish, yorqinroq, aniq, ravshan bayon qilishga siyosiy keskinlikka erishi zarur. Ta'sirchanlikning badiiy to'zilishi, uslub va vositalari bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ba'zi hollarda ma'ruza bilimlarni kengaytirishga yo'naltirilgan, boshqa hollarda esa amaliy bilim-ko'nikmalarni ishlab chiqishga, uchinchi hollarda - shaxsning harbiy vatanparvarlik fikri bo'lgan tuyg'ularini hamda extiroslarni va e'tiqodlarni ochib berishga xizmat qiluvchi ma'naviy - umumiy ko'zg'atuvchi sabablarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun nazariy va haqiqiy ma'lumotlarning nisbati, asoslarni keltirish shakli, shaxsga ta'sir qilish holatining yaratish uslubi bu xillarda turlicha bo'ladi.

Birinci holdagi vaziyatlar an'anaviy xabar beruvchi ma'lumotlar uslubiga, ma'lumotlarni jiddiy «quruq» bayon qilishga, xulosalarni mantiqan tushunishga asoslangan.

Ikkinchi holdagi vaziyatlar murakkab amalga oshirish uslubini talab qiladi va quyidagi pedagogik talablarni bajarilish lozimligini mo'ljallaydi:

Harbiy vatanparvalik ruhida tarbiyalash faoliyati tajribasining ko'rinishlarini ajratish;  
Programmalash asosida ma'ruzani ishlab chiqish.

Uchinchi holdagi vaziyatlar o'quvchilarning urush va tinchlik muammolariga munosabatini, o'zlarining Vatanni himoyalash fuqarolik majburiyatiga munosabatini chuqur o'rganib chiqishni talab etadi.

Bilim va malakalarni, ko'nikmalarni etkazish va qabul qilish usullariga talabalarda yuksak axloqiy – jangovar va texnologik sifatlarni shakllantirishga, ularning harbiy mahoratni egallash qobiliyatlarini rivojlantirishga o'qitish usublari deyiladi. Ular uyg'un ravishda o'qitish, o'rganish va bilim faoliyatiga rahbarlik qilishni birlashtiradi va muallim talabalarning vazifalarini aniq ravshan belgilab beradi.

O'qitish usulbining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uslubiy yo'llar hisoblanadi. Har qaysi uslub bir necha usullardan iborat bo'lishi mumkin, bir xil usul turli usulbning tarkibiga kirishi mumkin. Usullardan ayrimlari barcha o'quv kurslarida qo'llanilsa, boshqalaridan esa faqat birgina kursni o'qitishda foydalaniladi.

Harbiy ta'lim fakultetlarida pedagogik amaliyotdan turli usulblarda foydalanish mumkin. Bulardan keng tarqalganlari: ma'lumotni og'zaki bayon qilish, suhbat, ko'rgazmali uslub, mashqlar, mustaqil ish usulblaridir.

O'qitishda etakchi o'rinni og'zaki bayon qilish uslubi egallaydi. Uning ahamiyati bilish faoliyatida nutqning ahamiyati, bilimlarni to'plash, saqlash va etkazishda og'zaki nutqning o'rni

sabab bo'ladi.

Nutqning samaraligi uning egiluvchanligiga sabab bo'ladi va shu bilan birga ko'p hajmni egallash hamda jonligi ham sabab bo'ladi. Nutq tinglovchilarning ta'sirlanishiga qarab, ma'lumotni bayon qilish oson o'zgartirishga imkon beradi, nashrda chiqmagan yangi ma'lumotlardan xabardor qilishga, ba'zi ma'lumotlarga e'tiborni kuchaytirish yoki kamaytirishga, muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatishga imkoniyat to'g'iradi.

Og'zaki bayon qilish uslubi bir necha turlarga bo'linadi. Ulardan asosiylari – hikoya va tushuntirish o'quv ma'ruzalaridir.

Hikoya ta'riflashda, ma'lumotlarni bayon qilishda, obrazli voqea – hodisalarni bayon qilishda qo'llaniladi. Bu uslub tarixiy voqealarni, ijtimoiy hodisalarni, jangovar texnika va qurolning to'zilishini, ularni ishlatishga sabab bo'lgan jismoniy usullarni ta'riflashda ishlatiladi. Hikoya davomida mavzuni so'zlab berish, ta'riflash, munozara kabi tarixiy usullar qo'llaniladi.

O'quv ma'ruzasi – bu og'zaki bayon qilish uslubining murakkab turidir. U o'rganilayotgan mavzuning mantiqan o'zaro bog'liq savollarini og'zaki bayon qilishdan iborat bo'lib, unda avvalo, savollarning nazariyasi, g'oyasi bayon qilinib, qonuniy hujjatlar va muammolar, ularni echish yo'llari ochib beriladi.

Ma'ruzalarda boshqa uslublar ham keng qo'llaniladi – ya'ni, og'zaki bayon qilish uslubi hikoya kabi tushunishdir.

Ma'ruzaning eng ma'suliyatli qismi, uni umumlashtirish va xulosalaridir, ular bilan, odatda, ma'ruza yakunlanadi. o'quv materialining asosligiga muallimning chuqur bilimi bilan, mantiqan to'g'ri tushuntirib berish malakasi, asos, ma'lumot, misollardan foydalanish bilan erishiladi.

Suhbat. Bu uslub o'z tabiatiga ko'ra, og'zaki bayon qilish uslubiga yaqin. Farqi shundaki, u yoki muallim bilan talaba dialogi asosida, yoki savol-javob shakllari asosida ko'riladi. Nazorat – tekshirish suhbatlari keng qo'llamda foydalaniladi. Bu uslub navbatdagi mashg'ulotlarda o'tilgan ma'ruzani egallash darajasini bilishga, shuningdek, joriy, oraliq hamda yakuniy nazorat o'tkazishlarda qo'llaniladi.

Ko'rgazmali uslublar. Bu uslubning formulasi ko'rgazmali o'qitish asosi formulasini eslatadi. Pedagogik amaliyotda bir necha ko'rgazmali uslublar qo'llaniladi. Ulardan asosiylari namoyish qilish va ko'rsatishdir.

Ayni paytda yangi informatsion texnologiyalar sohasini o'quv jarayoniga tadbiiq etish va qo'llash keng quloqch yozmoqda. Bunday texnologiyalar asosida o'quv matini yanada murakkab tashkil etilgan o'quv materiallari asosida kengaytirish va chuqurlashtirish hamda kurslar va animatsion fragmentlardan foydalanish yo'li bilan almashtirish g'oyasi yotadi. Bunda u yoki bu holatda ajratib berilgan matn fragmentlari orasida o'zaro bog'lanish tugunlari qator topiladi.

Inson intellektining katta hajmidagi axborotni esda saqlash qobiliyatini va mazkur axborotlar ichidan kommunikatsiya va tafakkur jaryonlarini assotsiatsiyalash yo'li bilan qidiruv ishlarini olib borib ko'plab statistik va dinamik axborotlarni informatsion fragmentlar rolini matn, grafik, sxema, videofragment, ijrochi programma va animatsiya (harakatli jarayon)lar muhim rol o'ynaydi.

Fanlar bo'yicha informatsion fragmentlarni animatsiyalashtirilgan holda elektron darsliklar yaratishda asosan yozma manbaalardan, ya'ni slaydlar ko'rinishida aks ettirib, mavzuga doir rangli rasmlar bilan boyitilmoqda. Shu jumladan ma'ruza matnlarni yoritishda 5 – 10 daqiqali mavzuga doir filmlardan foydalanish qo'l keladi va shu o'rinda talabalarning e'tiborini hamda fikrini jamlashga erishiladi.

Informatsion fragmentlarni animatsiyalashtirilgan holda tayyorlangan elektron darsliklar talabalar uchun mazkur mavzularni eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Ayniqsa seminar va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda 30 – 40 daqiqali hujjatli yoki ushbu mavzuga doir badiiy filmlardan parchalar namoyish etish orqali slaydlarni tayyorlashda ko'proq har xil effektlar va ranglardan foydalanish ta'sirliroq bo'ladi.

Misol tariqasida o'tmish tariximizga doir, xalq, Qurolli Kuchlar ananalarini, bayram bazmlarini, ma'lum bir mavzuga doir kechalar jarayonini aks etgan hujjatli filmlarni namoyish

etish mumkin. SHuningdek, bevosita bo'lajak pedagoglarni axloq – odob va kasbiy etik qoidalarini, madaniyat muomalasiga, odobiga doir ko'rinishlarni o'zida aks ettirgan informatsion fragmentlarni animatsiyalashtirilgan holda tayyorlash va bo'lajak pedogoglarga o'rgatish aynan maqsadga muvofiqdir.

Bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilishda asosiy uslub bo'lib, *talabalarning mustaqil ishlashi* hisoblanadi. Bu o'qitishning o'zgarmaydigan omilidir. Chuqur va kuchli bilimga ega bo'lishda talabalarni mustaqil ishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mustaqil tayyorlanish bir necha turlardan iborat, bular nazariy bilimlarni mustaqil egallash va amaliy malaka va ko'nikmalarni mustaqil mustahkamlashdir. Nazariy bilimlarni egallash, birinchi manba hisoblanmish, bu o'quv adabiyotlardir. O'quv materiallari mashg'ulotlarda to'liq hajmda bayon etilmaydi. Talaba mustaqil ishlash davomida dars – mashg'ulotlaroi davrida olgan va o'rnatilgan materialni qaytarib chiqadi va bir vaqtning o'zida yangi bilimlarni egallaydi.

Avvalo mavzu to'la o'qib chiqiladi. Mustaqil ishlashning takomillashgan turi ma'lumot, referat, dokladlar tayyorlash hisoblanadi. Bu ishni quyidagi tartibda bajarish tavsiya etiladi: avvalo, birinchi manbalar ajratiladi, o'qib chiqib, referat rejasi yoziladi. Shundan keyin yozma bayonga o'tiladi, bunda har bir murakkab nazariy tushuncha izchillik bilan tekshiriladi.

Talabalarning harbiy tayyorgarligida o'quv uslublarining turli shakllari qo'llaniladi. Ma'ruzalar, seminarlar, guruh mashg'ulotlari, harbiy mashq mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari, maslahatlar mashg'uloti keng tarqalgan shakllaridir.

### 3.ChQBT rahbarini ma'ruza, referat va doklad o'qishga tayyorgarligi.

Ma'ruzalar. Ma'ruza, o'quv ishining shakli sifatida tinglovchilarga o'quv materialining murakkab nazariy va amaliy savollarini etkazib berish imkonini beradi. Ma'ruza mashg'ulotlari o'z tuzilishiga ko'ra, uch qismdan iborat:

Tashkiliy qism, ma'ruzaning o'zi, xotima, yakun yasash qismi.

Tashkiliy qism talabalarning joyida ekanligini tekshirish, ularning o'quv ishiga tayyorgarligini bilish maqsadga egadir.

Ma'ruza oson bayon qilinganda, muallim oldindan yozilgan matn bilan bog'liq bo'lmaganda muvaffaqiyatga ega bo'ladi. Ma'ruza matni uni so'zma-so'z o'qib berish uchun emas, oson bayon qilishda qo'llash uchun yoziladi. Matn muallimni intizomlaydi, mavzuni esa mantiqiy va tartibli bayon qilishga yordam beradi, hujjatlardan ko'chirmalar keltirishni, nufo'zli shaxslar haqida misollar keltirishni hamda sonlarni o'qishning imkonini beradi.

Hozirgi sharoitda ma'ruzachilar texnik vositalarni: filmskoplar, epidoskoplar, kinoapparatidan, televideniya keng qo'llab, ulardan o'z o'rnida foydalanishyapti. Texnik vositalarni boshqarish ma'ruzachining qo'lida bo'lishi zarur. Bu mavzuning bayonidan ko'rgazmali namoyishga o'tishning va aksining tabiiylikini ta'minlaydi.

Seminarlar – talabalarning bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirishning faol shakllaridan biri bo'lib, ularning mustaqil ishining natijasini nazorat qilishning samarali vositasidir.

Mashg'ulotning o'zi quyidagi tuzilishga ega:

Tashkiliy qism.

Muallimning kirish so'zi, talabalarga darsning maqsadini etkazib berish.

Referat yoki axborotni eshitish va muhokama qilish.

Seminarining asosiy savollarini muhokama qilish.

Yakuniy qism.

Seminarining yakuniy qismida muallim talabalarning tayyorgarlik darajasiga umumiy holga tayangan tarzda baho beradi, yaxshi o'zlashtirilgan savollarni va o'zlashtirilmaganlarini ko'rsatib o'tadi, amaliy mashg'ulotda qatnashgan talabalarga baho qo'yib chiqadi.

Gurux mashg'ulotlari (mashqlar). Bu harbiy kafedra mashg'ulotlarida keng tarqalgan mashg'ulot shakllaridan biridir. U chuqur, tarixiy ildizlarga ega bo'lib, keng qo'llamada qo'llaniladi. Odatda, gurux mashg'ulotlari vzvod bilan o'tkaziladi (yoki yarim vzvod bilan), bunda hikoya va namoyish uslublaridan foydalaniladi.

Guruh mashg'ulotlari tuzilishiga ko'ra, quyidagi qismlardan iborat:

Tashkiliy qism.

Mustaqil tayyorgarlik vazifasining bajarilishini tekshirish.

Yangi o'quv mavzusini bayon qilish.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mashg'ulotlarga yakun yasash va mustaqil tayyorlanish uchun uyga vazifalar berish.

Amaliy guruh mashg'ulotlari – tashkiliy qismdan so'ng, mavzu e'lon qilinib, maqsadi, mashg'ulotning asosiy savollari berilgandan keyin muallim hikoya uslubi bilan ishning hajmini, harakat va usullarni ta'riflaydi, ularning harbiy kasbni egallashda muhimligini baholashni talabalarga etkazib beradi. Bunga 10 minut vaqt ajratiladi. SHundan so'ng muallim egallanishi kerak bo'lgan birinchi harakatni texnikada yoki qurolida ko'rsatib beradi, talabalarga ish uslubini etkazib beradi. Keyin talabalar mashqlar uslubi bilan bu harakatni o'zlashtirib oladilar. Mashg'ulot oxirida yakun yasashga, talabalarni baholashga, xatolarni taxlil qilishga va mustaqil vazifa berishga 10 minut qoldirish zarur.

Kurs ishlari – egallangan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladigan mustaqil ishlash shakllarining eng samaralisidir. Bir vaqtning o'zida talabalarni izlanishga chorlaydi, ijodiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kurs ishining yakuniy tashkiliy hujjati bo'lib, uning tematikasi bo'lib hisoblanadi, u yo'nalishga qarab ishlab chiqiladi, kafedra uslubiy yig'ilishida muhokama qilinadi va rahbar tomonidan ushbu ishlar tasdiqlash kerak. Mavzular bir o'quv fani asosida yoki bir necha fanlar asosida shakllanadi. Talabalarga mavzu tanlashda erkinlik beriladi. Ularga yordam berish maqsadida kafedra muallimlari hisobidan maslaxatchilar belgilanadi. Maslaxat shaxsiy tartibda olib boriladi. Bu muallim «kurs ishining rahbari» deb hisoblanadi. Kurs ishi asosan mustaqil tayyorgarlik soatlarida va talabaning shaxsiy vaqti hisobiga bajariladi. Ayrim hollarda unga mashg'ulotlar jadvali bo'yicha soatlar ajratiladi.

Mustaqil ish – o'quv ishining asosiy shakllaridan biridir. o'quvchilarning faolligini oshiradi va bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlarida asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarining mustaqil ishi harbiy kafedraning maxsus ajratilgan soatlarida mustaqil tayyorlanish va uyga beriladigan vazifalarni tayyorlashdan kelib chiqadi. Mustaqil tayyorlanish soatlarida hujjatlar bilan birga texnika ham o'rganiladi.

Uyda talabalar manbalari mavjud bo'lgan barcha mavzularini o'qib o'rganib chiqadilar.

Maslahatlar – murakkab mavzular bo'yicha yoki imtihonlardan avval muallimlar tomonidan o'tkaziladi. Ular shaxsiy yoki guruxli bo'lishi mumkin. Maslahatlar davomida muallim talabalarning bilimidagi zaif joylarini aniqlashga intiladi, so'ng suhbatlar yordamida ushbu kamchiliklar o'zi to'ldiriladi.

## **Mavzu-9/1: “O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzeylarning roli.”**

Reja:

O‘quv maqsadlar:

1. Talabalarni o‘quv yurti muzeylari to‘g‘risidagi nizom va o‘quv yurtlarida muzeylarni tashkil etish ishlari bilan tanishtirish.
2. Talabalarni izquvarlik ishlarini olib borish va o‘lka tarixini o‘rganish usullari bilan tanishtirish.
3. Talabalarni ekskursiya etakchilarini tayyorlash va uni tashkillash uslubiyoti bilan tanishtirish.
4. Talabalarga o‘quv yurti muzeyi ishlarida ChQBT rahbarining roli haqida tushuncha berish.
5. Talabalarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O‘quv savollari:

1. O‘quv yurti muzeylari to‘g‘risidagi nizom. O‘quv yurtlarida muzeylarni tashkillash.
2. Izquvarlik ishlarini olib borish. O‘lka tarixini o‘rganish.
3. Ekskursiya etakchilarini tayyorlash. Ekskursiyalarni tashkillash uslubiyoti.
4. O‘quv yurti muzeyi ishlarida ChQBT rahbarining roli.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: ma’ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko‘rgazmali qurollar va mashg‘ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

1. O‘quv yurti muzeylari to‘g‘risidagi nizom. O‘quv yurtlarida muzeylarni tashkillash.

Harbiy xizmatga tayyorlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlash tizimining asosiy qismi hisoblanadi. Harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida yoshlar O‘zbekiston Respublikasi "Mudofaa haqida"gi qonuni, Konstitutsiyasini o‘rganadilar. Yosh jangchini tayyorlash hajmi bo‘yicha kerakli harbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadilar va psixologik barqarorligi tarbiyalanadi.

O‘quv muassasalarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda Vatanga sadoqatni shakllantirish, Vatan an‘analari tarixini, o‘z xalqini hurmat qilishga katta e‘tibor beriladi, Vatanga, xalqiga, tili, an‘analari va madaniyatiga muhabbat uyg‘otishdan iborat bo‘lsa, harbiy vatanparvarlik esa aynan aniq bir maqsad – Vatanni himoya etishga tayyorlashdan iborat bo‘ladi.

O‘quv yurtida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ko‘pgina shakl va uslublardan keng foydalaniladi. Ulardan ba’zilarini oldingi mashg‘ulolarimizda ko‘rib chiqdik:

1. O‘zbekiston xalqi jangovar va mehnat shon-shuxrati joylari bo‘ylab poxodlar;
2. Harbiy vatanparvarlik mavzusida nazariy konferensiyalar o‘tkazish;
3. Urush va mehnat faxriylari bilan kechalar va uchrashuvlar o‘tkazish;
4. Harbiy vatanparvarlik mavzusidagi ma’ruza, axborot, suhbatlar tashkil etish.

Bundan tashqari o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at rollarini ko'rib chiqdik. Deyarli hamma o'quv yurtlarida jangovar va mehnat shon-shuhrati muzeylari tashkil etilgan, bu erlarda urush faxriylari, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik a'lochilari bo'lgan jangchilari bilan o'quvchilar uchrashuvlari o'tkazilib turibdi.

O'quv muassasa muzeylari o'quvchilarda g'oyaviy – siyosiy ishonch va vatanparvarlikni yuzaga keltirishga yordam berishi va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilar ijtimoiy – siyosiy va ijodiy faolligida yordam berish, ularga qidiruv – izlanish ishlarida ko'maklashishda xizmat qilishi kerak.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixda esdan chiqarib qo'ygan ajdodlarimiz nomlari endi qayta tiklanyapti va bugun o'quv muassasa muzeylari tariximizni o'rganish, o'tgan voqealarni yoritishda va tarbiyaviy ishlarda muhim rol o'ynaydi.

O'quv muassasalarimiz muzeylari o'z yunalishlari bo'yicha tarixiy, xotira, o'lkashunoslik, san'at, tabiiy-tarixiy bo'lishi va turli yo'nalishda ish olib boruvchi bo'lishi mumkin. O'zbekiston jangovar va mehnat shon-shuhrati muzeylari keng tarqaldi.

Muzeylar qanday qilib paydo bo'ladi? Odatda izquvarlar otryadi faoliyati yoki solnoma yozish bo'yicha sermaxsul yaxshi tashkil etilgan ishlar natijasida yuzaga keladi. Bu holda muzey tashkil etish, klassik usulda olib boriladi: qidiruvlar mavzusi, qidiruv eksponatlar saqlash va namoyish etish uchun muzey tashkil etish. Muzey tashkilotchilari materiallarni saqlash, joylashtirish masalalarini xal etishlari kerak. O'quv yurti direktori bilan xona va jihozlar ajratish haqida kelishib olishlari lozim.

Tarbiyaviy ishlarda muzeyda saqlanayotgan materiallardan sifatli va samarali foydalanishda muzeyni pasportlashtirishni to'g'ri tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida hujjatli materiallarni va muzey materiallarini ishonchli saqlash asosida ro'yxatlar to'zish va to'g'ri foydalanishdan iborat.

To'plangan materiallar muzey fondini tashkil etadi va o'z raqami, aniq tarixiy sanasi, uning to'g'risidagi ma'lumotlar muzey qayd kitobiga yozib qo'yiladi. Qayd jurnali qoida talablari asosida olib boriladi.

Bundan tashqari muzey har bir materiali uchun uning raqami qo'yilib pasport tuziladi, unda ham kerakli ma'lumotlar qayd etiladi.

Shu bilan birga muzeyning umumiy pasporti ham tuziladi. Pasportning bir nusxasi muzeyda saqlanadi, qolganlari mahalliy davlat arxivi, rayon, shahar madaniyat bo'limlarida ishda foydalanish uchun yuboriladi.

O'quv yurti muzey tashkilotchilarining faoliyati materiallar to'plab va saqlashdangina iborat bo'lmaydi. Ko'rgazmalar qanchalik boy turli - tuman va qiziqarli bo'lishidan tashqari ularni mohirona va yorqin namoyish eta bilish kerak. Muzey vatanparvarlik, tarbiyaviy vazifadan tashqari estetik tarbiya berishi kerak. Shuning uchun muzeyni badiiy jihatdan bezatishga harakat qilish kerak.

Muzey ochilishi to'g'risidagi buyruq o'quv yurti direktori tomonidan tayyorlanib xalq ta'limi (shahar), tuman bo'limi tomonidan, rayon madaniyat bo'limi bilan kelishilib tasdiqlanadi.

## 2. Izquvarlik ishlarini olib borish. o'lka tarixini o'rganish.

Muzey qaysidir ma'noda har bir millatning, mamlakatning tarixi, madaniy-ma'naviy merosini aks ettiruvchi ko'zgidir. Yaxshi bilamiz, milliy istiqloq g'oyasining tarixiy ildizlari buyuk mutafakkir merosdan oziqlanadi. Dunyoga dong'i ketgan shundayin buyuklarimiz borki, ular nafaqat yurtimiz, balki dunyo xalqlari ma'naviyati, taraqqiyoti, jahon ilm-fani, madaniyati ravnaqi uchun ulkan xizmat qilishgan. SHuning uchun hali-hano'z buyuk ajdodlarimiz meroslarini o'zga yurtlarda ham asrab-avaylab, o'rganishmoqda. Xatto, boshqa mamlakatlar muzeylarida ular qoldirgan boy merosni ko'z-ko'z qilishmoqda. Ha, buyuklarimiz qoldirishgan ma'naviy xazini negizidan hali ko'p-ko'p gavharlar terishadi.

Muzeylarning madaniy-ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni borasida fikirlashsak, ma'lumki, muzey deganda tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-ma'rifiy muassasa tushiniladi. Mutaxassislarining

guvohlik berishicha, qadimda muzeylar tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarning memorial guvoynoma va estetik qimmatli narsa sifatida saqlanishi asosida yuzaga kelgan. Bunda miloddan avvalgi o'n oltinchi asrdagi Kritdagi Knos Saroy xazinasi, miloddan avvalgi o'n uch-un ikkinchi asrlarga taalluqli Vanlar saroyi va ink kohinlari arxivini qo'shish mumkin.

Mamlakatimizda o'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmida muzey tashkil eila boshlagan. Bugungi kunda O'zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston san'at muzeyi, O'zbekiston xalqlar madaniyati va san'ati tarixi muzeyi va san'ati tarixi muzeyi mamlakatimizdagi eng yirik ana shundayin muassasalardan sanaladi.

Muzey haqida Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yoshlarimiz kelishsin, ko'rishsin, qanday mashhur ajdodlari, zamondoshlari borligini bilishsin, ular bilan faxrlanishni, g'ururlanishni o'rgansin. O'z o'tmishini ulug'laydigan, bugunini e'zozlaydigan millatning ertangi kuni hamisha porloq bo'ladi». Mana, muzeylarimizning yosh avlodini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni, ahamiyati beqiyosdir.

Shuni e'tirof etish joizki, yurtimizning har bir go'shasidagi katayu kichik muzey millatimizning, xalqimizning yuksak dahosidan so'zlaydi. Mamlakatimizdagi har bir muzeyda o'zligimizga, boy tariximiz, ma'naviyatimizga xos boyliklarning, noyob eksponatlarning guvohi bo'lasiz.

Muzeylar sohasidagi siyosatni amalga oshirish, bu borada xalqaro aloqalarni, o'zaro samarali hamkorliklarni kengaytirish, O'zbekiston va xorijda kenng ko'rgazmalar o'tkazish yo'li bilan mamlakatimizning boy tarixi, ma'naviyati, bugungi yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, muzeylarimizga zamonaviy texnik vositalarni jalb etish hozirgi kunning dolzarb vazifalardan biridir.

### 3.Ekskursiya etakchilarini tayyorlash. Ekskursiyalarni tashkillash uslubiyoti. O'quv yurti muzeyi ishlarida ChQBT rahbarining roli.

Qidiruv ishlari muammolarini analiz qilish, bu chora - tadbirlar hayot talabi bilan yuzaga kelsa, yoshlar tashabbusi natijasida va tarbiyachi, ustoz va o'qituvchilar tomonidan qo'llab - quvvatlanib, mohirona yo'naltirilganda kerakli samarali natija beradi degan xulosaga olib keladi.

Bizning Respublikamiz turli viloyatlarida qidiruv, ekspeditsiya to'garaklari aniq amaliy ishlar olib borayotgan ishlari guvohi bo'lishimiz mumkin. To'plangan materiallar, ya'ni muzey fondi asosiy (haqiqiy yodgorliklar) va yordamchi materiallarga (sxema, maket, fotosurat, nusxalar) bo'linadi.

Haqiqiy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasi muzeylari fondiga kiritilib, maxalliy muzey inventar kitobida ro'yxatga olinadi. O'quv muassasa muzeylari har yili davlat muzeyini kelib tushgan hujjatlar, yodgorliklar haqida xabardor etib borishi shart.

Tarixiy qimmatga ega bo'lgan materiallar davlat muzeylariga saqlash uchun yuborilishi mumkin, davlat muzeyi bu material qimmatini qayd etilganligi to'g'risida hujjat topshirib, o'quv muassasaga haqiqiy o'rniga nusxa tayyorlab beradi.

Bunday hujjatlarni topshirish muzey ishiga o'ziga xos baho berish hisoblanadi. Muzeylar soni ko'payib borayapti. Bu masalaning boshqa tomoni ham bor, muzeylarni ishchi holatini doim saqlab turish kerak, ayniqsa tarixiy muzeylarni. Ularda kerakli sharoitni saqlab turish, jihozlar bilan ta'minlash lozim, bular moddiy mablag' talab etadi. Bunday muammolar deyarli hamma muzeylarda mavjud.

Ikkinchi muammo. Muzey materiallari anchagina yig'ilib qolgan va bir xonaga sig'dirib bo'lmaydi. Ba'zi muzey rahbarlari o'qituvchilarga muzey materiallarini foydalanish uchun o'quv kabinetlarida joylashtirishni taklif etadilar. SHunda mashg'ulotlar amaliy va tushunarli o'tishida o'qituvchilarga yordam bo'ladi. Umuman materiallar arxivda turib qolishi kerak emas - ulardan amaliy foydalanish zarur.

### 3. Ekskursiya etakchilarini tayyorlash. Ekskursiyalarni tashkillash uslubiyoti.

Muzey ishini tashkil etishda harbiy rahbarning va pedagogik jamoaning roli.

Ishning muvaffaqiyati asosan muzey rahbariga bog'liq bo'ladi. o' qidiruv ishlariga qiziquvchi hurmatli, tajribali inson bo'lishi kerak. Ana shunday inson bo'lsa – muzey ishlaydi,

agarda u yo‘q bo‘lsa muzey qog‘ozdagina mavjud bo‘ladi. Muzey rahbariga uning faollari katta yordam ko‘rsatadi:

- ular mavzu bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganib va boshqa manbalarni qidirib, ular asosida kerakli materiallarni to‘plash bilan shug‘ullanadilar;

- to‘plangan materiallarni o‘rganib ularni qayd etish va saqlashni ta‘minlaydilar;

- o‘quvchilar, ota-onalar, otaliq korxonalar ishchilari uchun ekskursiyalar tashkil etadilar;

- o‘qituvchilarga muzey materiallaridan, o‘quv jarayonida foydalanishda yordam beradilar;

- jamoat tashkilotlari, davlat muzeylari, mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limlarning topshiriqlarini bajarishda faol ishtirok etadilar.

Faollar ishning yaxshiroq tashkil etish maqsadida, muzeyda seksiyalar (bo‘lim, guruxlar) tashkil etilishi mumkin. Ularning soni va vazifalari muzey Kengashining umumiy yig‘ilishida tasdiqlanadi.

Muzey Kengashi – muzey rahbariga yordamchi jamoatchilik tashkiloti. Bu ishlarni o‘quvchilar umumiy yig‘ilishida saylanadigan 3-5 kishidan iborat muzey Kengashi yaxshi olib borishi mumkin. Muzey Kengashi ish rejalarini tuzadi, urush va mehnat faxriylari, ishlab – chiqarish ilg‘orlari, jamoat arboblari, fan arboblari va yozuvchilar bilan o‘quvchilar uchrashuvlarini tashkil etadi. Muzeyga pedagogik ishlar bo‘yicha rahbarlik sinfdan va o‘quv muassasadan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi va alohida pedagoglar tomonidan olib boriladi.

O‘quv muassasa muzeyiga yordam uchun rdam kengashlari to‘zilishi mumkin. Ularga o‘qituvchilar, davlat muzeylari vakillari, ota-onalarni kiritish mumkin. Yordam kengashi o‘quv muassasa muzeyiga ilmiy tashkilotlar, davlat muzeylari shahar, rayonning boshqa o‘quv muassasa muzeylari bilan aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

Muzeyning ish samarasi ko‘p jihatdan unda ma‘ruzalar o‘tkazish ishlari qanday tashkil etilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Muzey xodimlari seminar kengashida so‘zga chiqib xalq ta‘limi Ministri shunday deydi: "Bizning o‘quv muassasalarimizda ko‘pgina turli muzeylar borligi juda yaxshi. Ularning soni 800 tadan ko‘proq. Lekin ularning hammasi ham ta‘lim – tarbiya jarayoniga xizmat qilayaptimi? Bu har doim ham shunday emas. O‘quvchilar muzeyning qidiruv faoliyatlariga faol jalb etilyaptimi? Afsuski har doim ham emas. Muzeylarda darslar o‘tkazilyaptimi? Qaerdadir o‘tkazilsa, qaerdadir o‘tkazilmayapti. Ba‘zan umuman o‘quv muassasa muzeyiga kirib bo‘lmaydi, u har doim top toza, tartibga solingan va har doim qulflangan – muzey xuddi o‘quvchilar uchun emas, faqatgina mehmonlar yoki komissiya uchundek, bizda muzey bor deb maqtanish uchun tashkil etilgan. "Muzeyda bolalarning jaranglagan ovozi eshitilmasa – bu muzey emas, bu jonsiz eksponat, uning rahbari – tarbiyachi emas, balki qotib qolgan xaykal".

Muzeylarda lektorlar, ekskursiyachilar, to‘garaklari ishlashi mumkin va shart, uning ko‘rgazmalaridan esa o‘quv mashg‘ulotlari va turli harbiy vatanparvarlik chora-tadbirlarini o‘tkazishda foydalanish kerak.

Ayniqsa lektor ekskursiyalari faoliyati juda muhimdir. Mamlakatimiz tarixi bo‘yicha to‘plangan materiallarni o‘rganish, davlat arxivlari, kutubxonalarini mutaxassislari bilan maslahatlar, bular hammasi ularga muzey bo‘yicha qiziqarli va mazmunli ekskursiyalar tashkil etish va o‘tkazish uchun yordam beradi.

Misol tariqasida, Samarqand shahridagi 1-maktabdagi muzeyida lektor – ekskursiyachilar guruhida 20dan ortiq mutaxassis tayyorlangan, ya‘ni X-XI sinflarning faol o‘quvchilardan tashkil topgan. Muzeyning jamoatchi rahbari boshchiligida bolalardan har biri ko‘rgazma bo‘limlaridan biri bo‘yicha ish olib borib, bo‘lim fondi va materiallarini o‘rganib chiqib, ekskursovodlik bo‘yicha yozma tekst, hikoya, ekskursiya o‘tkazish metodikasini tuzgan. Shu tayyorgarliklarni ko‘rgan rahbariyat tomonidan ularga mustaqil faoliyat yuritishlariga ruxsat berilgan va ularga ekskursovod guvohnomasi va ko‘krak nishoni topshirilgan.

Bunday jiddiy tayyorgarlik ishlari muzey ekskursiyalari jonli va qiziqarli o‘tishiga yordam beradi. Faqatgina muzeyning birinchi yil ishlashi davomida 3 ming kishi kelib, ulardan hech biri muzey ko‘rgazmalariga befarq qolmagani, ijobiy ishlarning natijasidan dalolat beradi.

## Mavzu-10/1: "Harbiy sport o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish".

Reja:

O'quv maqsadlar:

1. Talabalarga "**Temurbek izdoshlari**" harbiy-sport o'yinlarining yoshlarning HVT dagi tarbiyaviy ahamiyati bo'yicha tushuncha berish.
2. Talabalarga o'quv yurti ma'muriyati, ChQBT rahbarining harbiy-sport o'yinlarini tashkillashdagi vazifalarini tushuntirish.
3. Talabalarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O'quv savollari:

1. «Temurbeklar» harbiy-sport o'yinlarining yoshlarning HVT dagi tarbiyaviy ahamiyati.
2. O'quv yurti ma'muriyati, ChQBT rahbarining harbiy-sport o'yinlarini tashkillashdagi vazifalari.
3. "**Temurbek izdoshlari**" harbiy-sport o'yinlarini tashkillashda homiy tashkilotlarning roli.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: : ma'ruza

O'tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta'minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko'rgazmali qurollar va mashg'ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida". T- 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida Nizom. T.: 2006.
4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig'ining buyruq va direktivalari.

1. «Temurbeklar» harbiy-sport o'yinlarining yoshlarning XVT dagi tarbiyaviy ahamiyati.

O'quv yurtlarida harbiy va harbiy Vatanparvarlik ishlari uslublari samarali bo'lishi uchun harbiy ishlar asoslari va harbiy-amaliy sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etish, hamda turli hil va mazmundagi harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish muhim rol o'ynaydi.

Harbiy-sport o'yinlari harbiy hizmatga tayyorlash bo'yicha o'quv-tarbiya jarayonini sifat va samarasini oshirish yo'nalishidagi, yoshlarni sog'lomlashtirish masalalarini hal etish va davlat dasturlarini amalga oshirish asosiy vositasi sifatida asosiy yo'nalish deb qaraladi.

Hozirgi kunlarda Mudofaa vazirligi tomonidan Xalq ta'limi, «Yoshlar ittifoqi», «Nuroni» jamg'armalari, manfaatdor vazirlik va tashkilotlar, hokimiyatlarning faol ishtirokida o'tkaziladigan "**Temurbek izdoshlari**" harbiy-sport o'yinlari o'quvchilar o'rtasida ommaviy hisoblanadi.

So'nggi yillarda bu harbiy-sport o'yinlarida o'quv yurtlaridan yo'z mingdan ortiq o'quvchilar ishtirok etishdi.

Respublika harbiy litseylari o'quvchilari o'rtasida «Amir Temur avlodlari» harbiy-sport o'yinlari o'tkazish har yilgi odatga aylangan.

Ana shu harbiy-sport o'yinlari qatorida Respublika o'quv yurtlarida harbiy-sport bayramlari, harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlar spartakiadalari, o'quv yurtlari o'rtasidagi o'rtoqlik uchrashuvlari kabi musobaqa turlari ham keng tarqalmoqda.

Ushbu ma'ruzamizda biz "**Temurbek izdoshlari**" harbiy-sport o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni ko'rib chiqamiz.

Sport bilan shug'ullanib yoshlar o'zlarida jasorat, dovyuraklik, iroda, dadillik kabi Vatan himoyachisi uchun juda zarur sifatlarni shakllantiradilar. Yoshlarni jismoniy va harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy-sport o'yinlari harbiy-amaliy sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish muhim o'rin tutadi. Bundan maqsad o'quvchi-yoshlarni o'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatga tayyorlashni takomillashtirish, ularda Vatanparvarlik hissi, o'z xalqi, milliy tarixiy an'alarini hurmat qilishni tarbiyalash va Vatanni himoya qilishga doim tayyor bo'lishlarini ta'minlash. Musobaqalar qoidasi bo'yicha bosqichlari, muddati, tashkilotchilari, komandalar tarkibi va shu kabilar belgilanadi.

### **"Temurbek izdoshlari"** harbiy – sport Musobaqalari Nizomi

O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi ijroiya Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi kollegiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi kollegiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi kollegiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Jismoniy tarbiya va sport Qo'mitasi kollegiyasi, O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi boshqaruvi. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi kollegiyasi. Mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Markaziy Kengashi rayosati, O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rayosati, O'zbekiston Davlat Teleradiokompaniyasi kollegiyasi, O'zbekiston Faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamqarmasi boshqaruvining umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari va o'rta maxsus kasb-hunar talimi tizimidagi talabalarni harbiy vatanparvalik ruhida tarbiyalash, o'smirlarni Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatga va harbiy bilim yurtlariga o'qshga kirishlariga tayyorlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida "**Temurbek izdoshlari**" harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi

#### QO'SHMA QARORI

Respublikamiz o'quvchi-yoshlarini Qurolli Kuchlar saflarida harbiy xizmatga va oliy harbiy bilim yurtlariga kirishga tayyorlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, o'zaro madaniy-sport aloqalarni yo'lga qo'yish, yoshlarni sport musobaqalariga ommaviy tarzda jalb qilish maqsadida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Mudofaa, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Sog'liqni saqlash vazirliklari, Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, «Nuroni» jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Teleradiokompaniyasi

#### QAROR QILADILAR:

1. Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi talabalar o'rtasida muntazam ravishda har yili "**Temurbek izdoshlari**" harbiy-sport musobaqalari o'tkazilsin.

2. Musobaqalarning barcha bosqichlari o'tkazilishi mobaynida sport musobaqalari bilan bir qatorda o'quvchi va talabalarining badiiy havaskorlik jamoalari, respublikaning taniqli san'atkorlari ishtirokida madaniy dasturlar uyushtirilishi belgilab qo'yilsin.

Musobaqalarning quyi bosqichlari Nizomda belgilangan muddatlarda Respublikaning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi yuqori sinf o'quvchi-talabalar o'rtasida har yili o'tkazilishi, Respublika final bosqichi esa navbat bilan bir yil Xalq ta'limi vazirligi tizimi maktab o'quvchilari, ikkinchi yil o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi talabalar o'rtasida o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

Qo'shma qarorni imzolovchi vazirlik (tashkilot)larning tegishli boshqarma va bo'linmalari zimmasiga musobaqalar o'tkazilishida belgilangan vazifalarni (1-ilova) amalga oshirish vazifalari

topshirilsin.

Turnirning Nizomi 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

Musobaqani tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha Respublika tashkiliy ko'mitasi a'zolarining tarkibi tasdiqlansin, Tashkiliy qo'mitaga vazirlik va tashkilotlardan a'zo bo'lib kirgan xodimlar o'z tizimlarida musobaqalarni o'tkazish bo'yicha mas'ul ekanligi eslatib o'tilsin. Har bir viloyatda tashkiliy qo'mita tuzilib, ular har bir bosqichning o'tishi to'g'risida Respublika tashkiliy qo'mitasiga axborot berib borsinlar.

Viloyat tashkiliy ko'mitasi tomonidan musobaqalarning yakuniy final bosqichiga keladigan viloyat jamoasining kelib-ketish harajatlarini qoplash hokimliklardan so'ralsin.

O'zbekiston Davlat Teleradiokompaniyasidan turnirning Respublika yakuniy bosqichiga loy qolgan muddatda tegishli reklama roliklarini tayyorlab, berib borish so'ralsin hamda qarorni imzolovchi barcha vazirlik va tashkilotlarga o'z kanallari, nashrlari orqali musobaqalarni keng yoritib borish vazifasn topshirilsin.

10. Qarorning bajarilishini va joylardagi tuzilmalarga etkazilishini ta'minlash mazkur vazirlik va tashkilotlarning tegishli bo'limlari zimmasiga yuklatilsin.

2. O'quv yurti maomuriyati, ChQBT rahbarining harbiy-sport o'yinlarini tashkillashdagi vazifalari. **"Temurbek izdoshlari"** harbiy-sport o'yinlarini tashkillashda homiy tashkilotlarning roli.

#### TAQSIMLANISHI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

Musobaqa davomida o'tkaziladigan musobaqalar ishtirokchilarini o'q-dori va boshka harbiy anjomlar, yotoq joyi bilan ta'minlaydi.

Musobaqa davomida o'tkaziladigan Musobaqalarda ishtirokchilar, murabbiylar va hakamlar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalk a'limi vazirligi

Vazirlik barcha tizimlari o'quvchilarini musobaqalarga ommaviy ravishda jalb etadi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilarni sport kiyimlari va anjomlari bilan ta'minlaydi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilar va murabbiylar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

• Musobaqalar davomida tibbiyot xodimlari, tez tibbiy yordam mashinalari va dori-darmonlar bilan ta'minlaydi.

O'zbekistoi Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi,

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi

Talabalarni musobaqalarga ommaviy ravishda jalb etadi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilarni sport kiyimlari va anjomlari bilan ta'minlaydi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilar va murabbiylar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi

• Musobaqalar davomida ishtirokchilar, murabbiylar va hakamlar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi

• Musobaqalar davomida ishtirokchilar va murabbiylar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti

Musobaqa davomida o'tkaziladigan yozgi biatlon musobaqalari bo'yicha ishtirokchilarini sport anjomlari bilan ta'minlaydi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilar va murabbiylar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi

• Musobaqalar davomida ishtirokchilar va murabbiylar uchun sovg'alar ajratadi.

O'zbekiston Davlat Teleradiokompaniyasi

• Musobaqaning barcha bosqich musobaqalarini, Respublika final bosqichini yoritib boradi.

• Respublika final bosqichi ochilishiga bir oy muddat qolganda turnir haqida reklama roliklari tayyorlab, berib boradi.

«Nuroni» jamg'armasi

- Musobaqa davomida o‘tkaziladigan musobaqalarda ishtirokchilar, murabbiylar va xakamlar uchun sovg‘alar ajratadi.

2- ilova

## **"Temurbek izdoshlari" harbiy-sport musobaqasi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

O‘zbekiston yoshlarining Respublika **"Temurbek izdoshlari"** harbiy-sport musobaqasi chaqiruv mavsumigacha bo‘lgan asosiy va zarur ommaviy-mudofaa ishlari qatoriga kirib, umumiy ta‘lim o‘rta maktablari, litsey, gimnaziya, kasb-hunar ta‘limi o‘quv yurtlari o‘kuvchi-talabalarining jismoniy tayyorgarliklarini yaxshilashga va ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

1. **"Temurbek izdoshlari"** musobaqasining maqsadlari.

Musobaqaning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash, o‘smirlarni Respublika Qurolli Kuchlari safidagi xizmatga va harbiy bilim yurtlariga o‘qishga kirishiga tayyorlash;
- o‘quvchilar tomonidan O‘zbekiston xalqlarining va Qurolli Kuchlarining shakli, tarixini o‘rganish, ajdodlarning boy an‘analari ruhida tarbiyalash;
- yoshlarda mardlikni, qatiyatlilikni, kuch-g‘ayratni, intizomni, jamoatchilikka tayanishni tarbiyalash;
- sog‘lom avlodni tarbiyalash;

**"Temurbek izdoshlari"** musobaqasini tashkil qilish.

Har o‘quv yilining boshida har bir sinfda va bo‘limda o‘quvchilarning **"Temurbek izdoshlari"** musobaqasida ishtirok qilishi uchun bo‘linmalar tashkil qilinib, ularning orasidan boshqaruvchilar tarkibi saylanadi:

Bo‘linmadagi boshqaruvchilar tarkibi armiya yoshigacha bulgan o‘quvchi-talabalarning harbiy tayyorgarliklarga bo‘lgan bilimini mustaxkamlab boradilar va davriy harbiy varaqa chikarishni yo‘lga ko‘yadilar.

Har bir maktabda, bilim yurtida **"Temurbek izdoshlari"** musobaqalarida ishtirok etish uchun bo‘linmalar tashkil qilinadi. Bo‘linma umumiy yig‘ilishida komandirlar hamda shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha komandir o‘rinbosarlari, shtab boshlig‘i va shtab a‘zolari saylanadilar.

Bo‘linma boshliqlari tarkibi har oyda bir marotaba harbiy varaqa muharrirlarining o‘kishini tashkil qilib turadilar hamda **"Temurbek izdoshlari"** Musobaqalarining o‘tishini ta‘minlaydilar va har oyda devoriy gazetalar chiqarilishini yo‘lga qo‘yadilar

**Mavzu-11/1: "Harbiy qismlarda bo‘lish va harbiy xizmatchilar hayoti bilan tanishishni tashkil etish va o‘tkazish".**

Reja:

O'quv maqsadlar:

- 1.Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy qismlariga tashrif buyurish va ulardagi harbiy mutaxassislik yo'nalishlari bilan tanishish qoidalarini o'rgatish.
- 2.Talabalarni harbiy bilim yurtlariga qabul qilish qoidalari bilan tanishtirish.
- 3.Talabalarga ChQBT rahbarini harbiy bilim yurtlariga nomzodlar tayyorlash bo'yicha ishlari tartibi bilan tanishtirish.
- 4.Talabalarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O'quv savollari:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy qismlariga tashrif buyurish va ulardagi harbiy mutaxassislik yo'nalishlari bilan tanishish.
- 2.Harbiy bilim yurtlariga qabul qilish qoidalari.
- 3.ChQBT rahbarini harbiy bilim yurtlariga nomzodlar tayyorlash bo'yicha ishlari.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: : ma'ruza

O'tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta'minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko'rgazmali qurollar va mashg'ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida". T- 2002.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
- 3.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida Nizom. T.: 2006.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig'ining buyruq va direktivalari.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy qismlariga tashrif buyurish va ulardagi harbiy mutaxassislik yo'nalishlari bilan tanishish.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz jarayon bo'lib, oila, maktab, mahallalarda, Qurolli Kuchlar safida xizmat davomida amalga oshiriladi.

O'quvchi yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, nafaqat o'quv yurti harbiy rahbari, o'qituvchilari, balki keng jamoatchilikning, ota - onalarning ham majburiyati. Bu ish uchun tuman, shahar mudofaa ishlari bo'limlari, «Vatanparvarlik» MKB, otaliq harbiy qismlar va harbiy bilim yurtlari ham mas'ul. Ushbu ma'ruzada biz o'quvchi yoshlarning harbiy qismlarda bo'lishining, ularda Qurolli Kuchlar safida xizmat uchun zarur sifatlarni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Xalq ta'lim vazirligining 1994 yil 10 yanvardagi buyrug'i bilan kuchga kirgan. «O'zbekiston Respublikasi o'smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash haqidagi» nizomda quyidagi fikrlar va so'zlar yoziladi:

12- modda: Garnizon boshliqlari buyruq bilan o'quv muassasalarini harbiy qismlar, harbiy bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlari harbiy kafedralariga yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlash va harbiy vatanparvarlik ishini olib borishni mustahkamlaydi.

13- modda: harbiy qism komandirlari, harbiy bilim yurtlari boshliqlari, oliy o'quv yurti harbiy kafedra boshliqlari:

- jangovar tayyorgarlik a'lochilarining yoshlar bilan uchrashuvlarini tashkil etadi;
- yoshlarni shaxsiy tarkib bilan joylashtirilishi va hayoti, qurol- yarog' va harbiy texnika bilan tanishtiradi;

- harbiy otish joylari, o'quv maydonlari, sport shaharchalarini mashg'ulotlar o'tkazish uchun taqdim etadi;

- otaliq yordami tartibida ofitser va serjantlarni avtomatdan jangovar patronlar bilan otish uchun ajratadi, qurol, o'q-dori va imitatsiya vositalarini taqdim etadi;

- mudofa ishlari bo'limlari va xalq ta'lim boshqarmasi harbiy rahbarlari bilan metodik ishlarni o'tkazish, chaqiriqqacha tayyorlash, harbiy vatanparvarlik va jismoniy tarbiya moddiy - o'quv bazasini takomillashtirishda yordam ko'rsatadi.

Harbiy shaharcha elementlari: shtab, kazarma, plats, jangovar mashinalar parki, klub, oshxona.

Harbiy qismda bo'lish harbiy rahbar tomonidan o'quv yili boshida rejalashtiriladi va harbiy qism bilan muvofiqlashtiriladi. Mazkur reja harbiy qism va o'quv yurti rahbari tomonidan tasdiqlanib, unda jumladan, qismda bo'lish vaqti belgilanadi.

Harbiy qism va o'quv yurti hamkorligidagi ishlarining rejasi hamda namunasini ko'rib chiqamiz.

«Tasdiqlayman»  
00000-harbiy qism komandiri  
mayor \_\_\_\_\_A.Karimov  
«» avgust 2020 y

«Tasdiqlayman»  
000-maktab direktori  
\_\_\_\_\_E.Mansurov  
«» avgust 2020 y

00000-harbiy qism va 00-maktab  
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yuzasidan hamkorlikdagi  
REJASI.

t/r	Tadbir	Sana	O'tkazish joyi	Mas'ul shaxs
1.	Harbiy xizmatchilar turmushi, qurol - yaroq va texnika bilan tanishtirish.	Oktyabr	Harbiy qism	Harbiy rahbar
2.	Qism tashkil etilgan sanaga bag'ishlab badiiy havaskorlik qatnashchilarining jangchilar oldida chiqishi.	noyabr	Harbiy qism.	direktor muovini
3.	O'quvchilarga o'quv moddiy bazasini yaratish va takomillashtirishda yordam ko'rsatish.	doimiy	o'quv yurti	1-MO'B komandiri
4.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tashkil etilgan sanaga bag'ishlangan tantanali kecha.	yanvar	o'quv yurti	Tarbiyaviy ishlar bo'yicha bo'yicha komandir o'rinbosari va direktor muovini
5.	Harbiy qasamyod kuni jangchilarni qutlash, badiiy havaskorlar chiqishi	iyun	Harbiy qism	Harbiy rahbar
6.	O'quvchilarning harbiy shaharchani obodonlashtirishda ishtiroki.	mart	Harbiy qism	1-MO'B komandiri bilan va direktor muovini
7.	CHQBT kursi tugallanishiga bag'ishlangan harbiy - sport bayramida hakam sifatida ishtirok etish.	aprel	O'quv yurti	Harbiy rahbar
8.	Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab ofitserlarning o'quvchilar bilan suhbat.	may	O'quv yurti	Tarbiyaviy ishlar bo'yicha bo'yicha komandir o'rinbosari va direktor muovini

Hamkorlikdagi rejani h.q. komandirining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari va o'quv yurti harbiy rahbari tuzadi va imzolaydi.

Rejadan ko'rinib turibdiki, hamkorlikdagi tadbirlar maqsadi- o'quvchilarni harbiy qism tarixi, jangovar texnika va qurol- yaroq bilan tanishtirish, tantanali yig'ilishlarni O'zbekiston

respublikasi va Qurolli Kuchlar bayramlariga bag'ishlab o'tkazish, birgalikdagi sport musobaqalarini tashkil etish. Uquvchilar jangchilar oldida konsertlar bilan chiqadilar, harbiy shaharchani obodonlashtirishda ishtirok etadilar.

Bu kabi hamkorlik o'quvchi yoshlarni, jangchilarni harbiy Vatanparvarlik, baynalminallik, xalq an'ana va huquqlarini hurmat qilish, ogohlik, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi qurolli himoyasiga tayyorgarlik ruhida tarbiyalashda ko'maklashadi.

Harbiy qismda bo'lishni tashkil etish metodikasi bilan batafsil tanishamiz. Harbiy qismda bo'lish o'quvchilarni harbiylar hayoti, jangovor texnika va qurol- yarog', jangovar va ijtimoiy - siyosiy tayyorgarlik, qorovul xizmati tashkil etilishi bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi.

Harbiy qismda bo'lishdan avval harbiy rahbar o'quvchilarni ichki xizmat nizomining jangjilarni joylashtirish, harbiy shaharcha elementlari bilan tanishtiradi, sayohat davomida qism shtabi, kazarmalar, plats, jangovar va maxsus mashinalar parki, klub, oshxona, qorovul va otish shaharchalari, sport shaharchasi, sinflarda bo'linadi.

Harbiy qism shtabi.

Shtab binosida quyidagilar joylashtiriladi:

1. Koridorda (kiraverishda) Harbiy Qism jangovar bayrog'ini saqlash joyi. Jangovor bayroq doimo qorovul tomonidan qo'riqlanadi.

Bu 1-raqamli post bo'lib, unga faqat jangovar va ijtimoiy- siyosiy tayyorgarlik ilg'orlari tayinlanadi. Jangovar bayroq postda ordenlar va orden lentalari bilan o'ralgan holda va g'ilofda, gerbli pechat bilan muhrlangan holda saqlanadi. U tik turgan holatda joylashtirilishi kerak.

Jangovar bayroqli postda Mudofaa vazirligining jangovar jasorat va mardlik uchun vimpel va pul qutisi saqlanishi mumkin.

2. Harbiy Qism bo'yicha navbatchi xonasi.

Harbiy qism bo'yicha navbatchilikka ofitserlar, ya'ni kamida vzvod komandirlari tayinlanadi.

Navbatchi xonasida qism shtabi ofitserlari qurollari saqlanadigan shkaf joylashtiriladi. Navbatchi xonasida navbatchi yoki uning yordamchisi doimiy bo'lishi shart. Alohida topshiriqlar uchun shtab bo'yicha navbatchi va chopar tayinlanadi.

3. Qism qo'mondonligi xonalari: komandir, uning o'rinbosarlari, xizmat boshliqlari, mahfiy qism, XFU (xizmat uchun foydalanish) kutubxonasi.

#### **Kazarma.**

Odatda batalon bir kazarmada joylashadi. Tegishli bino mavjud bo'lmasa, batalon bir necha binoda vzvodlab joylashishi mumkin.

Har bir vzvod joylashtirilishi uchun quyidagi xonalar ko'zda tutiladi.:

- siysiy-ommaviy va ma'daniy-ma'rifiy ishlarni o'tkazish xonasi;
- vzvod kanselyariyasi (ya'ni devonxonasi):
- qurol-yarog' saqlash xonasi:
- vzvod mulki va harbiy xizmatchilar shaxsiy buyumlari saqlanadigan xona:
- yuvinish xonasi:
- qurol tozalash xonasi:
- poyavzal tozalash va chekish xonasi:
- maishiy xizmat xonasi:
- kiyim va poyavzal quritish xonasi:
- shahsiy bo'lim uchun maxsus xona.

#### **Yotoqxona.**

Shaxsiy tarkibni yotoqxonaga joylash uchun har bir harbiy xizmatchi uchun 2,5 – 4m<sup>2</sup> maydon ajratiladi. Bunda havo xajmi bir odamga 9-12m<sup>3</sup> dan kam bo'lmasligi kerak.

Yotoqxonada krovatlar shunday joylashtiriladiki, har biri yoki har ikki yonma-yon krovat oldida tumbochkalar uchun joy qolsin, krovatlar qatori orasida shahsiy tarkib saflanishi uchun zarur bo'sh joy bo'lishi kerak. Krovatlar tashqi devorlarga 50 sm yaqinlashmay, bir tekis joylanadi.

Krovatlar bir yoki ikki yarusda joylashtirilishi mumkin. Xizmat ko'rsatgan MV buyrug'i bilan vzvod ro'yxatiga kiritilgan harbiy xizmatchilar uchun yoki fahriy soldatlar uchun yotoqxonaning

ko‘rinarli erida krovat o‘rnatilib, doimiy ravishda namunali holatda saqlanadi. Krovat yoniga Qahramon portreti, jasorati bayoni bitilgan taxtacha osib qo‘yiladi.

Krovat oldi tumbochkasi shaxsiy fodalanish uchun buyumlar, romolchalar, yoqa va boshqa yuvinish vositalari uchun mo‘ljallangan. Daftar va kitoblar ham saqlanishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarni o‘rin-ko‘rpasi, adeyal, choyshab, jiltli yostiq va matrasdan iborat. O‘rin- ko‘rpa bir hilda yig‘ilishi shart. O‘ringa kiyim va poyafzal bilan yotishi mumkin emas. Tegishli buyumlar saqlanadigan setkalar, temir shlemlar va shaxsiy yorog‘lar, protivagazlardan tashqari, yotoqxonada shkafda yoki stelajlarda saqlanadi (krovat to‘ri ostiga osib qo‘yilishi mumkin). Shaxsiy tarkib quroli qurol-yaroq saqlash xonasida saqlanadi. Xona eshigi elektrtovushli signalizatsiya bilan jihozlanadi, ko‘rish darchasi mavjud bo‘lib va ichkariga ochiladi. Derazalarda temir panjaralar bo‘ladi. Umivalniklar (yuvinish muolajasi) 5-7 kishiga 1 ta jo‘mrak va vzvodga kamida 2 ta oyoq yuvish vannasi hisobidan o‘rnatiladi.

Maishiy xizmat xonasi kiyim dazmollash stollari bilan jihozlangan va zarur miqdorda dazmol, shuningdek, soch olish, kiyim, poyafzallar mayda ta‘miri uchun zarur asbob va uskunalar qaychilar bilan ta‘minlandi.

Harbiy xizmatchilarning barcha buyumlariga ularning harbiy bileti raqami qo‘yiladi. Vzvod binosi hech vaqt qo‘riqsiz qoldirilmaydi. Shu maqsadda vzvod bo‘yicha naryad, vzvod bo‘yicha navbatchi va 3 ta posbon tarkibida tayinlanadi. Sutkali nyaradga vzvod qurol- yaroq‘i va mulki, shaxsiy tarkibni tungi vaqtda quriqlash, shuningdek vzvod binosi va tegishli hududda tartibni saqlash yuklanadi.

#### **Saf maydoni.**

Bu Harbiy qism saf tortishi, turli tadbirlar, harbiy marosimlar, saf tayyorgarligi mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun joydir. Saf maydoni quyidagi elementlar bilan jihozlanadi: minbar, saf maydoni atrofida asosiy saf usullari: qurol bilan va qurolsiz safda harakatlanish, joyda va harakatda burilishi: shuningdek, kiyim kiyish, orden va medallarni parad kiyimida joylashtirish va sh.k. namunalari aks etgan taxtalar o‘rnatilgan.

Umumharbiy nizomlarga asosan Saf maydonida yakka saf tayyorgarligi uchun chizmalar qilinadi.

#### **Jangovar va maxsus mashinalar parki.**

Park deb tank, avtomobil, artilleriya va boshqa texnikani saqlash, xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun jihozlangan hududga aytiladi.

Mashinalar, boshqa texnika kabi yopiq xonalarda yoki naves ostida saqlanadi. Parkda park bo‘yicha navbatchi xonasi, nazorat texnik punkt, harakat havfsizligi va haydovchilarga yo‘riqlar ko‘rsatish, mashina kattalari instruksiya xonalari, yuvish va tozalash punktlari, texnik ko‘rik va ta‘mirlash punkti, texnikaga xizmat ko‘rsatish va bino tashqarisidagi joriy ishlar uchun zarur boshqa xona (joy) lar jihozlanadi.

Mashinalar parkdan avvalda tasdiqlangan naryad bo‘yicha chiqariladi. Har bir mashinaga ofitser, praporshik, serjantlardan katta (mas‘ul) tayinlanadi. Park qorovul himoyasida bo‘ladi va tartibni saqlash uchun navbatchi va soqchilar tayinlanadi. SHahsiy tarkib parkka ish va mashg‘ulotlar uchun qat‘iy tarzda ofitser, praporshik yoki serjantlar boshchiligida qo‘yiladi.

Mashina ekipaj (haydovchi) lari parkka mashinani olib kirish uchun yo‘l varaqasi taqdim etilgach qo‘yiladi.

#### **Oshxona.**

Soldat va serjantlar oshxonaga toza kiyim va poyafzald, vzvod starshinasi yoki vzvod komandiri o‘rinbosarlaridan birining qat‘iy boshchiligida kelishi shart. Har bir vzvod uchun joy ajratilgan. Stol 4-10 kishiga tuzatiladi. Oshxonada ovqat chog‘ida tartib saqlanishi shart. Ovqatni bosh kiymda, shinel va ishchi kiyimlarda o‘tirib eyish man etiladi.

Ovqat tarqatishdan avval vrach (feldsher), harbiy qism bo‘yicha navbatchi bilan uning sifati shuningdek, oshxona, idish-tovoq va anjomlar sanitar holatini tekshirishi shart. Bundan tashqari ovqat har kuni harbiy qism komandiri yoki o‘rinbosarlaridan biri tomonidan tekshiriladi.

Jagovar tayyorgarlikni tashkil etish, otish shaharchasi. O‘quv sinflari.

O'quv mashg'ulotlari va mashqlarda harbiy qism butun shahsiy tarkib bilan bo'lishi shart. Mashg'ulotlardan faqat naryadda bo'lgan, harbiy qism bo'yicha buyriqda ko'zda tutilgan shaxslar ozod qilinadi. Tashqaridagi mashg'ulotlardan sog'liliga ko'ra ozod etilgan soldat va serjantlar bilan vzvod komandiri yoki boshliqlar buyrug'i bilan sinfda mashg'ulot tashkil qilinadi. Mashg'ulotlar kun tartibida ko'zda tutilgan vaqtlarda signal bo'yicha boshlanadi va tugatiladi. Mashg'ulotga chiqish oldidan bo'linma komandirlari va vzvod komandiri o'rinbosarlari qo'l ostidagilarni ko'zdan kechiradi.: kiyim qoida bo'yicha kiyilganmi, aslaha to'g'ri mustahkamlanganmi, qurol o'qlanmaganmi?

Mashg'ulotlar, otish va mashqlar tugagach bo'linma komandirlari barcha qurol, jangovar va boshqa mashinalar mavjudligi va komplektligini, otish qurollari, o'q - dori va o'quv priborlari mavjudligini shaxsan tekshirishi shart.

Qurol va magazin sumkalari bo'linma komandirlari tomonidan tekshiriladi. Mashg'ulot, otish va mashqlar tugagach qurol va tank aslahasi tozalanadi, mashinalarga texnik xizmat ko'rsatiladi.

Harbiy qism bo'yicha buyruq bilan belgilangan kunlarda bo'linmalarning mashg'ulotga chiqishi va qaytishi ofitser bilan birga olib boriladi. Har haftada qismda park xo'jalik kuni o'tkazilishidan maqsad qurol, jangavor va boshqa texnikaga xizmat ko'rsatiladi, parklar, o'quv moddiy baza ob'ektlari jihozlanadi va obodonlashtiriladi, harbiy shaharcha tartibga keltiriladi va boshqa ishlar amalga oshiriladi. Jangovar tayyorgarlik bo'yicha barcha mashg'ulotlar maxsus ajratilgan joylarda o'tkaziladi: sinflar, otish shaharchasi, sport shaharchasi, stadion, otish joyi, taktik maydon, o'quv xonasi, saf maydonchasi.

Otish shaharchasi turli holatdan paydo bo'luvchi harakatdagi nishonga otishni aniq qilish, to'g'ri otishga o'rgatish, qo'l granatalari va tankka qarshi granatalarni uzoqqa va aniq otish, o'q otar qurolni tekshirish va uni normal holatga keltirish uchun joylar bilan jihozlanadi. Sinflarda dars o'tiladi. Trenajerlarda otish usul va qoidalari, ichki va tashqi balistika asoslari, havo sharoitida o'qning havoda parvozigiga ta'siri, mashq bajarish shartlari va boshqalar o'rganiladi.

Rejada belgilangan kunda batalon harbiy otish joyiga barcha o'q otar qurol va granatometdan amaliy otishlari o'tkazish uchun keladi. Taktik tayyorgarlik mashg'ulotlari vzvod va vzvod tarkibida maxsus ajratilgan joy, uchustka, taktik maydonda o'tkaziladi. Mashg'ulotlar texnika qo'llab yoki piyoda tartibda o'tkazilishi mumkin. Vzvod shahsiy tarkib, shuningdek jangovar otishli vzvod mashqlari batalon, brigada va boshqa mashqlarda yuqori boshliqlar rejasiga muvofiq ishtirok etadi.

BMP (PZM) va BTR haydovchilari vzvod texnika boshchiligida trenajyor o'quv mashinalarida shug'ullanadilar. Haydov malakalarini avtodromlarda oshiradilar.

Jangovar va ijtimoiy – siyosiy tayyorgarlik rejasida qator boshqa predmetlar: ommaviy qir'in qurollari va undan himoyalani, saf va jismoniy tayyorgarlik, harbiy muxandislik va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, O'QN va boshqa o'rganishlar ko'zda tutilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashqlarida quyidagi vazifalar hal etiladi: shahsiy tarkibni O'zbekiston Respublikasiga, o'z xalqiga va harbiy qasamyodga sodiqlik, harbiy burchga sadoqat, yuksak jangovar va ahloqiy psixologik sifatlar, shuningdek Vatan tarixi va san'atlariga xurmatni shakllantirish, harbiy xizmatchilarni O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prezident farmonlarini, Oliy Majlis va hukumat qarorlarini, komandirlar buyruqlarini so'zsiz bajarish ruhida tarbiyalash;

- yuksak harbiy intizomni saqlash, uni mustahkamlash bo'yicha amaliy choralarni ishlab chiqish va realizatsiyalash. SHahsiy tarkib orasida huquqbuzarliklarning oldini olish; harbiy xizmat havfsizligiga zarur sharoitlarni ta'minlash, o'lim va jarohatlarning oldini olish.

- shahsiy tarkibni Vatanparvarlik, ogohlik va poklik, xizmat vazifalarini bajarishda sobitlik ruhida tarbiyalash.

### **Sport shaharchasi.**

SHahsiy tarkibning jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan. U quyidagilardan iborat:

(baland va past) turniklar; granata uloqtirish joylari; balandlik va uzoqqa sakrash joylari, yagona to'siqli yo'lka, voleybol, qo'l to'pi, basketbol va sh.k. maydonlari.

Qorovul xizmatini tashkil etish, qorovul xizmati o'tashga tayyorgarlik joyi, sutkalik naryad, uni tarqatish.

Qorovul xizmatini o'tash jangovar topshiriqni bajarish bo'lib, shahsiy tarkibdan Garnizon va Qorovullik hizmati Nizomi qoidalariga aniq rioya etishni talab qiladi. Xizmatni buzishda aybdorlar intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qorovul – jangovar bayroq, harbiy va davlat ob'ektlari, shuningdek, gauptvaxta va jazolash batalonida saqlanayotgan shaxslarni qo'riqlash bo'yicha jangovar topshiriqni bajarish uchun qurollangan harbiy bo'linma.

Harbiy qasamyod qabul qilmagan yosh jangchi tayyorgarligi dasto'rini o'zlashtirmagan, surushtiruv olib borilayotgan harakatlar sodir etgan, betob harbiy xizmatchilarni, shuningdek intizomiy chora sifatida tayinlash man eutiladi.

Qorovullar gornizon va ichki qorovullarga bo'linadi. Ichki qorovul harbiy ob'ektlarini qo'riqlash va mudofaa uchun tuziladi.

Qorovul tarkibi, qorovul boshlig'i, post va smenalar soniga ko'ra soqchilar, tarqatuvchilar, zarur bo'lganda qorovul boshlig'i yordamchisi va transport vositalari haydovchilari.

Ob'ektlar bevosita mudofaa va himoyasi uchun qorovul tarkibidan soqchi qo'yiladi. Soqchi – unga ishonib topshirilgan postni qo'riqlash bo'yicha jangovar topshiriq bajarayotgan qurollangan soqchi.

Post – soqchiga qo'riqlash uchun topshirilgan barcha narsa, shuningdek u o'z vazifasini bajarayotgan joyi tushuniladi. Ob'ektlar patrullash usulida qo'riqlanadi. Ayrim ob'ektlar (jangovar bayroq) harakatsiz soqchi tomonidan qo'riqlanishi mumkin.

Soqchilarga yordam uchun dam olayotgan smena hisobidan zaxira guruhi tuzilib, ular jangovar trevoga signaliga ko'ra qorovul boshlig'i yoki tarqatuvchi boshchiligida post buzilgan joyga keladi va vaziyatga ko'ra ish tutadi. Qorovul shahsiy tarkibi tegishli kiyingan, soz bo'lgan qurol bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Har bir avtomat va pistolet ikki o'qlangan magazin hisobida jangovar patronlar beriladi. Bundan tashqari qorovul xonasida patronlar zaxirasi har chasavoyga 2 tadan granata bo'ladi.

SHahsiy tarkib tayyorgarligi vzvod komandiri tomonidan olib boriladi. Mashg'ulot har bir ob'ekt hisobga olib maxsus jihozlangan joy - qorovul shaharchasida o'tkaziladi. Qorovul shaharchasi qo'riqlanadigan ob'ekt maketi bilan jihozlanadi. Instruktaj berishda komandir u yoki bu post xususiyatlari, yong'indan saqlash vositalarining joylashishi, telefon apparatlari, qorovul boshlig'ini chaqirish, tuman o'rniga e'tiborni qaratadi.

Yo'riqnomadan so'ng vzvod komandiri amaliy mashg'ulot o'tkazadi. Buning uchun shaharchada kichik binolar, akoplar, pana joylar, sim to'siqlar, yong'indan saqlash anjomlari, qurol o'qlash kabi joylari mavjud.

Mashg'ulotdan so'ng qorovul qurollanadi va xizmatga jo'naydi.

Tarqatishda, shuningdek sutkalik naryad ham bo'ladi. Sutkalik naryad vazifasi: ichki tartibni tutib turish, qurol, texnika va o'k-dori, qism (bo'linma) va bino mulkini quriqlash va boshqlar.

sutkalik naryadning odatiy tarkibi;

harbiy qism bo'yicha navbatchi;

harbiy qism bo'yicha navbatchi yordamchisi;

navbatchi bo'linma;

park bo'yicha navbatchi va soqchilar, navbatchi haydovchi;

navbatchi feldsher yoki sanistruktur, medpunkt bo'yicha soqchilar;

Nazorat o'tish joyi bo'yicha navbatchi va uning yordamchisi;

oshxna bo'yicha navbatchi va ishchilar;

shtab bo'yicha navbatchi;

navbatchi signalchi;

choparlar.

Vzvod sutkalik naryadiga: vzvod bo'yicha navbatchi va soqchilar kiradi. Ofitser tomonidan tayinlangan navbatchilar to'pponcha va 2 ta o'qlangan magazin bilan qurollanadi. Qolganlar (qorovuldan tashqari) qinidagi xanjar bilan qurollanadi.

Sutkalik naryadni tarqatish yangi tayinlangan qism bo'yicha navbatchi tomonidan bajariladi.

Sutkalik naryad sutka davomida (24 soat) xizmat o'taydi. Bunda uyqu uchun ko'pi bilan 4 soat ajratiladi. Sutkalik naryaddagi shaxs dam olish payitida kiyim va poyafzalini echishiga ruxsat berilmaydi.

## **2. Harbiy bilim yurtlariga qabul qilish qoidalari.**

Qabul qilish sharti harbiy bilim yurtlariga O'zbekiston Qurolli Kuchlarida hisobda turgan ofitserlar, muddatli harbiy xizmatni o'tuvchi askarlar, harbiy kuruvchilar, fuqaro yoshlar, muddatli xizmatdan zaxiraga bushatilgan harbiy xizmatga majburlar, bilim yurtini harbiy – professional yo'nalishda bitirib harbiy bilim yurtlarida o'qishni xoxlaganlar va professional saralashning hamma talablariga javob beruvchilar qabul qilinadilar. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida oliy ma'lumotli ofitserlar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatda turuvchi, Oliy maxsus-harbiy yoki oliy fuqarolik ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi.

Oliy harbiy ma'lumotli ofitser kadrlarni tayyorlovchi harbiy bilim yurtlariga muddatli xizmat o'tovchi harbiy xizmatchilar, fuqaro yoshlar, harbiy xizmatga majburlar, tuliq o'rta ma'lumotli, muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lganlar, harbiy professional yo'nalishda bilim yurtini bitirganlar qabul qilinadi.

Qurolli Kuchlar Akademiyasiga ofitser vazifasida 5 yildan kam xizmat qilmagan, quyidagi komandaviy shtab vazifalarda ishlaganlarni:

- batalon, devizion va ularga teng 38 yoshdan katta bulmagan komandirlarni;
- brigada (polklar) va ularga teng hamda yoshi 42 yoshdan katta bulmagan komandir o'rinbosarlarini;
- harbiy mataxassisliklari va xizmat vaqtidan kat'iy nazar muddatli xizmatni o'tovchi harbiy xizmatchilar, muddatli xizmatdan zaxiraga bushatilgan 23 yoshdan katta bulmagan harbiy-professional yo'nalishda bilim yurtlarida taxsil olganlarni;
- fuqaro yoshlar safidan, 17 dan 21 yoshgacha bo'lgan harbiy professional yo'nalishda taxsil olganlarni qabul qiladi.
- fuqaro tibbiyot instituti harbiy-tibbiyot kulliyotining 4 - kursini tugatib, davolash bo'yicha pediatriya va sanitar-gigienik fakultetlarida o'qigan talabalar, farmatsevtika va stomatologiya kulliyotlarining 3 - kursini tamomlagan va 30 yoshdan oshmagan talabalar qabul qilinadi.

Ko'rsatilgan kulliyotlarga tinglovchilarni qabul qilish imtixonini professional saralashdan so'ng qabul sodir bo'ladi.

### **B) Nomzodlarni professional saralash.**

OBYUlarining harbiy rahbarlari harbiy bilim yurtining hayotini, Oliy harbiy bilim yurtlariga qabul qilish shartlarini, Qurolli Kuchlarda ofitser tarkibining xizmat xususiyati va sharoitlarini aks ettiruvchi aniq ko'rgazmalar bilan askarlarni va mudofaa ishlarini, hamda boshqaruv ishlarini ta'minlaydilar.

## **3. ChQBT ini harbiy bilim yurtlariga nomzodlar tayyorlash bo'yicha ishlari.**

Bilim yurtlarida harbiy rahbar o'quvchilarning orasida harbiy – profesional yo'nalishda tashkiliy ishlarni uyushtiruvchi hisoblanadi. Harbiy bilim yurtiga kirish uchun uni har tomonlama kamol toptirish, ofitser bo'lish istagini shakllantirish, mutaxassislik tanlashda, bilim yurtini tanlashda yordam berishi kerak. Har bir o'rta ta'lim dargohida harbiy mavzuda burchak jixozlanadi. Unda harbiy mutaxassislikni tanlash bo'yicha harbiy bilim yurtiga kirish sharti, o'quvchilarning soni haqida aniq axborot orqali yoritiladi. Harbiy rahbar yigitlarni saralash va harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tayyorlashda kumak berishi kerak. Sinf rahbarlari bilan chaqiriqqacha bo'lgan, shuningdek harbiy bilim yurtlariga krishni xoxlovchi va shu boisdan ariza topshirganlarni tarjimai hollarini tayyorlash va imzo chekish kerak.

Ofitser bo'lishni xoxlagan 11-sinf o'quvchilari bilan alohida va guruxiy tarzda qushimcha ish olib boriladi. Buning uchun harbiy bilim yurtiga kirish uchun tayyorgarlik kuriladi. (Qo'yidagi

fanlar bo'yicha ona tili, fizika, matematika, tarix) O'zbekiston Respublikasi harbiy bilim yurtlarida o'qish istagini bildirgan yigitlar bilan ishlar rejasini ko'rib chikamiz.

«Tasdiqlayman»

Direktor \_\_\_\_\_

Bilim yurti

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020 yil

REJA

2020 yilda O'zbekiston Respublikasi harbiy bilim yurtlariga bitiruvchi gurux yigitalrini saralash va kirish uchun olib borish.

Tashkiliy ishlarning nomi	Bajarilish vaqti va ma'sul shaxslar	Bajarilgan ishlarni belgilash
Qurolli Kuchlar veteranlari, II Jaxon urushi qatnashchilari, maktab bitiruvchilari harbiy bilim yurti ofitser va kursantlari bilan uchrashuvlar tayyorlash va o'tkazish	Oktyabr, harbiy rahbar, tashkilotchi.	
11-sinf yigitlari bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli harbiy bilim yurtlarini tavsiya qilish maqsadida so'hbatlar o'tkazish.	Noyabr, direktor, harbiy rahbar, sinf rahbari.	
11-sinf o'quvchilarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining markaziy muzeyiga va TVOKU muzeyiga ekskursiyalar tashkil qilish.	Dekabr, harbiy rahbar.	
Avvalgi bitirganlar va harbiy bilim yurti kursantlarining su'ratlari bilan jixozlangan «Ofitser-mardlar kabi» nomli stend tashkil etish.	YAnvar, harbiy rahbar.	
Harbiy bilim yurtiga kirishni istaganlarning ota-onalari bilan so'hbatlar o'tkazish	Fevral, direktor, harbiy rahbar.	
Harbiy bilim yurtiga kirish uchun o'quvchilarga yozgi jadval tuzishda yordam kursatish	Aprel, harbiy rahbar.	
Harbiy bilim yurtiga kirishni istovchi 11-sinf yigitlari harbiy bilim yurtlarining talablari bilan tanishtirish	Mart harbiy rahbar.	
Harbiy bilim yurtiga kiruvchilarga ona tili, matematika, fizika darslari bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etish.	Oktyabr, aprel, muallim, harbiy rahbar.	
FOK va salomatlik normativlarini qabul qilishni ta'minlash.	Mart	

Harbiy bilim yurti da o'qishni istaganlarni bilim yurtining kengashida tinglash va bilim yurtiga kirish uchun yullanma berish.	Mart, Direktor	
--	-------------------	--

**HARBIY RAHBAR**  
unvoni, ismi, sharifi, imzo.

«\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2020 yil

### **Mavzu-12/1: “Harbiy o’quv yurtlari”.**

Reja:

O’quv maqsadlar:

- 1.Talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy bilim yurtlari va ulardagi harbiy mutaxassislik yo‘nalishlari bilan tanishtirish.
- 2.Talabalarni harbiy bilim yurtlariga qabul qilish qoidalari bilan tanishtirish.
- 3.Talabalarga ChQBT rahbarini harbiy bilim yurtlariga nomzodlar tayyorlash bo‘yicha ishlarini tushuntirish.
- 4.Talabalarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

O’quv savollari:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy bilim yurtlari va ulardagi harbiy mutaxassislik yo‘nalishlari.
- 2.Harbiy bilim yurtlariga qabul qilish qoidalari.
- 3.ChQBT rahbarini harbiy bilim yurtlariga nomzodlar tayyorlash bo‘yicha ishlari.

Vaqt: 2 soat;

Uslub: : ma’ruza

O‘tish joyi: sinif xonasi

Moddiy texnik ta’minot- Jaxon siyosiy kartasi, ko’rgazmali qurollar va mashg`ulot rejasi, sxemalar, slaydlar va multimediya.

Adabiyotlar.

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”. T- 2002.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy Nizomi. T- 1996.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom. T.: 2006.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining hamda Qurolli Kuchlar generallik shtabi boshlig‘ining buyruq va direktivalari.

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy bilim yurtlari va ulardagi harbiy mutaxassislik yo‘nalishlari.

O‘zining Qurolli Kuchlarini (QK) yaratish jarayonida har bir askarning xizmatida yaxshi natijalarga erishish uchun xizmatgacha bulgan yoshlar bilan ishlash, Harbiy bilim yurtlariga nomzodlarni tanlab olish sifati bilan bogliqdir. Bundan ko‘rinib turibdiki «O‘zbekiston Qurolli Kuchlari» oldida katta va dolzarb echilishi kerak bulgan savollar, ya’ni yoshlarni O‘zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlariga qarashli Harbiy bilim yurtlariga kirish uchun Harbiy yo'nalish bo'yicha tayyorlash kerak bo'ladi. Bugungi kunda bu masalaning muhimligi quyidagi tamoyillar orqali belgilanadi;

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikni qulga kiritgandan sung, Qurolli Kuchlar o'z armiyasi uchun Harbiy mutaxassislar tayyorlashga majbur bo'ladilar, bu esa o'z navbatida qiyinchiliklar bilan bogliq.(o'quv – material baza, muallimlar tarkibi va boshqalar).

Ikkinchidan, qurollar sistemasi va Harbiy texnikaning murakkablashib borishi.

Uchinchidan, xizmat vaqti cheklanganligi uchun, har bir Harbiy tayyorgalikni boshidan boshlash uchun imkoniyati yo'q.

To'rtinchidan, Harbiy xizmat haqida maktab O'quvchilari juda ham kam ma'lumotga egalar. SHuning uchun ayrim yoshlar uchun Qurolli Kuchlarda xizmat qilish faqatgina orzu bulib qoladi. Agar maktab O'quvchisi kasb tanlashda adashmasa, Harbiy xizmat uning hayoti mazmuniga aylanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Oliy Harbiy bilim yurtlarining ruyxati, manzillari va ularning maqsadlari.

Respublikamizda ofitser kadrlarni tayyorlash Maorif Vazirligining Harbiy bilim yurtlaridagi, zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash esa Respublikadagi oliy bilim yurtlarining Harbiy kafedralarida tayyorlanadi. 1993 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida 3 ta oliy Harbiy bilim yurtlari joylashgan edi va 3 mataxassislik bo'yicha ofitserlar tayyorlashar edi.

Ular quyidagilardan iborat: moto o'qchi vzvod komandirlari , AV komandirlari, AV komandirlari shaxsiy tarkib(sh/t) bilan ishlovchi komadir o'rinbosarlaridir. Ofitserlar tayyorlashni bunday sistemasi yangi vujudga kelgan vaziyatda o'zini oqlashda va Qurolli Kuchlar uchun kadrlar etkazib berolmadi. SHundan kelib chikib , yangi Harbiy bilim yurtlari tashkil etildi. Ular quyidagilardan iborat:

1)1993 yil may oyida Toshkent elektr aloqa instituti (TEAI) qoshidagi maxsus aloqa fakulteti.

2) 1994 yilning avgust oyida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi;

3) 1994 yil noyabr oyda tuzilgan Jizzax Oliy Harbiy aviatsiya bilim yurti (JOXABYU) tashkil etildi.

1993 yildan boshlab barcha Harbiy bilim yurtlari ofitser-kadrlarini ko'p yo'nalish bo'yicha tayyorlash sistemasiga o'tildi. Ushbu bilim yurtlarda tayyorlanayotgan ofitserlar mutaxassisligi soni 1993 yil 3ta balsa, 1997 yilga kelib 43 taga etdi. 1999 yilda esa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oliy Harbiy bilim yurtlarida ta'lim olayotganlar soni 3500 mintagacha etdi. Ulardan 200 mingtasi maxalliy axoli yoshlaridandir. Yiliga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning safi oliy Harbiy bilim yurtlarida tayyorlangan 900 ofitserlar bilan olib bormoqda.

Toshkent Oliy Harbiy qumondonlik bilim yurti 1918 yilning 12 iyulida tashkil topgan.1993 yil 1 iyulda bilim yurti yangi shtatga o'tdi. Hozirgi vaqtda bilim yurti quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha ofitser kadrlarni tayyorlaydi: motoo'qchilar qismi komandirlari, rota komadirlarining o'rinbosarlari , AS (SH.T.) shaxsiy tarkib bilan ishlovchi ofitserlarni tayyorlaydi.

CHirchiq Oliy tank qumondonlik-muxandislik bilim yurti 1918 yilning 16 noyabrida tashkil topgan bo'lib, u quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha ofitserlarni tayyorlaydi: taktik bronetexnika quollarining muxandisi va bronetank quollarini qullash va tiklash bo'yicha muxandislar, hamda texniklar;

- tank qushinlarining taktik komandiri-bronetank va avtomobil texnikalarini qullash bo'yicha muxandis;

- yakin masofalar uchun ishlatiluvchi komandaviy texnik zenit komplekslari va zenit qurilmalari, radiotexnika vositalarini qullash bo'yicha muxandislar;

- havo zenit qushinlarining komandaviy taktikasi-bronetank va avtomobil texnikalarini qullash bo'yicha muxandis;

- shaxsiy tarkib bilan ishlovchi ofitser, ijtimoiy fanlar bo'yicha mualim.

Jizzax Oliy Harbiy aviatsiya bilim yurti (JOXABYU) 1994 yilning sentyabrida tashkil topgan va quyidagi mutaxassislik bo'yicha ofitserlar tayyorlaydi:

- samolyot va vertolyotda uchuvchi injener;
- shaxsiy tarkib bilan ishlovchi ofitser;
- shturmanlar;
- samolyot, vertolyot dvigateli bo'yicha texnik;
- aviatsiya, radioelektrotexnika jixozlari va aviatsiya qurollari bo'yicha texniklar.

O'qish vaqtidagi uchish davri 180 soatni tashkil etadi.

Toshkent elektrotexnika aloqa instituti (TEAI) dagi maxsus fakultet (kulliet) 1993 yil 13mayda tashkil etilgan bo'lib, quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi:

- radio va kosmik aloqa;
- simli, radiorelsli va troposfera aloqalari;
- boshqaruvning avtomatik tizimi.

## II. Bilim yurtlariga kirish uchun fuqaro yoshlarga Harbiy-professional yo'nalishni o'tkazish tartibi.

Professional zarurlik tushunchasi va muammoni tushunish insonlar oldida ko'p vaqtlardan beri turadi. Professional saralab olish-bu tadbirlar sistemasi bo'lib, muayyan mutaxassisliklar bo'yicha psixologik xususiyatlar bilan hammadan ko'proq to'g'ri keladigan insonlarni tanlash imkoniyatini beradi. Professional zarurlik tushunchasi asosan XX asrning boshida paydo bo'ldi. Maktabda Harbiy-professional yo'nalishning asosiy maqsad i-bu ofitserlar kasbini tavsiya etish, muayyan Harbiy mutaxassislik va Harbiy bilim yurtini tanlash, 10-11- sinf yigilarini Harbiy bilim yurtlariga kirish uchun har tomonlama tayyorlash.

Bilim yurtlarda o'quvchilarni Harbiy-professional yo'naltirish masalalari quyidagilar:

- 1) O'quvchilarga Vatanni himoya qilish lozimligini tushuntirish va ularning ongida shakllantirish;
- 2) Harbiy xizmatni taklif qilgan har bir mutaxassislik mohiyatini, talablarini, xususiyatlarini tushuntirish;
- 3) Harbiy mutaxassislikka qiziqishni shakllantirish;
- 4) Yigitlarni o'ziga xos xususiyatlarini Harbiy-professional imkoniyatlarini o'rganish va Harbiy mutaxassislikni tanlashda kumak berish;
- 5) Barcha mashg'ulotlarda va avvalo birinchi navbatda chaqiriqqacha Harbiy tayyorgarlik (CHHT) mashg'ulotlarida, bu xususiyatlarni shakllantirish.

Harbiy-professional yo'nalish barcha muallim va direktor boshchiligida olib borilishi lozim. Bu erda Harbiy rahbarning xizmati juda kattadir.

Harbiy – professional yo'nalishida ish olib borish tartibi va talablari.

- 1) Harbiy professional yo'nalishning har taraflamaligi va aniqligi;
- 2) Yigitlarning qiziqish va intilishlariga qarab berilgan tavsiyalarning to'g'ri kelishi;
- 3) SHaxsiy yondoshish va Harbiy ta'limga bulgan tavsiyalar prinsipi;
- 4) Harbiy-professional yo'nalishning muntazam bo'lishi va bir maqsadni ko'zlashi kerak.
  - 1) tayyorlantirish (5-8 sinflar)
  - 2) Umumiy tayyorgarlik (9-sinf)
  - 3) Bevosita tayyorgarlik (10-11 sinflar)

Tayyorlantirish davrining asosiy maqsadi, armiyaga muhabbat, hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ofitserlik xurmatini oshirish. Professional yo'nalishdagi ishlarni, o'quvchilar bilan birgalikda ota-onalar, mahalla qumitalari, hokimiyat va mudofaa ishlari boshkarmalari bilan birgalikla olib borilishi kerak. Harbiy professional yo'nalish quyidagilarni: alohida va guruxiy suhbatlar o'tkazish, badiy adabiyotlarni o'qish, Harbiy Vatandarparvarlik ruxidagi kinofilmlar ko'rish, Harbiy bilim yurtidagi kursant, ofitserlar bilan, zaxiradagi askarlar va internatsional burchini bajargan jangchilar bilan, hamda II Jaxon urushi qatnashchilari bilan uchrashuvlar o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Harbiy professional yoʻnalishning davrini koʻrib chiqamiz:

1. Tayyorlantirish davri 5-8 sinf Oʻquvchilarini Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yaratilish tarixi bilan umumiy tanishtirish, Vatan himoyachilari kasbiga muhabbat oʻygotish, ofitser kasbiga boʻlgan hurmatni yoshlar orasida yoyish. Bu ish oʻquvchilarning Harbiy Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy qismi hisoblanadi va maktabning butun jamoasi tomonidan oʻtkaziladi. Bu davrda Harbiy xizmat, Harbiy adabiyotlar bilan qiziqayotgan hamda ofitser boʻlishni orzu qilgan yoshlarga alohida eʼtibor berish kerak. Bolalarda Harbiy xizmatga moyillik uygotish maqsadida ular va ularning ota-onalari bilan alohida soʻhbatlar oʻtkaziladi. Bu davrning oxirgi natijasi, Harbiy xizmatda boʻlish istagidagi yoshlarni saralab olishdir.

2. Umumiy tayyorgarlik davri 9-sinfdan Harbiy boʻlishni istagan Oʻquvchilar bilan Harbiy professionallik yulida ish olib borishni davom ettirish. Maktabda koʻpgina oʻquv darsliklar bolaning dunekarashini shakllantirishga oz bilsada oʻz xisasini kushadi. Bunday darsliklar qatorida alohida oʻrinni tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot va boshqalar egallaydi. Harbiy kasbga mustaxkam qiziqishni shu maktabning bitirib ketgan ofitserlari bilan, Harbiy qismlarning serjantlari bilan, II Jaxon urushi qatnashchilari, internatsional jangchilar bilan uchrashuv oʻtkazib turishni tashkil etgan va bunga boshchilik qilgan Harbiy rahbarning xizmati kattadir. YOshlarni psixologik tomondan tayyorlashda Harbiy rahbar shaxsi ham katta taʼsir kursatadi, uning aqliy qobiliyati, yoshlarni oʻz orqasidan torta olishi va oʻzining tartib hamda tarbiyasi yoshlarga yaxshi tarafdin taʼsir kursatadi.

### 3. Bevosita tayyorgarlik (10-11 sinflar)

10-11 sinflardagi Oʻquvchilarni mudofaa ishlari boshqarmasi tomonidan harbiy oʻquv yurtlariga loyiqligini aniqlash uchun, birlamchi saralab olish uchun tibbiy kurikdan har birini alohida oʻtkaziladi. Saralashning asosiy maqsadi bolaning aynan shu kasbni tanlashdagi asl mohiyatini bilishidir.

Professional saralash quyidagi uch bosqichni oʻz ichiga oladi:

- 1) Maktab.
- 2) Mudofaa ishlari boʻyicha boshqarma.
- 3) Harbiy bilim yurti.

Maktabdagi professional saralash yigitlarning imkoniyatlari va qobiliyatlari, ularning darslikni uzlashtirishlari va quyidagi:

- 1) Holatiy
- 2) Yigit shaxsini shakllantiruvchi holatlarni bilishni oʻz ichiga oladi.

1) Holatiy – yigitning ota-onalari qacarda va kim bulib ishlaydilar, oilasining yigitga qanday taʼsir kursataetgani, Oʻquvchining tarbiyasi va ota-onalar u bilan qanday shugullanayotganliklari, oilaning maʼnaviy muxiti, yigitning Harbiy bilim yurtga kirib oʻqishiga oilasining munosabati. Maktabda qanday oʻqiydi, qaysi fanlarni yaxshi oʻzlashtirgan, qaysi muallim uning uchun avtoritet bulib xizmat qiladi, qizikishlari, dustlari va bularning hammasini yigitga boʻladigan taʼsiri.

2) Yigit shaxsini shakllantiruvchi maʼlum holatuning dunyoqarashi, fikri, siyosiy yutukligi, Respublikada va chet ellarda sodir bulyotgan voqealarga uning qarashlari. Shu kasbni nima sababdan tanlayotganligi, nima uchun ofitser boʻlishni istaydi u yoki bu bilim yurtini tanlash sababini asoslab berishi, bu mutaxassislikka yigitni nima jalb etdi. Bu davrda uning Harbiy mutaxassislik haqida qay darajada maʼlumotga egaligi koʻrinib qoladi (toʻliq, tuliksiz, sust). Mudofaa ishlari boʻyicha boshqaruv va Harbiy bilim yurtlari har bir tashkilotlarga xos bulgan saralashning shakl va usullarini qullab kelmoqda.

### 3. Oʻzbekiston Respublikasi Harbiy bilim yurtlariga kirish uchun nomzodlarni saralab olish har bir rahbarning majburiyatidir.

Bilim yurtlarida Harbiy rahbar Oʻquvchilarning orasida Harbiy – profesional yoʻnalishda tashkiliy ishlarni uyushtiruvchi hisoblanadi. Harbiy bilim yurtiga kirish uchun uni har tomonlama

kamol toptirish, ofitser bo'lish istagini shakllantiri, mutaxassislik tanlashda, bilim yurtini tanlashda yordam berishi kerak. Har bir o'rta ta'lim dargohida Harbiy mavzuda burchak jixozlanadi. Unda Harbiy mutaxassislikni tanlash bo'yicha Harbiy bilim yurtiga kirish sharti, O'quvchilarning soni haqida aniq axborot orqali yoritiladi. Harbiy rahbar yigitlarni saralash va Harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tayyorlashda kumak berishi kerak. Sinf rahbarlari bilan chaqiriqqacha bo'lgan, shuningdek Harbiy bilim yurtlariga kirishni xoxlovchi va shu boisdan ariza topshirganlarni tarjimai hollarini tayyorlash va imzo chekish kerak.

Ofitser bo'lishni xoxlagan 11-sinf O'quvchilari bilan alohida va guruxiy tarzda qushimcha ish olib boriladi. Buning uchun Harbiy bilim yurtiga kirish uchun tayyorgarlik kuriladi. (Quyidagi fanlar bo'yicha ona tili, fizika, matematika, tarix) O'zbekiston Respublikasi Harbiy bilim yurtlarida o'qish istagini bildirgan yigitlar bilan ishlar rejasini ko'rib chikamiz.

«Tasdiqlayman»

Direktor \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_ Bilim yurti  
 «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020 yil

REJA

2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Harbiy bilim yurtlariga bitiruvchi gurux yigitlarini saralash va kirish uchun olib borish.

	Tashkiliy ishlarning nomi	Bajari lish vaqti va ma'sul shaxslar	Bajarilgan ishlarni belgilash
	Qurolli Kuchlar veteranlari, II Jaxon urushi qatnashchilari, maktab bitiruvchilari Harbiy bilim yurti ofitser va kursantlari bilan uchrashuvlar tayyorlash va o'tkazish	Oktyabr, Harbiy rahbar, tashkilotchi.	
	11-sinf yigitlari bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Harbiy bilim yurtlarini tavsiya qilish maqsad ida so'hatlar o'tkazish.	Noyabr, direktor, Harbiy rahbar, sinf rahbari.	
	11-sinf O'quvchilarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining markaziy muzeyiga ekskursiyalar tashkil qilish.	Dekabr, Harbiy rahbar.	
	Avvalgi bitirganlar va Harbiy bilim yurti kursantlarining su'ratlari bilan jixozlangan «Ofitser-mardlar kabi» nomli stend tashkil etish.	Yanvar, Harbiy rahbar.	
	Harbiy bilim yurtiga kirishni istaganlarning ota-onalari bilan so'hatlar o'tqazish	Fevral, direktor, Harbiy rahbar.	
	Harbiy bilim yurtiga kirish uchun O'quvchilarga yozgi jadval tuzishda yordam kursatish	Aprel, Harbiy rahbar.	
	Harbiy bilim yurtiga kirishni istovchi 11-sinf yigitlari Harbiy bilim yurtlarining talablari bilan tanishtirish	Mart Harbiy rahbar.	
	Harbiy bilim yurtiga kiruvchilarga ona tili, matematika, fizika darslari bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etish.	Oktyabr, aprel, muallim, Harbiy rahbar.	
	FOK va salomatlik normativlarini Qabul qilishni ta'minlash.	Mart	
0	Harbiy bilim yurti da o'qishni istaganlarni bilim yurtining kengashida tinglash va bilim yurtiga kirish uchun yullanma berish.	Mart, Direktor	

Harbiy rahbar  
 Unvoni, ismi, sharifi, imzo.

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020 yil

## O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Harbiy bilim yurtlariga Qabul qilish shartlari.

Bilim yurtiga kirish uchun hujjatlar, nomzodlar oldiga quyilgan talablar. Oliy Harbiy bilim yurtlarida o‘qish uchun tayyorlantirish va o‘qishga yunaltirish.

Qabul qilish sharti Harbiy bilim yurtlariga O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida hisobda turgan ofitserlar, muddatli Harbiy xizmatni o‘tuvchi askarlar, Harbiy quruvchilar, fuqaro yoshlar, muddatli xizmatdan zaxiraga bushatilgan Harbiy xizmatga majburlar, bilim yurtini Harbiy – professional yo‘nalishida bitirib Harbiy bilim yurtlarida o‘qishni xoxlaganlar va professional saralashning hamma talablariga javob beruvchilar qabul qilinadilar. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida oliy ma‘lumotli ofitserlar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy xizmatda turuvchi, Oliy maxsus-Harbiy yoki oliy fuqarolik ma‘lumotiga ega bo‘lgan shaxslar qabul qilinadi.

Oliy Harbiy ma‘lumotli ofitser kadrlarni tayyorlovchi Harbiy bilim yurtlariga muddatli xizmat o‘tovchi Harbiy xizmatchilar, fuqaro yoshlar, harbiy xizmatga majburlar, to‘liq o‘rta ma‘lumotli, muddatli Harbiy xizmatni o‘tab bo‘lganlar, Harbiy professional yo‘nalishda bilim yurtini bitirganlar qabul qilinadi.

Qurolli Kuchlar Akademiyasiga ofitser vazifasida 5 yildan kam xizmat qilmagan, quyidagi qo‘mondonlik shtab vazifalarda ishlaganlarni:

- batalon, devizion va ularga teng 35 yoshdan katta bulmagan komandirlarni;
- brigada va ularga teng hamda yoshi 42 yoshdan katta bo‘lmagan komandir o‘rinbosarlarini;
- Harbiy mataxassisliklari va xizmat vaqtidan qat‘iy nazar muddatli xizmatni o‘tovchi Harbiy xizmatchilar, muddatli xizmatdan zaxiraga bushatilgan 23 yoshdan katta bulmagan Harbiy-professional yo‘nalishda bilim yurtlarida taxsil olganlarni;
- fuqaro yoshlar safidan, 17 dan 21 yoshgacha bo‘lgan Harbiy professional yo‘nalishda taxsil olganlarni qabul qiladi.
- fuqaro tibbiyot instituti Harbiy-tibbiyot kulliyotining 4 - kursini tugatib, davolash bo‘yicha pediatriya va sanitar-gigienik fakultetlarida o‘qigan talabalar, farmatsevtika va stomatologiya kulliyotlarining 3 - kursini tamomlagan va 30 yoshdan oshmagan talabalar qabul qilinadi.

Ko‘rsatilgan kulliyotlarga tinglovchilarni qabul qilish imtixonini professional saralashdan sung qabul sodir bo‘ladi.

nomzodlarni professional saralash.

OBYUlarining Harbiy rahbarlari Harbiy bilim yurtining hayotini, Oliy Harbiy bilim yurtlariga qabul qilish shartlarini, Qurolli Kuchlarda ofitser tarkibining xizmat xususiyati va sharoitlarini aks ettiruvchi aniq kurgazmalar bilan askarlarni va mudofaa ishlarini, hamda boshqaruv ishlarini ta‘minlaydilar.

